

<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>	<b>BET</b>
<b>1.</b>	Kirish. “Biotexnologik jarayonlar jihozlari” fani asoslari	
<b>2.</b>	Jarayonlarning asosiy turlari va ularning qonuniyatları	
<b>3.</b>	Biotexnologik ishlab chiqarishning texnologik va loyixalash asoslari	
<b>4.</b>	Biotexnologik ishlab chiqarishdagi apparatlar ularning material va detallari	
<b>5.</b>	Oziqa muhitlarini sterillash. Avtoklavning ishlashi	
<b>6.</b>	Sentrifuga va separatorlar	
<b>7.</b>	Bug‘latish apparatlar	
<b>8.</b>	Quritish uskunalar	
<b>9.</b>	Ekstraktorlar va ularning ishlash prinsipi	
<b>10.</b>	Flotatsion uskunalar	
<b>11.</b>	Chang tutuvchi apparatlar	
<b>12.</b>	Xomashyoni jarayonga tayyorlash hamda uni uzatish uskunalar	
<b>13.</b>	Gidrolizatorlar va inventorlar	
<b>14.</b>	Asosiy fermentatsion uskunalar va ularni tanlash	
<b>15.</b>	Xomashyo tayyor mahsulotni saqlash uchun uskunalar va ularni saqlash rejimlari	
<b>AMALIY MASHG’ULOTLAR</b>		
<b>LABORATORIYA MASHG’ULOTLARI</b>		

## 1-MA’RUZA

### BIOTEXNOLOGIK JARAYONLAR JIHOZLARI FANI ASOSLARI

#### Reja:

1. Texnologiya rivojlanishining hozirgi davrdagi bosqichida biotexnologiyaning roli.
2. «Biotexnologik jarayon jihozlari» fanining maqsad va vazifalari.
3. Mikrobiologik ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy turlari. Qurilmalarntng sinflanishi.
4. Biotexnologiyaning rivojlanish istiqbollari.


Zamonaviy jamiyatning hayotini mikroorganizmlar yordamida olingen mahsulotlari keng miqyosdagi foydalanishisiz tasavvur etish qiyin. So‘nggi yillarda «biotexnologiya» degan yangi atama paydo bo‘ldi, u orqali kelib chiqishi har xil bo‘lgan tirik hujayralardan turli xil, inson uchun kerakli mahsulotlarni olish texnologiyasi ta’riflanadi. Biotexnologiya, mikrobiologiya, bioximiya, molekulyar biologiya va genetikaning yutuqlariga asoslanadi. Yarim asr ilgari hozirda ishlab chiqish amaliyotiga keng tadbiq etilgan mikroorganizmlar hayot faoliyatining mahsulotlari bo‘lgan antibiotiklar, fermentlar, aminokislotalar va ko‘pgina boshqa qimmatbaho xo‘jalik preparatlarini olishga qaratilgan yondoshuvlarning hattoki asosiyлари noma‘lum bo‘lgan. So‘nggi 20 yil davomida turli xil mitsellali zamburug‘lar, achitqilar, bakteriyalarni qo‘llashga asoslangan bir qator butunlay yangi ishlab chiqarish sohalari paydo bo‘ldi. Bugun biz mikrobiologik sanoatda xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun kerakli bo‘lgan biologik aktiv va boshqa moddalarning produtsentlari sifatida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan turli taksonomik guruhlarga kiruvchi keng doiradagi mikroorganizmlar haqida so‘z yuritishimiz mumkin.

Mikrobl li sintez mahsulotlarining zamonaviy sanoatlashgan ishlab chiqarilishi tayyorlanadigan mahsulotning turi va shakliga bog‘liq bo‘lgan sondagi ketma-ket keladigan bosqich va operatsiyalardan tashkil topgan yagona biotexnologik tizimdan iboratdir. Biotexnologik tizimning umumiy ko‘rinishi 1-rasmda berilgan.

Produtsentlarni izlab topish bosqichida shtamm, ya’ni eng yuqori mahsuldorlikka ega mikroorganizm tanlanadi. Hozirgi kundagi tanlash usullari, ya’ni seleksiya fani va molekulyar genetika, mikrob hujayralarining biokimyosi va fiziologiyasi, genlar faolligini nazorat qilish (regulyasiya) qilish usullari haqidagi eng yangi bilimlarga asoslanmoqda; genetik almashinuv usullari, gen muhanlisligi metodologiyasi qo‘llanilmoqda. Biologik texnologiya yaratilishining bu bosqichida shtamm, ya’ni produtsentning potensial imkoniyatlari baholanadi va shakllanadi.

Biotexnologik tizimni shakllantirishning eng muhim faol bosqichi bo‘lib produtsent hujayralarning o‘sirish (kultivirlash) rejimini ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu nihoyatda murakkab texnologik jarayon hujayraning fiziologiyasi bilan shartlangan barcha ehtiyojlarini qondirishi kerak. Aynan bu bosqichda hujayraning genetik jihatdan oldindan belgilangan imkoniyatini yuzaga chiqarish mumkin bo‘ladi. Kultivirlash jarayoniga produtsent hujayralar hayot faoliyati uchun foydali bo‘lgan sharoitlarga erishish zaruriyati qo‘shiladi. Optimal kultivirlash jarayonining muhandislik ta’minoti murakkab ko‘p omilli masala bo‘lib hisoblanadi.

Kultivirlashdan keyin keladigan biopreparat olishning jarayonlarini passiv bosqichlarga kiritish mumkin, negaki bu bosqichlarda so‘nggi olinadigan mahsulotning ko‘payishi amalga oshirilmay, faqatgina kerakli tovar shaklini hosil qilish maqsadida unga ishlov beriladi. Keyingi barcha bosqichlarning asosiy maqsadi so‘nggi olinadigan mahsulotni maksimal darajada saqlab qolishdan iborat bo‘ladi.



**1-rasm.**

Hozirgi mikrobiologik sanoat xalq xo‘jaligining qimmatli em mahsulotlari, antibiotiklar, aminokislotalar, vitaminlar va boshqa biologik aktiv moddalarning sanoatlashgan ishlab chiqarilishiga qaratilgan mustaqil sohasiga aylandi. Ushbu ishlab chiqarishning ko‘p tonnaliligi yuqori samaradorlikka ega jihozlar bilan ta’minlangan optimal texnologik sxemalar yaratilishini talab qiladi. Bu jarayonlarning asosini mikrobiologik apparatura tashkil qilib, unda biosintez hamda tovar mahsulot olishning keyingi barcha operatsiyalari amalga oshiriladi. Mikrobiologik mahsulotning o‘ziga xosligi, termolabilligi, uni olishdagi sterillik holati konstruktiv ishlab chiqarishlarga qo‘srimcha cheklashlarni yuklaydi. SHu sababli kimyoviy ishlab chiqarish uchun odatiy bo‘lgan jihozlar ko‘p hollarda biotexnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri kelmaydi. Avvalambor, bu umuman yangi va kimyoda analoglarga ega bo‘lmagan apparatlar, ya’ni biokimyoviy reaktorlar (fermentyorlar) ga tegishlidir.

Mikrobiologik qurilmalarda kechadigan jarayonlar yuqori darajadagi murakkablik bilan ajralib turadi. Bu faqatgina biokimyoviy sinteza yashash muhitining o‘zgarishiga nisbatan reaksiyasini oldindan bilib bo‘lmaydigan tirik organizmlar ishtirot etishi bilan shartlanmaydi. Biomassa olishning turli bosqichlarida ishlab chiqiladigan sistemalarning o‘zi fizikaviy strukturasi bo‘yicha murakkabdir. Ko‘pincha bu sistemalar bir turli bo‘lmasdan, bu kechayotgan jarayonlarning tahlilini qiyinlashtiradi. «Biotexnologik jarayonlarning jihozlari » kursi biotexnologiya asoslarini hamda mikroblari sintez mahsulotlarini olishga mo‘ljallangan jihozlarning asosiy turlari haqidagi ma'lumotlarni birlashtiruvchi fan hisoblanadi. Mikrobiologik ishlab chiqarishning texnologik qatorlarini hosil qiladigan qurilamalarning konstruktiv xususiyatlari, ishi va ekspluatatsiyasini o‘rganish kursining vazifasiga kiradi.

Mikrobiologik ishlab chiqarish mikrobiobiya, oziq-ovqat va meditsina sanoatining tarkibiga kiradi. Mikrobiologik sanoatda mikroblari sintez orqali asosan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan mahsulotlar olinadi. Etil spirti, atseton, butanol, ferment preparatlari va tozalangan aminokislotalar kabi mahsulotlar xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida ham qo‘llaniladi. Oziq-ovqat sanoatida mikrobiologik jarayonlar etil spirti, vino, pivo, sutli mahsulotlar, achitqilar, limon kislotasi va boshqa asosan oziq-ovqatga mo‘ljallangan mahsulotlarni olishda keng qo‘llaniladi. Meditsina sanoatida mikroblari sintez orqali antibiotiklar, poliglyukin va boshqa bir qator yuqori tozalikka ega preparatlar olinadigan ishlab chiqarish guruhi mavjud.

Xalq xo‘jaligining turli sohalari tomonidan mahsulotlar sifati va tarkibiga qo‘yiladigan talablar ma'lum darajada mikrobiologik ishlab chiqarish texnologik rejalarining xilma-xilligini va mos ravishda, jarayonlarning apparaturali ta’mnotinib belgilaydi.

Jihozlarning to‘g‘ri tanlanishi va samaradorli ekspluatatsiyasi ma'lum darajada qayta ishlanadigan xomashyo xususiyatlari va jarayonni olib borishning texnologik rejimlariga bog‘liq. Mikroblari sintez mahsulotlarining ishlab chiqarilishi katta miqdordagi suyuq va sochiluvchan xomashyo turlari hamda siqilgan havoning ishlatilishi bilan bog‘liq. Oziqa muhitlari va havoning sterilizatsiyasi uchun ishlatiladigan jihozlar alohida e’tiborni talab qiladi. Aynan bu operatsiyalarga ma'lum darajada fermentatsiya jarayonlarining amalga oshirilishi bog‘liq. Intensiv massa almashinuviga ega fermentyorlar yaratishda eng muhim masalalardan biri bo‘lgan mexanik aralashtirishga katta e’tibor beriladi.


Har qanday mikroblari sintez mahsulotining ishlab chiqarilishidagi muhim bosqichlar bo‘lib biosintez mahsulotlarining ajratib olinishi, konsentratsiyalanishi va quritilishi hisoblanadi.

Mikrobiologik sanoatning zamonaviy korxonalari mikroblari sintez mahsulotlarining olinishi bilan turli xildagi xomashyoni qayta ishlovchi korxonalardan iborat. Mikrobiologik jarayonlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda biotexnologik ishlab chiqarishlarga mo‘ljallangan mashina va qurilmalarning klassifikatsiyasi tuzilgan (2-rasm).

Nozik mikrobiologik sintez mahsulotlari texnologiyasining asosiy jarayonlarini tahlili hamda qurilmalarini hisoblashning umumlashgan usullarining ishlab chiqarilishi fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarning fundamental qonunlariga asoslanadi. Har bir jarayonning o‘rganilishi uning makrokinetikasidan boshlanadi. Bunda molekulyar darajada bir-biridan mustasno holda kechadigan elementar jarayonlarning qonuniyatlaridan foydalananadi. Diffuziya, konveksiya va issiqlik almashinuvining rolini hisobga olgan holda qurilmalardagi mikroorganizmlarning

o'sishi, rivojlanishi va almashinuvini o'rganiladigan mikroorganizmlarni kultivirlash jarayonlarining makrokinetikasi katta ahamiyatga ega. Kultivator har qanday mikrobiologik ishlab chiqarishning texnologik sxemasida asosiy element bo'lib hisoblanadi.

Biotexnologik jarayonda har bir bosqichning tegishli apparaturali ta'minoti bir maqsadga, ya'ni oxirgi olinadigan mahsulotni saqlab qolishga qaratilgan. Biopreparatlar – bu biotexnologiyaning keng imkoniyatlarini namoyon qiluvchi bakterial go'ng, zardoblar, em achitqilar, fermentlar, antibiotiklar, biolipidlar, polisaxaridlar, aminokilotalar. Biotexnologik ishlab chiqarishning mahsulotini oziq-ovqat va engil sanoat, farmatsevtika va neft-gaz sanoati, metallurgiya, rezina, lak-bo'yoq sanoatlari iste'mol qiladi.



Bugungi kunda biotexnologiyada texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari aniqlanib bo‘ladi. Bu davriydan uzlusiz jarayonlarga, yuzaki chuqurlikdagi kultivirlashga, ochiqdan aseptik ishlab chiqarishga, muhitni turli chiqindilar bilan ifloslantiruvchi ishlab chiqarishdan chiqindisiz texnologiyaga o‘tishdir. Biotexnologiyaning rivojlanishidagi butunlay yangi yo‘nalishlar turli xil tashuvchilarga immobillangan fermentlar yoki mikroorganizmlar hujayralariga ega reaktorlardagi biokimyoiy jarayonlarning amalga oshishi bilan bog‘liq. Bu uzlusiz jarayonlarning rivojlanish yo‘nalishlarini olib beradi, jihozlarning nisbiy unumdarligi yuqori bo‘lganda qimmatbaho fermentlar yoki mikroorganizmlarni ko‘p marta va uzoq muddat davomida ishlatishga imkon beradi. Biotexnologiya yutuqlarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi oziq-ovqat, xomashyo, ekologiya va energetika kabi zamonaliviy masalalarining echimiga yordam beradi.

#### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

- biotexnologiya;mikroorganizmlar; mikrob;
- produtsent; xujayra ; kultivirlash;rezervuar;
- ozuqa muhiti;stabilizatsiya; konsentratsiya;

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Biopreparatlar nima?
2. Avtotrof organizmlarga ta’rif bering?
3. Geterotrof organizmlarga ta’rif bering?
4. Biotexnologiyaning hozirgi davrdagi ahamiyati.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. A.Yu.Vinarov , L.S.Gordeev, A.A.Kuxarenko, V.I.Panfilov . Fermentatsionnie apparati dlya protsessov mikrobiologicheskogo sintnza, Moskva DeLi print, 2005
2. Viestur U.E. i dr. Biotexnologiya. Biologicheskie agenti. Texnologiya, apparatura. Riga., zinnate. 2005. S.261.

## **2 – MA’RUZA**

### **JARAYONLARNING ASOSIY TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI**

#### **Reja.**

1. Texnologiya rivojlanishining hozirgi davrdagi bosqichida biotexnologiyaning roli
2. Biotexnologiyaning rivojlanish istiqbollari.

Zamonaliviy jamiyatning hayotini mikroorganizmlar yordamida olingen mahsulotlari keng miqyosdagi foydalanishisiz tasavvur etish qiyin. So‘nggi yillarda «biotexnologiya» degan yangi atama paydo bo‘ldi, u orqali kelib chiqishi har xil bo‘lgan tirik hujayralardan turli xil, inson uchun kerakli mahsulotlarni olish texnologiyasi ta’riflandi. Biotexnologiya, mikrobiologiya, bioximiya, molekulyar biologiya va genetikaning yutuqlariga asoslanadi. Yarim asr ilgari hozirda ishlab chiqish amaliyotiga keng tadbiq etilgan mikroorganizmlar hayot faoliyatining mahsulotlari bo‘lgan antibiotiklar, fermentlar, aminokislotalar va ko‘pgina boshqa qimmatbaho xo‘jalik preparatlarini olishga qaratilgan yondoshuvlarning hattoki asosiyлari noma’lum bo‘lgan. So‘nggi 20 yil davomida turli xil mitsellali zamburug‘lar, achitqilar, bakteriyalarni qo‘llashga asoslangan bir qator butunlay yangi ishlab chiqarish sohalari paydo bo‘ldi. Bugun biz mikrobiologik sanoatda xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun kerakli bo‘lgan biologik aktiv va boshqa moddalarning produtsentlari sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turli taksonomik guruhlarga kiruvchi keng doiradagi mikroorganizmlar haqida so‘z yuritishimiz mumkin.

Mikrobl li sintez mahsulotlarining zamonaliviy sanoatlashgan ishlab chiqarilishi tayyorlanadigan mahsulotning turi va shakliga bog‘liq bo‘lgan sondagi ketma-ket keladigan bosqich va operatsiyalardan tashkil topgan yagona biotexnologik tizimdan iboratdir. Biotexnologik tizimning umumiyo ko‘rinishi 1-rasmda berilgan.

Produtsentlarni izlab topish bosqichida shtamm, ya’ni eng yuqori mahsuldorlikka ega mikroorganizm tanlanadi. Hozirgi kundagi tanlash usullari, ya’ni seleksiya fani va molekulyar genetika, mikrob hujayralarining biokimyosi va fiziologiyasi, genlar faolligini nazorat qilish (regulyasiya) qilish usullari haqidagi eng yangi bilimlarga asoslanmoqda; genetik almashinuv usullari, gen muhanlisligi metodologiyasi qo’llanilmoqda. Biologik texnologiya yaratilishining bu bosqichida shtamm, ya’ni produtsentning potensial imkoniyatlari baholanadi va shakllanadi.

Biotexnologik tizimni shakllantirishning eng muhim faol bosqichi bo‘lib produtsent hujayralarning o‘sirish (kultivirlash) rejimini ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu nihoyatda murakkab texnologik jarayon hujayraning fiziologiyasi bilan shartlangan barcha ehtiyojlarini qondirishi kerak. Aynan bu bosqichda hujayraning genetik jihatdan oldindan belgilangan imkoniyatini yuzaga chiqarish mumkin bo‘ladi. Kultivirlash jarayoniga produtsent hujayralar hayot faoliyati uchun foydali bo‘lgan sharoitlarga erishish zaruriyatni qo’shiladi. Optimal kultivirlash jarayonining muhandislik ta’minoti murakkab ko‘p omilli masala bo‘lib hisoblanadi.

Kultivirlashdan keyin keladigan biopreparat olishning jarayonlarini passiv bosqichlarga kiritish mumkin, negaki bu bosqichlarda so‘nggi olinadigan mahsulotning ko‘payishi amalga oshirilmay, faqatgina kerakli tovar shaklini hosil qilish maqsadida unga ishlov beriladi. Keyingi barcha bosqichlarning asosiy maqsadi so‘nggi olinadigan mahsulotni maksimal darajada saqlab qolishdan iborat bo‘ladi.

Bugungi kunda biotexnologiyada texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari aniqlanib bo‘ladi. Bu davriydan uzlusiz jarayonlarga, yuzaki chuqurlikdagi kultivirlashga, ochiqdan aseptik ishlab chiqarishga, muhitni turli chiqindilar bilan ifloslantiruvchi ishlab chiqarishdan chiqindisiz texnologiyaga o‘tishdir. Biotexnologiyaning rivojlanishidagi butunlay yangi yo‘nalishlar turli xil tashuvchilarga immobillangan fermentlar yoki mikroorganizmlar hujayralariga ega reaktorlardagi biokimyoviy jarayonlarning amalga oshishi bilan bog‘liq. Bu uzlusiz jarayonlarning rivojlanish yo‘nalishlarini ohib beradi, jihozlarning nisbiy unumdonligi yuqori bo‘lganda qimmatbaho fermentlar yoki mikroorganizmlarni ko‘p marta va uzoq muddat davomida ishlatishga imkon beradi. Biotexnologiya yutuqlarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi oziq-ovqat, xomashyo, ekologiya va energetika kabi zamonaviy masalalarining echimiga yordam beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

- 1.A.Yu.Vinarov , L.S.Gordeev, A.A.Kuxarenko, V.I.Panfilov . Fermentatsionnie apparati dlya protsessov mikrobiologicheskogo sintza, Moskva DeLi print, 2005
- 2.Viestur U.E. i dr. Biotexnologiya. Biologicheskie agenti. Texnologiya, apparatura. Riga., zinnate. 2005. S.261.

## **3 – MA’RUZA BIOTEXNOLOGIK ISHLAB CHIQARISHNING TEXNOLOGIK VA LOYIXALASH ASOSLARI**

**Reja:**

**1.Texnologik xisoblashning asosiy turlari.**

**2. Bioreaktorning o‘lchamini tanlash.**

Biotexnologiya - hozirgi vaqtida insoniyatning eng asosiy dolzarb muammolaridan biri hisoblan mish - oziq-ovqat, energetik resurs, atrof-muxit ifloslanishining oldini olish bilan bog‘lik muammolari echimini topishga xizmat kiladi. Mikroorganizmlar, o‘simlik va hayvon xujayralari, sun’iy oziqa muhitlarida o‘sirilayotgan hujayra, to‘qima va organlarni biosintetik potensialidan amaliy foydalananishda bioreaktor va biotexnologik jarayoi uskunalarining ahamiyati katta. Hozirgi vaktda dunyoning ko‘plab manlakatlarida biotexnologiyaning tarakkiyotiga asosiy e’tibor karatilmokda, chunki boshka texnologiyalarga karaganda, biotexnologik jarayonlari energiya sarfining kamligi, deyarli chiknndisnligi, ekologik sofligi jixatidan bir kator afzallikkarga ega. Bundan tashkari bu texnologiyalar muayyan asbob-uskuna, texnik kurilma va preparatlardan

foydalishni talab kiladi, shuningdek, iqlim sharoitlariga karamasdan kichik xajmni egallaydigan maydonlarda xam tadqiqotlar o'tkazish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamonda ko'proq diqqat e'tibor tirik organizlarning hayot-faoliyatiga suyanib olib boriladigan sanoat jarayonlariga qaratilmoqda va ular biotexnologik jarayonlar deb ataladi. Biotexnologiyani gulkirab rivojlanishi oxirgi 40 yillarga to'g'ri kelib, biologiya fanining yutuqlari, genetika va hujayra injeneriyasi texnologiyalarining ishlanmalarini yuzaga kelishi hamda tabiiy resurslarni kamayishi (yoki qimmatlashishi), ananaviy texnologiyalarining inqirozga uchrashi bilan bog'liqidir. Biotexnologiyaning rivojlanishi kelajakda iqtisodiy va ekologik manfaatdorlikka olib keladi.

Biotexnologiyaning bugungi kundagi faol rivojlanayotgan ilmiy yunalishi - mikrobiologik biotexnologiyadir yoki uni mikrob biotexnologiyasi deb ham yuritiladi. Mikrob biotexnologiyasi rivojlanishi birinchidan ayrim mahsulotlarga bo'lgan.

Apparatning texnologik hisobi deganda, uning moddiy va issiqlik balanslari, apparatning asosiy o'lchamlari, gidravlik hisobi, normativ sarflar aniqlanish hisob kitoblari tushiniladi. Apparatning texnologik hisobi bo'yicha quydagilarni aniqlash kerak.

yuqori va quyi mahsulotlarning tarkibi va miqdori;

yuqori va quyi desorb harorati;

isitgichning issiqligi.

*Absorbsiya - bu gazlar aralashmasidan biror moddaning suyuq fazaga selektiv ravishda yutilish jarayonidir.*

*Absorbsiyaga teskari jarayon, ya'ni yutilgan komponentlarni suyuqlikdan ajratib olish desorbsiya deyiladi.*

Texnologik hisoblashning asosiy turlari.

Texnologik jarayonlarning amalga oshirishda qayta ishlash uchun modda va materiallar kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashda apparat va jarayonlarning o'lchamlari, yoqilg'i sarfi hisobga olinadi. Texnologik hisoblar material va energetik balanslar asosida amalga oshiriladi. Gidravlik hisoblar bo'yicha ishchi o'lchamlar o'chanadi, shuningdek, apparatning to'liq ishlashi uchun bosim va temperaturaning o'zgarishi o'rganiladi.

Jarayon uchun material balanslarni komponenet yoki elementlar hisobida hisoblash mumkin. Balanslar tenglik, tajriba, sxema yoki diagramma ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Bioreaktor o'lchamini tanlash

Bioraktor o'lchami kubik metrda, xom-ashyo sifati, turi miqdoriga, shuningdek, bijg'itish davomiyligi va haroratiga bog'liq holda aniqlanadi.

Bioreaktor o'lchami va kunlik yuklanadigan xom-ashyo me'yoring nisbati

Kunlik yuklanadigan xom-ashyoning miqdori bijg'itish davomiyligi va tanlangan haroratga nisbatan aniqlanadi. Bioreaktorda mezofil rejimda bijg'itish davomiyligi 10 kundan 20 kungacha davom etadi. Kundalik quyladigan xom-ashyoning me'yori esa bioreaktordagi umumiy xom-ashyoning 1/20 dan 1/10 gacha nisbatda bo'ladi.

Aniq miqdordagi xom-ashyoni qayta ishlash uchun bioreaktor o'lchami. Dastlab hayvonlar soniga bog'liq holda biogaz uskunasiga tushadigan kundalik go'ng miqdori (DN) aniqlanadi. So'ngra xom-ashyo suv yordamida 86-92% namlikkacha suyultiriladi.

Ko'pchilik qishloq xo'jalik biogaz uskunalarida go'ng va suv miqdori 1:3 dan 2:1 nisbatgacha qo'llaniladi.

SH

Shunday qilib, yuklanadigan xom-ashyo (D) – bu xo'jalik qoldiqlari summasi (DN) va suv (DV) aralashmasiga teng.

Xom-ashyoni mezofil rejimda qayta ishlash uchun xom-ashyoning kundalik me'yori uskunaga quyladigan umumiy xom-ashyoning (OS) 10% iga teng bo'ladi.

SHunday qilib, bioreaktor o'lchami (OR) quydagi formula yordamida hisoblanadi:

OS = 2/3 OR

OR = 1,5 OS

Bunda:

$$OS = 10 \times D \quad D = DN + DV$$

Xo'jalikda 10 bosh yirik qoramol, 20 bosh cho'chqa va 35 bosh tovuq boqilganda bioreaktor o'lchami quyidagicha bo'ladi:

1 bosh yirik qoramolning kundalik ekskrementining hajmi 55 kg;

1 bosh cho'chqaniki 4,5 kg, 1 bosh tovuqniki 0,17 kg ga teng bo'ladi.

Demak, xo'jalikning kundalik axlat chiqindisi (DN) quyidagiga teng bo'ladi:  $10 \times 55 + 20 \times 4,5 + 35 \times 0,17 = 550 + 90 + 5,95 = 645,95$  kg yoki taxminan 646 kg ni tashkil etadi.

Ekskrementlarning namligi cho'chqanida va qoramollarda 86%, tovuqlarnikida esa 75% ga teng bo'ladi.

85% li namlikni ta'minlash uchun 3,9 l suv qo'shish zarur (4 kg atrofida).

Demak, kundalik quyiladigan xom-ashyo miqdori 650 kg.

Bioreaktorning to'liq xom-ashyo bilan to'ldirilishi  $OS = 10 \times 0,65 = 6,5$  t va bioreaktor hajmi  $OR = 1,5 \times 6,5 = 9,75$  yoki taxminan 10m<sup>3</sup> ga teng bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1.A.Yu.vinarov , I.s.gordeev, a.a.kuxarenko, v.i.panfilov . fermentatsionnie apparati dlya protsessov mikrobiologicheskogo sintnza, Moskva DeLi print, 2005

2.Viestur U.E. i dr. Biotexnologiya. Biologicheskie agenti. Texnologiya, apparatura. Riga., zinnate. 2005. S.261.

### 4-MA'RUZA

## BIOTEXNOLOGIK ISHLAB CHIQARISHDAGI APPARATLAR ULARNING MATERIAL VA DETALLARI

#### Reja:

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Erliftli fermentyorlar.
3. Gazni mexanik dispergirlovchi fermentyorlar.

So'nggi yillarda biotexnologik sanoatda qo'llaniladigan ko'pgina fermentyorlar paydo bo'lib, ular biomassani aerob o'stirish va uning metabolitlarini olishga mo'ljallangandir. Aerob jarayonlarning effektivligini ko'rsatuvchi asosiy parametr bo'lib, gazning suyuqlik bilan kontaktda bo'luvchi yuzasi hisoblanadi.

Ushbu yuzaning hosil bo'lish usuliga qarab gaz-suyuqlik fermentyorlarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin, ular,

- erliftli,
- gazni mexanik dispergirlovchi,
- oqimli.


Erliftli fermentyorlarda fazalarning kontakt yuzasi gazni gaz taqsimlovchi tuzilmalar orqali sirkulyasiyadagi suyuqlik qatlamiga kiritganda hosil bo'ladi. Apparatning katta ishchi hajmi kerak bo'lganda, hamda gaz fazasi sifatida tarkibida massa almashinuvida zarur sharoitlarni ta'minlash va kultural muhitni pnevmoaralashtirish uchun etarli kinetik energiyani o'zida tutuvchi 80% azot bo'lgan havo ishlatilganda bu fermentyorlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu fermentyorlar yuqori ekspluatatsion ishonchlikka ega, chunki konstruksiyaning ichki harakatlanuvchi elementlariga ega emas. Ularda suyuqlik sirkulyasiyasi shartlarini buzmagan holda, etarlicha katta yuza maydoniga ega issiqlik almashinuvni tuzilmalarini joylashtirish qulay.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentyorlarda apparatga kiritiladigan gaz suyuqlik bilan mahsus tuzilmalar yordamida aralashtiriladi. Ularni apparatning  $V \leq 100$  m<sup>3</sup> hajmida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ular toza gazda ishla ganda effektiv hisoblanadi. Bunda moddaning gazdan o'tkazilishining etarlicha yuqori intensivligiga rivojlangan fazalararo yuza hisobiga erishiladi. Kichik hajmli apparatlar yuqori bosimda ishlashi mumkin.

Oqimli fermentyorlarda gaz nasadkalar sistemasi orqali apparat kesimi bo'ylab taqsimlanadigan suyuqlik oqimlari bilan ejektiriladi.

Mikrobiologik sanoatda, asosan, o'zaro konstruksiyasi va ishslash sharoitlari bilan farqlanadigan uch turdag'i erliftli fermentyorlar qo'llaniladi.

Achitqili ishlab chiqarishda eng keng tarqalgan va ko'pincha aeratorlar yoki kyuvetalar deb ataladigan kyuvetali aeratorlarga ega fermentyorlar (1-rasm).




**3-rasm. Kyuvetali aeratorlarga ega fermentyor.**

Bunday apparat yassi tub qismi va konussimon qopqoqqa ega silindrik idish (3) dan iborat. Idish ichida kyuvetalar (4) o'rmatilgan bo'lib, ularning soni fermentyor hajmiga qarab 3 tadan 8 tagacha o'zgaradi. Kyuvetalarning ikkitali devorlari orasidagi bo'shliqqa shtutser A orqali suv kiritilib, ular issiqlik almashinuvi tuzilmalari bo'lib xizmat qiladi. Issiqlik ajralishi intensiv o'tishi uchun kyuveta bo'shlig'idagi suvga spiral kanal hosil qiluvchi lenta joylashtiriladi. Havo fermentyorga markaziy quvur (2) orqali kiritiladi va quvurlar (6) bo'ylab gaz taqsimlagichlar (barbotyor) (7) ga etib keladi. Gaz taqsimlagich past qutidan iborat bo'lib, uning silindrik devori bilan pastki qopqog'i orasida havoning chiqishi uchun tor dumaloq teshik bo'ladi. Bu teshikning gidravlik qarshiligi shunday mo'ljallanadiki, bunda barcha barbotyorlar bo'ylab havoning bir me'yorda berilishi ta'minlanadi. Oziqa muhit, ammiakli suv va ekiladigan achitqi shtutserlar orqali bachokka (1) beriladi va keyin quvurlar (5) bo'ylab barbotyor qutisiga (7) kelib tushadi. Havo barbotyordan chiqishda yuqoriga ko'tarilib, o'zi bilan kyuvetalarga sirkulyasiyalovchi kultural suyuqlik bilan aralashgan oziqa muhitini olib o'tadi. Havo fermentyor qopqog'ida o'rmatilgan tomchili suyuqlik separatori (8) orqali tashqariga chiqariladi. Achitqili suspenziya apparatdan shtutser V orqali chiqadi. Fermentyorning har bir kyuvetasi cho'ktirilgan erliftga o'xshab ishlaydi. Havoning uzatilishida kyuvetada gaz-suyuqlik aralashmasi hosil bo'lib, uning gaz tarkibi apparatining kyuvetalararo bo'shliqdagi achitqi suspenziyasining gaz tarkibidan yuqoriroqdir. Buning natijasida uning pastki qismida (kyuvetalar zonasida) qattiq fazasining Cho'kmaga tushishiga to'sqinlik qiluvchi suspenziya sirkulyasiyasi kyuvetalardan uzoqlashgan sari so'nib boradi, va apparatning yuqori qismida flotirlangan mikroorganizmlarga ega baland qatlamli barqaror ko'pik hosil bo'ladi. Ushbu keraksiz holatni faqatgina apparatning butun hajmida suyuqlikni intensiv aralashtirish hisobiga bartaraf etish mumkin. Buning uchun barbotaj quvur (kyuveta)larning balandligini shunday qilish lozimki, bunda ularning yuqorigi kesimi ko'pik satxidan 1 m dan katta bo'lмаган masofada joylashgan bo'lishi kerak.

### Erliftli fermentyorlar

Yirik gaz pufaklarining hosil bo'lishini kichraytirilgan diametrli barbotaj quvurlarga ega fermentatorlarda bartaraf qilish mumkin. Bunday apparatning variantlaridan biri 2-rasmida ko'rsatilgan.




#### 4-rasm. Aeratorli kojuxoquvurli fermentyor

U qopqoqsiz kojuxoquvurli issiqlik almashgichlardan iborat sakkizta aerator (2) joylashtirilgan idish (1) ko‘rinishida tayyorlangan. Quvurlarning ichki diametri 100 mm ga va balandligi 6000 mm ga teng. Havo fermentatorga quvur (3) orqali kiritiladi va gaz taqsimlagichlar bo‘ylab (4) tarqatiladi. Gaz taqsimlagich past silindrik qutidan iborat bo‘lib, uning yuqorigi qopqog‘ida havoni har bitta barbotaj quvurga uzatish uchun nasadkalar o‘rnatalgan. Aeratorlarning quvur orasidagi bo‘shlig‘i shtutser A ga uzatiladigan suv orqali sovutiladi. Fermentatorning yuqorigi qopqog‘ida mexanik ko‘pikli o‘chirgichlar (5) o‘rnatalgan bo‘lib, ulardan qayta ishlangan havo kollektor (6) ga kiritiladi va undan shtutser B orqali chiqariladi.

3. Gaz pufaklarini intensiv maydalash va ularni suyuqlik hajmida bir me’yorda taqsimlash hisobiga rivojlangan gaz-suyuqlik fazalararo yuzasini xosil qilishning mumkinligi Ushbu jarayonning asosiy yutug‘i bo‘lib hisoblanadi.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentatorlarni ikki guruxga ajratish kerak: erkin hajmda va sirkulyasion konturda aralashtirgichiga ega fermentyorlar.

#### 1) Aralashtirgichli fermentyor



#### 5-rasm. Aralashtirgichli fermentyor

Kimyo sanoatida gaz-suyuqlik reaktorlarini ham, fermentyorlarni ham ekspluatatsiya qilish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, gazni suyuqlikda mexanik aralashtiruvchi apparatlarni  $100 \text{ m}^3$  gacha bo‘lgan hajmda va idish diametri 3,6 m dan katta bo‘limganda ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Bunday apparatlarning gaz bo'yicha o'tkazuvchanlik qobiliyati  $2000 \text{ m}^3/\text{s}$  dan yuqori bo'lmaydi. 3-rasmda rubashka (2) ga joylashtirilgan idish (1) (elipssimon yoki yassi qopqog'i va tubi bo'lган) ko'rinishida tayyorlangan apparat tasvirlangan. Hajmi  $6,3 \text{ m}^3$  dan kichik bo'lган fermentyorlarda rubashka bir tekis bo'ladi,  $6,3 \text{ m}^3$  dan kattaroq hajmlarda esa seksiyalarga bo'lingan holda bo'ladi. Idish ichida vertikal val ustida aralashtirgichlar (3) maxkamlab ko'yilgan bo'lib, ularning soni (1 tadan 4 tagacha) apparat balandligiga bog'liq bo'ladi. Pastki aralashtirgich tagida gaz taqsimlagich (birlamchi aeratsiyalovchi tuzilma) (6) joylashtirilgan. Idish hosil qiluvchilar bo'ylab kengligi  $b_m = 0,1D$  va balandligi  $h_m = \frac{H_c}{(1-\varphi)}$  bo'lган to'rtta vertikal to'siqlar (4) o'rnatilgan, bunda  $N_s$  - apparatdagi suyuqlikning boshlang'ich qatlami balandligi;  $\varphi$  - sistemaning gaz tarkibi. Idish sig'imi  $16 \text{ m}^3$  dan katta bo'lganda uning ichiga qo'shimcha issiqlik almashinuvi elementlari zmeeviklar (5) o'rnatiladi.

Gazni suyuqlikka dispergirlashda eng effektiv bo'lib elementlari kattaliklarining quyidagi nisbatlarida olingen to'g'ri va qayrilgan lopastlarga ega ochiq turbinali aralashtirgich hisoblanadi:

$$dm/D = 0,2\%0,3$$

$$hl/dm = 0,2$$

$$ll/dm = 0,25$$

Kichik xajmli yoki to'ldirish balandligi past bo'lган fermentyorlarda gazni dispergirash uchun o'ziso'ruvchi turbinali aralashtirgichlardan foydalanish mumkin. O'ziso'ruvchi aralashtirgichlarning qo'llanilishi havoni fermentyorga majburiy uzatishning zaruriyatini yo'q qiladi. Bu ularning asosiy yutug' idir.

*Dispergirash qattiq yoki suyuq jismlarni mayin qilib maydalash . kolloidlar va umuman dispers sistemalar olish usullaridan biridir.*


Sirkulyasion konturda aralashtirgichga eega fermentyorlar davriy jarayonlarda, qachonki kultural muhit qovushqoqligi vaqt davomida biomassa konsentratsiyasining ko'payishi bilan o'zgarganda xamda aralashtirgichning aylanish chastotasini o'zgartirish hisobiga aralashtirishning kerakli intensivligini ta'minlash mumkin bo'lganda, effektiv qo'llaniladi.

Apparat ikki xil variantda yasalgan bo'lishi mumkin:

-sirkulyasion s ichidagi vintli (propellerli) aralashtirgich bilan,

-sirkulyasion stakan tagida joylashgan ochiq turbinali aralashtirgich bilan.

4-rasmda sirkulyasion stakan ichida joylashgan vintli aralashtirgichga ega fermentator ko'rsatilgan. U balandligining diametriga nisbati  $L/D = 510$  ga teng bo'lган idish (3) ko'rinishda yasalgan. Idish ichida sirkulyasion stakan (4) o'rnatilgan bo'lib, uning diametri stakan o'zining xajmda uning idish devorlari bilan xosil qilganuzuksimon teshik kesimlari maydonlarining tenglik shartidan xisoblab topiladi. Stakanning pastki qismi kichraytirilgan kesimga ega, va unda o'q nasosi vazifasini bajaruvchi vintli aralashtirgich (7) xamda oqimni yo'naltiruvchi tuzilmalar joylashgan bo'ladi.



6-rasm. Sirkulyasion konturda vintli aralashtirgichga ega fermentyor:  
**a** - biomassa suspenziyasi;  
**b** va **v** - gaz; **v** – azot.

Nasos sifatida gorizontal chiziqlqa nisbatan egilish burchagi  $\alpha = 15\% / 45^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan to‘g‘ri parraklarli aralashtirgich ishlatilishi mumkin.

Aralashtiruvchi tuzilma pastda joylashganida valining germetizatsiya tuguniga bo‘lgan talablar ko‘payadi, shuning uchun bu erda yonbosh zichlantiruvchilar o‘rnatalidi yoki ekranlashtiruvchi gilzali maxsus elektr yuritmalardan (8) foydalaniladi.

Hajmi katta bo‘lmagan apparatlarda issiqlik almashinuvi elementi bo‘lib rubashkaga (6) joylangan ilish devori xizmat qiladi. Apparatning xajmi, binobarin, issiqlik yuklanishi xam oshganda qo‘srimcha issiqlik almashinuvi elementiga zaruriyat tug‘iladi. Bu xolda sirkulyasion stakan xosil qiluvchilar bo‘ylab bir-biri bilan plastina-peremichkalar orqali biriktirilgan xamda yuqorida va pastda uzuksimon kollektorlar (2) yordamida birlashgan aylanma xolda joylashgan naylar 9% dan yasaladi.

Hajmi gaz-suyuqlik aralashmasi bilan to‘liq to‘ldirilganda apparat eng yuqori effektivlikda ishlaydi. Shuning uchun yutilmagan gaz va suyuqlikning chiqarilishi gaz-suyuqlik aralashmasining separatori (1) bilan birlashgan yuqorigi shtutser orqali amalgalash oshiriladi. Gazni uning birlamchi dispergirlanishini ta’minlovchi aralashtirgichtagiga uzatish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik gaz pufaklarining kattaliklari suyuqlikning markaziy stakan va uzuksimon teshikdagiligi turbulentligi orqali aniqlanadi.

Turbinali aralashtirgichga ega apparat modda massasini ko‘chirish bo‘yicha effektivligi yuqoriroq xisoblanadi. Unda gazning yaxshiroq dispergirlanishga erishiladi, xamda sistemaning yuqori gaz tarkiblarida va hattoki turg‘un ko‘piklar ustida barqaror ishlaydi.

#### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Erliftli, gazni mexanik dispergirlovchi, oqimli, dispegiplash, kolloidlar, dispers sistemalar, zmeeviklar, gaz-suyuqlik reaktorlar, aerator, kojuxoquvurli fermentyor, sirkulyasion kontur, gaz pufakchalar, intensiv maydalash, turbinali aralashtirgich.

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Fermentyorlarning sinflanishi, ularning ishlash prinsipi.
2. Dispegiplash nima?
3. Mikrobiologik sanoatda, necha turdagi erliftli fermentyorlar ishlatiladi?
4. Erliftli fermentyorlarning ishlash prinsipini tushintirib bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Atkinson D. Bioximicheskie reaktori M.: Pishevaya promishlennost, 1979. 280 s.
2. Aerov M.E., Toles O.M., Narinskiy D.A. Apparati so statsionarnim zernistim sloem. L.: Ximiya, 1979. -176 s.
3. Navashin S.M., Sazikin Yu.O. Perspektivi sovremennoy biotekhnologii v oblasti antibiotikov.

## 5-MA'RUZA

### OZIQA MUHITLARINI STERILLASH. AVTOKLAVNING ISHLASH PRINSIPI

#### Reja:

1. Gidrolizapparatlar va invertorlar.
2. Kislotalarni neytrallash, oziqa muhitlarining komponentlarini eritish va aralashtirish uchun qurilmalar.
3. Tindirgichlar, gidrotsiklonlar va filtrlar

Oziqa muhitlarining tayyorlanishi mikrobiologik sintez ishlab chiqarishida muhim bosqichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Oziqa muhitlari komponentlarining fizik-kimyoviy xossalariiga qarab ular suvda belgilangan harorat va pH da ma'lum nisbatlarda eritiladi yoki suspenziyalanadi.

Texnologiya talablariga qarab oziqa muhitlarini tayyorlash jarayonida ular boyitiladi, bu neytrallash, tindirish, filrlash, sovutish, mikroorganizmlar hayot faoliyatini ingibirlovchi komponentlarni olib tashlash, muhitlarni biologik aktiv moddalar bilan boyitish va boshqa bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun turli xil uskunalar ishlataladi: gidrolizapparatlar, neytralizatorlar, aralashtirgichlarga ega qurilmalar, sterilizatorlar, tindirgichlar, filrlar, issisqlik almashtirgichlar va boshqalar.

#### ***Gidrolizapparatlar va invertorlar.***


Em achitqilari va etil spirtini ishlab chiqarishda uglevodlar manbai bo'lib yog'och chiqindilari, kungaboqar po'stlog'i, g'o'za po'sti, makkajo'xori so'tasi, torf va boshqalar hisoblanadi. Boshlang'ich xomashyoda uglevodlar achitqilarning oziqlanishi uchun yaroqsiz bo'lgan birikmalar, ya'ni polisaxaridlar ko'rinishda bo'ladi. Sanoatda polisaxaridlarning monosaxaridlargacha gidrolizi asosan suyultirilgan sulfat kislota bilan 190°C bo'lgan haroratda gidrolizapparatlarda amalga oshiriladi.

Gidroliz jarayonida monosaxaridlar bilan bir qatorda dekstrinlar-polisaxaridlarning qisman gidroliz mahsulotlari hosil bo'ladi. Dekstrinlarning monosaxaridlargacha gidrolizi (inversiyasi) invertorlarda 140 °C haroratda amalga oshiriladi.

Oziqa muhitlarida metionin, trionin va boshqa ayrim aminokislotalar bor bo'lganida auksitotrof mutantlar tomonidan lizin aminokislotasining biosintezi amalga oshiriladi. Ushbu aminokislotalarni olishning sanoat usullaridan biri bo'lib em achitqilari va boshqa oqsil konsentratlarining kislotali yoki fermentativ gidrolizi hisoblanadi. Kislotali gidroliz gidrolizapparatlarda 120°C gacha bo'lgan haroratda sulfat yoki xlorid kislotalari kabi katalizatorlar ishtirokida amalga oshiriladi. Oqsillarning fermentativ gidrolizi 40 °C gacha bo'lgan haroratda pH = 5 ÷ 7 da o'tadi. Katalizatorlar sifatida proteolitik fermentlar ishlataladi.

Gidrolizli ishlab chiqarishda 18, 30, 37, 50 va 80 m<sup>3</sup> sig'imga ega gidrolizapparatlar qo'llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar qo'llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar asosan geometrik o'lchami, kislotani gidrolizga uzatish usullari hamda gidrolizatni tanlab olish bilan o'zaro farqlanadi. Korroziyaning oldini olish maqsadida apparatning ichki yuzasi beton qavati (70-90 mm) bilan futerlanadi, keyin esa termokislotaga chidamli materiallar – keramik, ko'mir yoki grafit plitkalar, yong'inga bardoshli shamot g'isht bilan ishlov beriladi. Po'lat korpusning yuqorigi va pastki bo'yin qismlari korroziyadan bronza, yuqori po'lat qopqoq bronza, mis yoki latun vkladishlar bilan himoya qilinadi. Apparatning agressiv muhit bilan aloqada bo'ladigan barcha shtutserlari bronzadan quylidi va futerovka ishlaridan oldin o'rnatiladi.

Kislota, suvni uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlarning gidrolizapparat ichidagi joylashuvi suyuqlik oqimlari orqali belgilanadi. Kislotani uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlar ma'lum tarzda joylashtirib, gorizontal, vertikal yoki aralash suyuqlik oqimlari hosil qilinadi. SHu tariqa, gidrolizapparatlarning turli hajmlarida gidroliz jarayoni kechishining eng yaxshi sharoitlariga erishiladi.



7-rasm. **Gidrolizapparat**

1-po'lat korpus; 2 – betonli qavat; 3 – futerovka; 4 – uzaytirilgan filtrovchi quvurlar; 5 – qisqa filtrovchi quvurlar; 6 – gidrolizatni tanlab olish va bug'ni uzatish uchun shtutser; 7-klapan; 8 – og'irlik o'lchagich; 9 – suvni uzatish uchun shtutser; 10 – kislotani uzatish uchun shtutser; 11 – qopqoq; 12 – sduvka uchun shtutser.

Gidrolizapparatning ishlash prinsipi quyidagidan iborat. O'simlik xomashyosi transportyor yordamida yuqorigi bo'yin qismi orqali apparatga uzatiladi. Xomashyoni zichlash va namlash uchun bir vaqtning o'zida suv va kislota ham uzatiladi. Yuklashdan keyin apparatning yuqorigi qopqog'i yopiladi, va pastki shtutser orqali o'tkir bug' uzatiladi. Xomashyoni isitish hamda taxminan 140°C haroratda qisqa vaqt ushlab turish jarayonida oson gidrolizlanadigan polisaxaridlarning gidrolizi amalga oshadi. Bundan keyin apparatga kislota uzatiladi va bir vaqtning o'zida tarkibida erigan uglevodorodlarni tutgan gidrolizat tanlab olinadi. Jarayon oxiriga kelib harorat 190 °C gacha ko'tariladi. Gidroliz oxiriga etganida kislotaning uzatilishi to'xtatiladi, gidrolizatning qoldig'i suv bilan chiqarib yuboriladi, suyuqlik qoldig'i siqib tashlanadi va apparatdan lignin yuklab olinadi. Yuklab olishda pastki tez ishlaydigan klapan ochiladi va 0,5÷0,7 MPa bosim ostida lignin quvur bo'ylab bir necha sekund ichida apparatdan siklonga tushadi.


Ko'rib chiqilgan va shunga o'xshash apparatlarda 30% gacha hajmni futerovka egallab, bu yaqqol kamchilik bo'lib hisoblanadi. Futerovkasiz, titan qotishmalaridan yasalgan apparatlar bu borada mukammalroq hisoblanadi. Davriy ravishda ishlaydigan gidrolizapparatlar quyidagi kamchilikka ega: gidroliz jarayonida xomashyo tez zichlashadi va shu sababli reaksiyon hajmning yarmi ishlatilmay qoladi.

Uzluksiz ishlaydigan gidrolizapparatda sig'im maksimal darajada ishlatiladi. Buning hisobiga, hamda yuklatishga, xomashyoni isitishga va qoldiqni olib tashlashga ketadigan vaqtning tejalishi sababli apparatlarning ishlab chiqarish quvvati deyarli ikki baravar oshadi. Jarayonning uzluksizligi fizik-kimyoviy parametrlarning doimiyligini, bug', xomashyo iste'molining bir me'yorda bo'lishini, yordamchi uskunalarga tushadigan yuklanishning bir tekisda bo'lishni hamda shakarlar chiqimining oshishini ta'minlaydi.

Issiqlik yo'qolishini kamaytirish maqsadida gidrolizapparat yuzasi issiqlik-izolyasiyalovchi material bilan qoplanadi. Apparatning o'rta silindrik qismiga lapalar biriktirilgan bo'lib, ulardan biri datchikka ega og'irlik o'lchagichga, boshqasi og'irlik o'lchagichning barqaror ishlashini ta'minlovchi sharnir assoslarga suyanadi.

**Invertorlar** – bu asosiy vazifasi gidrolizatlar yoki sulfit sheloklarda dekstrning uzluksiz gidrolizini ta'minlashdan iborat bo'lgan qurilmalar.

Inversiya jarayonida monosaxaridlarning miqdori 5-10% ga oshadi va achitqilar rivojlanishini ingibirlovchi bir qator komponentlarning konsentratsiyasi kamayadi. Atmosfera bosimida hajmi 500, 750 va 1000 m<sup>3</sup> bo‘lgan invertorlar ishlataladi. Invertor konussimon tubi va xizmat ko‘rsatish maydoniga ega qopqog‘i bo‘lgan vertikal silindrsimon rezervuardan iborat (2-rasm). Ichidan invertor beton yoki poliizobrutilenga kislotaga chidamli plitkalar yoki g‘isht bilan futerlanadi. Tashqi tomonidan u issiqlik izolyasiya bilan qoplanadi.



**8-rasm. 500 m<sup>3</sup> hajmli invertor**

1 – temirbetonli poddon; 2 – taqsimlagich; 3 – monometrik termometr uchun cho‘ntak; 4 – aralashtirish kondensatori; 5 – xizmat ko‘rsatish maydoni; 6 – futerovka; 7 – korpus; 8 – uzukli kollektor; 9 – silindrsimon ustun.

Gidrolizat apparatning pastki silindrik qismiga uchida tarqatuvchi bo‘lgan gorizontal quvur orqali uzlusiz ravishda kiritiladi. Silindrik qismning yuqorigi sathidan pastroqda joylashgan kollektor orqali gidrolizatning saralab olinishi amalga oshiriladi. Gidrolizat invertorda 6-8 soat davomida turadi. Ko‘rib chiqilgan invertorlarning haddan tashqari kattaligi, inversyaning davomiyligi va konussimon qismda yig‘ilib qoladigan Cho’kmani chiqarib tashlash uchun invertorni davriy ravishda to‘xtatib turish zaruriyati ularning muhim kamchiligi bo‘lib hisoblanadi.

#### **Neytralizatorlar**


Kislotalarni neytrallash, oziqa muhitni komponentlarini eritish va aralashtirish uchun mexanik yoki pnevmatik aralashtiruvchi tuzilmalarga ega vertikal apparatlardan iborat neytralizatorlardan foydalaniladi. Apparatlar komponentlarni yuklash va tayyor muhitni chiqarib olish uchun shtutserlarga, ko‘zdan kechirish, tozalash va remont uchun lyuk-lazlarga, nazorat-o‘lchov asboblariga hamda effektiv va xavfsiz ekspluatatsiya uchun kerakli boshqa tuzilmalarga ega. Texnologiya sharoitlariga qarab apparatlar muhitlarni isitish yoki sovutish uchun mo‘ljallangan idish ichida rubashkalar yoki issiqlikalmashirgichlarga ega bo‘lishi mumkin. Apparatlar oziqa muhitlarining komponentlariga nisbatan korroziyaga chidamli bo‘lishi kerak. Apparatlarning uzoq vaqt xizmat qilishi va ishining ishonchligi ushbu omillarga bog‘liqdir.

**Neytralizator** – ushlab turgichlar, shuningdek, gips kristallarini o‘stirish uchun mo‘ljallangan. Neytrallovchi agent va gidrolizatni uzatish bilan bir vaqtda neytralizatorga azot, fosfor va kaliy manbalarini ularni eritish maqsadida kiritish mumkin.

Mikrobiologik sanoatning achitqi va o‘simlik xomashyosidan etil spirtini ishlab chiqaruvchi barcha zavodlarida uzlusiz ravishda ishlaydigan neytralizatorlar qo‘llaniladi .

Uzluksiz ravishda ishlaydigan neytralizator konussimon tubi hamda kislotaga chidamli po'latdan yasalgan va yog'och to'shagich bilan qoplangan yassi qopqog'i bo'lган po'latli vertikal korpusdan tashkil topgan. Apparat silindrik va konussimon qismlarining ichki yuzasi korroziyadan betonli ostqavat ustidan kislotaga chidamli plitkalar bilan himoyalangan.

Apparatning tashqi qismi issiqlik izolyasiyasi bilan qoplanib, bu ichki yuza qismida mumsimon moddalarining o'tirib qolishiga to'sqinlik qiladi. apparat qopqog'ida gidrolizat bilan ammiakning suvdagi eritmasi yoki kalsiy gidroksid suspenziyasi aralashishi uchun mo'ljallangan kislotaga chidamli po'latdan yasalgan burchakdagi smesitel, oziqa tuzlarini uzatish uchun shtutser hamda apparatdan gazlarni chiqarish uchun shtutser o'rnatiladi. Apparatning pastki konussimon qismida neytralizatorni chiqarish uchun shtutser joylashgan. YOn tomondagi neytralizatorning ketma-ket birikishida neytralizatni kiritish uchun xizmat qiladi. Qopqoq va pastki silindrik qismda remont, apparatni tozalash va ko'rikdan o'tkazish uchun mo'ljallangan lyuk-lazlar bo'ladi. Bu borada «Gazlift» tipdagi aralashtiruvchi tuzilmaga ega neytralizatorlar mukammalroq hisoblanadi (2-rasm).



9-rasm. «Gazlift» tipidagi neytralizator – ushlab turgich

- 1 – ko'pik bilan o'chirishda suvni uzatish uchun shtutser;
- 2 va 3 – lyuklar;
- 4 – apparatlarning ketma-ket birikishda neytralizatning kirish shtutseri;
- 5 – kosinka;
- 6 – diffuzorlar;
- 7 – lyuk-laz;
- 8 – diffuzor mahkamlanishi.

Qurilma ketma-ket ulangan har xil diametrдаги то'ртta diffuzor, hamda siqilgan havoni keltirib beradigan quvurdan iborat. Bunday neytralizatorning ishlash prinsipi quyidagicha: havo quvur orqali pastki diffuzorga kiradi, va neytralizat bilan aralashib, zichligi diffuzorlar devorlaridan tashqaridagi neytralizat zichligidan kichik bo'lган gaz-suyuqlik aralashmasini hosil qiladi. Zichliklar farqi natijasida neytralizatorda suyuqlikning intensiv sirkulyasiyasi kechadi. Aralashtirishga ketadigan havoning sarfi  $1\text{ m}^3$  neytralizatga  $1\text{ m}^3/\text{min}$  ni tashkil qiladi.

Oziqa muhitlari, tuzlar va turli xil qo'shimchalar (ko'pikli o'chiruvchilar, kislotalar) eritmalarini bevosita olish uchun  $100\text{ m}^3$  gacha sig'imga ega apparat-smesitellardan foydalaniladi. Ularning barchasi kislotaga chidamli po'lat yoki korroziyaga bardoshli materiallar bilan futerlangan uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Apparatlar mexanik aralashtiruvchi tuzilmalar, sath o'lchagichlar va ularning effektiv ekspluatatsiyasi uchun kerakli boshqa moslamalar bilan ta'minlangan.


Mikrobiologik sanoatda suspenziyalar hosil bo'lishi bilan kechadigan an jarayonlar tarqalgan. Dag'al suspenziyalar o'zida kattaligi  $100\text{ mkm}$  dan oshadigan, yupqalari  $0,5 \div 100\text{ mkm}$ , loyqalar  $0,1 \div 0,5\text{ mkm}$ , kolloidli eritmalar  $0,1\text{ mkm}$  dan kichik qattiq zarrachalarni tutadi.

Suspenziyalar texnologik jarayonning quyidagi bosqichlarida hosil bo'ladi: oziqa muhitlari va tuzlarni tayyorlashda, o'simlik xomashyosi gidrolizatlarini neytrallashda, mikroorganizmlarni

kultivirlash va mikrobl li sintez mahsulotlarini ajratib olishda, oqava suvlarni hosil qilish va tozalashda. Suspenziyalarni ajratish ***tindirgichlar***, ***gidrotsiklonlar*** va ***filtrlar*** yordamida amalga oshiriladi.

Suspenziyalarning Cho'kmaga tushirish orqali ajralishi qattiq zarrachalar va dispersion muhit zichliklari orasidagi farq tufayli kechadi. Ushbu farqning kattalashuvi bilan ajralish effektivligi ham oshadi. Cho'kmaga tushirishdan farqli ravishda, suspenziyalarning filtrlash orqali ajralishi porali to'siqning ikki tomonidagi bosimlar farqi tufayli sodir bo'ladi. Bunda dispersion muhit to'siqdan o'tadi, qattiq fazada esa uning sirtida ushlanib qoladi.

***Tindirgichlar*** – bu apparatlar suspenziyalarni gravitatsion maydonda tindirish orqali ajratish uchun qo'llaniladi. Tindirgichlar davriy, yarimuzluksiz va uzlusiz ravishda ishlaydigan bo'ladi. Ular oziqa muhitlari, tuzlar eritmalarining rangini ochlashtirish, gidrolizli ishlab chiqarishlarda gipsni neytralizatdan ajratib olish, oqava suvlarni tozalash va boshqalar uchun ishlatiladi.



10-rasm. Mexanik tindirgich


1 - korpus; 2 - oqizma jelob; 3 - chiqarib olish tuzilmasining privodi; 4 – ko'taruvchi mexanizm; 5 – xizmat ko'rsatish uchun maydonlar; 6 – issiqqlik izolyasiya; 7 – tiqin; 8 – shnekli yuk tushirgich; 9 – uzukli tirkaz; 10 – chiqarib olish tuzilmasi; 11 – yuklash barabani.

Uzlusiz ishlaydigan mexanik tindirgich (3-rasm) konussimon tubi va yassi qopqog'i bo'lgan vertikal silindrik rezervuardan iborat.

Tindirgich Cho'kmani olib tashlash uchun chiqarib olish mexanizmi bilan ta'minlangan. Chiqarib olish tuzilmasi valining pastki qismida taroqlar bilan lopastlardan tuzilgan skrebkalar mahkamlab qo'yilgan. Skrebkali tuzilma val bilan birga tindirgichning metall fermasida joylashgan privodli mexanizm orqali harakatga keltiriladi. Ko'taruvchi mexanizm yordamida chiqarib olish tuzilmasi tindirgich tubidan 200-300 mm balandlikka ko'tarilishi mumkin. Valning yuqorigi qismida ikkita panjaraga ega ichi bo'sh silindrsimon shaklga ega yuklash barabani biriktirilgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda suspenziya uzatiladi. Katta teshiklari bo'lgan yuqorigi panjara tindirgichga yirik qattiq bo'laklarning tushishini oldini oladi, kichik teshiklari bo'lgan pastki panjara esa suspenziyaning tindirgichga bir tekisda tushishiga yordam beradi. Tindirgichning yuqorigi ichki qismida oqizma jelob joylashgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda ochlashtirilgan muhit oqiziladi va patrubok orqali chiqariladi. SHnekli yuk tushirgich shlamni 60-70% namlikkacha siqib olish va uni tindirgichdan uzlusiz tushirish uchun xizmat qiladi. tindirgich lazlar, shtutserlar, xizmat ko'rsatish maydonlari hamda effektiv ekspluatatsiya va xavfsiz ish uchun kerak bo'lgan boshqa tuzilmalar bilan ta'minlangan.

Oziqa tuzlari va muhitlari, neytralizatlarning rangini ochlashtirishda hamda oqava suvlarni mexanik tozalashda yuqorinaporli gidrotsiklonlar ham qo'llaniladi. Gidrotsiklonlarni past konsentratsiyali qattiq fazaga ega suspenziyani ajratuvchi apparatlar bilan birgalikda qo'llash ayniqsa effektiv hisoblanadi. Gidrotsiklonlar sodda tuzilgan, xarakatlanuvchi qismlarga ega emas, kompakt, bir xil ishlab chiqarish quvvatida ancha kichik maydonni egallaydi, tindirgichlar va

filtrlarga nisbatan arzon va xizmat ko'rsatishda qulaydir. Kamchiligi bo'lib apparat devorlarining tez ishdan chiqishi va energiyaning ko'p sarflanishi hisoblanadi. 4-rasmda korpusi konussimon silindrik qismlardan tashkil topgan naporli gidrotsiklon tasirlangan. Suspenziya 0,2 MPa bosim ostida nasos orqali, undan keyin silindrik qismga tangensial ulangan quvur bo'ylab uzatiladi. Suspenziyaning vintsimon tarzda harakatlanishida qattiq zarrachalar markazdan yuguruvchi kuchlar ta'siri ostida gidrotsiklon konussimon qismining devorlariga otiladi, pastga tushadi va priemnika boradi. Ochlashtirilgan suyuq fazaning ichki oqimi siklon o'qi yonida tashqi oqimga qarshi tomonga spiral bo'yicha yo'nalgan bo'ladi va priemnikka chiqariladi. Suspenziyalarning ajralish effektiga pastki otvod patruboki diametrining ochlashtirilgan suyuq fazani chiqaruvchi quvur diametriga bo'lgan nisbati katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nisbat 0,35-0,44 ga teng deb olinadi.



11-rasm. Naporli gidrotsiklon

- 1- tashqi oqim;
- 2- Cho'kma;
- 3- ichki oqim;
- 4- gidrotsiklonning konussimon qismi.

Filtrlash usuli bilan bir jinsli bo'lmagan sistemalarni ajratish uchun mo'ljallangan apparatlar filtrlar deb ataladi. Mikrobiologik ishlab chiqarishlar uchun filtr-presslar, barabanli va lentali filtrlar eng perspektiv hisoblanadi.

Filtrni tanlashda suspenziyalarning fizik-kimyoviy xossalari, filtrat va Cho'kmaga bo'lgan talablarni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, filtrlarning ishlab chiqarish quvvatini va boshqalarni inobatga olish kerak.

#### **O'zlashtirishdagi muhim tayanch so'z va iboralar :**

Gidrolizapparatlar, invertorlar, filtrlash, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, naporli gidrotsiklon, tindirgichlar, suyuq faza, bir jinsli, xizmat ko'rsatish maydonlari, filtr-presslar, lentali filtrlar, oqimli siklon, apparat devorlari, dispersion muhit.

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun qanday uskunlardan foydalaniladi?
2. Suspenziyalarni ajratish qanday uskunlarda amalga oshiriladi?
3. Gidrolizapparatning ishlash prinsipini tushintirib bering.
4. Filtrni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Gaponov K.P. Protsessi i apparati mikrobiologicheskix proizvodstv, M.: Legkaya i pishevaya promishlennost. 1981. -239 s.
2. Sokolov V.N.. Domanskiy I.V. Gazojidkostnie reaktori. L.: Mashino-stroenie, 1976. 216 s.

## 6-MA'RUZA SENTRIFUGA VA SEPARATORLAR

### Reja:

1. Sentrifugalar. Umumiy ma'lumot. Klassifikatsiyasi.
2. Sentrifuga turlari. Tuzilishi va ishlash prinsipi.

Sentrifugalash – bu markazdan qochma kuchlar maydonida suyuq bir jinsli bo'lмаган sistemalarni ajratish jarayonidir. Sentrifugalash maxsus uskunalar – sentrifugalarda amalga oshiriladi. Mikrobiologik ishlab chiqarishdsha sentrifugalar suspenziyalarni o'zida kristall va amorf strukturali mikroorganizmlar, fermentlar, aminokislotalar va boshqa biosintez mahsulotlarini tutgan qattiq va suyuq fazalarga ajratishda keng qo'llaniladi. Dispers sistemalarining xossalariiga qarab, sentrifugalash markazdan qochma filtrlash yoki cho'ktirish usullari orqali amalga oshiriladi. Ajratish usullariga mos ravishda sentrifugalar filtrlovchi va tindiruvchi turlarga bo'linadi.

Tindiruvchi sentrifugalarning turli xil konstruksiyalari orasidan suyuqlik separatorlari nomini olgan likopchasimon va silindrik vstavkalarga ega, tuzilishi va ishlash prinsipi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan mashinalarning katta guruhini ajratish mumkin.

Filtrlovchi va tindiruvchi sentrifugalarda kechadigan aralashmalarni ajratish jarayonlari filtrlash va tindirishda kechadigan jarayonlar bilan bir xil. Ammo markazdan qochma maydonda ajratish tezligi filtr va tindirgichlardagi tezlikdan ancha yuqori bo'ladi. Sentrifugalash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib markazdan qochma kuch hisoblanadi, bu kuch sentrifuga rotori hamda uning ichidagi suspenziya yoki emulsiyaning aylanma harakati natijasida yuzaga keladi.

Baraban o'qi atrofida aylanayotgan jismga ta'sir qiladigan markazdan qochma kuch kattaligi, umumiy holda, quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$C = \frac{m v^2}{R} = \frac{G W^2 R}{g} = \frac{G R n^2}{900},$$

bunda,

$S$  – markazdan qochma kuch, N;

$m$  – aylanayotgan aylanma tezligi, m/s;

$v$  – aylanishning aylanma tezligi, m/s;

R - barabanning ichki radiusi;

$$\omega = \frac{\pi n}{30} \text{ - barabanning burchak aylanish tezligi, rad/sek.}$$

Sentrifugalarning ishlash effektivligi, asosan, sentrifugada hosil bo'ladigan markazdan qochma tezlanish erkin tushish tezlanishdan necha marta katta ekanligini ko'rsatuvchi  $Fr$  faktor orqali baholanadi:

$$\Phi p = \frac{\omega^2 R}{g} \approx \frac{n^2 R}{900}.$$

Bundan  $Fr$  son jihatidan og'irligi 1N bo'lgan jism aylanishida yuzaga keladigan markazdan qochma kuchga teng ekanligi kelib chiqadi.

Sentrifuganing ishlab chiqarish quvvati indeksi uining ishlash ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi:

$$\Sigma = F_T \Phi p ,$$

bunda,


$F_T$  – tindirishning silindrik sirtining yuzasi,  $m^2$ .

Sanoat sintrifugalari ishlash prinsipiiga ko‘ra tindiruvchi, filtrlovchi va aralash turlarga bo‘linadi. Ustunlar konstruksiyasi va baraban o‘qining joylashganiga ko‘ra – sentrifuga vali gorizontal, vertikal va egilgan holatda joylashgan, qattiq, sharnirli va aralash ustunlarga ega turlarga; barabandan Cho‘kmani olib tashlash usuliga ko‘ra – qo‘lda, shnekli, porshenli, gravitatsion, markazdan qochma, vibratsion va boshqa usullar qo‘llaniladigan turlarga; taqsimlash faktoriga ko‘ra  $Fr < 3500$  bo‘lgan normal va  $Fr > 3500$  bo‘lgan yuqori sentrifuga turlariga bo‘linadi. Jarayonni tashkil qilish jihatdan esa davriy va uzlusiz turlarga ajratiladi.

### **Filtrlovchi sentrifugalar.**

Rotori gorizontal joylashgan Cho‘kmasi porshenli usulda olib tashlanadigan, uzlusiz ravishda ishlaydigan FGP (GOST 6078-75) tipdagi pulsirlovchi sentrifugalar yuqori darajadagi unumdoorligi, energiyaning past nisbiy sarfi, ekspluatatsiyaning soddaligi va eritmadan Cho‘kmani yuvib tashlash mumkinligi bilan ajralib turadi. Sentrifugalarning ushbu tipi qattiq faza konsentratsiyasi 20% ortiq va zarrachalar kattaligi 100 mkm oshgan suspenziyalarni suyuq va qattiq fazalarga ajratish uchun mo‘ljallangan. FGP tipdagi sentrifugalar bir, ikki va ko‘p kaskadlilarga bo‘linadi. Ajratish faktori 225 dan 600 gacha bo‘lgan turli tip va o‘lchamlardagi sentrifugalar eng keng tarqalgan. 1-rasmda FGP – 120 1K-1 tipdagi ikki kaskadli sentrifuganing tuzilishi berilgan bo‘lib, uning asosiy tugunlariga rotor, filtrlovchi to‘silalar va itaruvchining qaytuvchi-ilgarılma harakat tizimi kiradi.

**Ishlash prinsipi.** Ajraladigan suspenziya oziqa quvuri orqali qabul qilish tuzilmasiga tushadi, rotor tezligiga yaqin tezlik bilan yoyilib oqadi, tenglashtiruvchi va tushiruvchi uzuklar orasidan birinchi kaskadning filtrlovchi elagiga oqib tushadi. Cho‘kma elakda ushlanib qoladi, suyuq faza esa elak va drenajli uchastokdan o‘tib, sentrifugadan chiqarib yuboriladi. Birinchi kaskadning qaytuvchi harakati natijasida Cho‘kma qatlami harakatsiz itaruvchi tomonidan ikkinchi kaskad elagiga tushiriladi. Cho‘kmaning ikkinchi kaskaddagi harakatlanishi va uning kojuxga tushirilishi birinchi kaskadning ilgarilama harakati orqali ta’milanadi. Birinchi kaskadning qaytuvchi-ilgarilama harakati kaskad shtokiga ulangan porshenning chap va o‘ng torslariga moyning navbatma-navbat keladigan bosimi orqali amalga oshiriladi. Cho‘kmaning ikkinchi kaskad to‘rlarining yuzasi bo‘ylab harakatlanishi sari Cho‘kmaning




12-rasm. FGP-120 1K-1 ikki kaskadli sentrifuga

- 1- oziqlantiruvchi quvur; 2,3 – old va o‘rta kojuxlar; 4 – tenglanantiruvchi aylana; 5 – filtrovchi to‘silalar; 6 – rotor; 7 – val; 8 – itaruvchining shtoki; 9 – gidravlik silindr; 10 – musta; 11 – xolodilnikli yog‘ sistema; 12 – stanina; 13 – vibroizolyasion asos; 14 – demper; 15 – vibroizolyator.

siqish, yuvilishi va mexanik quritilishi amalga oshiriladi. Qiyin filtrlanuvchi va qovushqoq suspenziyalarni ajratishda qo‘llaniladigan ko‘p kaskadli sentrifugalar tuzilishiga ko‘ra murakkabroq hisoblanadi.

**Tindiruvchi sentrifugalar.** Cho‘kmasi shnekli usulda olib tashlanadigan, uzlusiz ravishda ishlaydigan OGSH (GOST 8459-78) tipdagi tindiruvchi gorizontal sentrifugalar mikrobiologik

ishlab chiqarish uchun eng perspektiv hisoblanadi. Ular oqava suvlarning faol loyqasini konsentrlashda hamda suyuq va qattiq fazalar zichliklarining  $200 \text{ kg/m}^3$  dan ortiq bo‘limgan farqida qattiq fazaning hajm bo‘yicha konsentratsiyasi 1 dan 40% gacha, zarrachalari kattaligi esa 5 mkm dan 10 mm gacha bo‘lgan suspenziyani ajratishda samarali qo‘llaniladi. Ushbu mashinalarning asosiy ijobiy tomonlariga yuqori unumdonlik, jarayonlarning uzluksizligi, energiya va tugunlarni yasash uchun ishlatiladigan metallning past nisbiy sarfi kiradi. OGSH tipdagi sentrifugalarining asosiy tugunlari: konussimon yoki silindrik-konussimon shakldagi rotor, rotor ichiga o‘rnatilgan va diametri rotor diametridan biroz kichik bo‘lgan shnek va reduktor. Bunday rotoring asosiy tuzilishi (konstruksiyasi) 2-rasmda berilgan.



13-rasm. OGSH tipdagi sentrifuga.

Boshlang‘ich suspenziya oziqa quvur 3 orqali uzatiladi va markazdan qochma kuch ta’sirida rotor 7 devorlariga otib yuboriladi. Bu erda suspenziyaning qatlamlarga ajralishi sodir bo‘ladi zichroq bo‘lgan qattiq zarrachalar rotor devorlari yaqinida yig‘ilib, fugatni aylanish o‘qiga yaqin tomon itaradi. Rotor va shnek aylanish chastotalaridagi farq tufayli Cho’kma rotor devorlari bo‘ylab harakatlanadi, konussimon qismda qo‘shimcha ravishda zichlashadi va oynalar 1 orqali chiqariladi. Rangi ochlashtirilgan fugat oynalar 4 orqali oqib tushadi, kojux 2 da yig‘iladi va oqizib tashlanadi. Sentrifuganing ishlash tartibini oynalarining ochilish darajasini hamda rotor va shnekning aylanish chastotalarini o‘zgartirish orqali boshqarish mumkin.

3. Separatsiya usuli spirtli brajkadan em va oziqa achitqilarini konsentrashda hamda emulsiyalarni ajratishda keng qo‘llaniladi. Separatsiyalashni qo‘llash katta hajmdagi qiyin filtrlanuvchi suspenziyalarni yuqori tezlik bilan qayta ishlashga, mikroorganizmlar va  $0,5 \text{ mkm}$  dan ortiq kattalikdagi qattiq zarrachalarning ajralishi va konsentratsiyalanishini anchagina jadallashtirishga imkon yaratadi.

Separatsiyalash jarayonlari, samaradorligi tindirgichlardan ancha yuqori bo‘lgan kompakt va yuqori unumdonlikka ega, separator mashinalarda kechadi.

Separatsiyalash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib markazdan qochma kuch hisoblanadi.

Zarrachalarni cho‘ktirish tezligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$v_c = \frac{d^2 n^2 R (\rho_s - \rho_c)}{18\mu \cdot 900},$$

bunda,

$d$  – qattiq zarrachaning diametri, m;

$n$  – barabanning aylanish chastotasi, min.<sup>-1</sup>;

$R$  – baraban radiusi, m;

$\rho_s$  – qattiq zarracha zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$\rho_c$  – suyuq faza zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$\mu$  - dinamik qovushqoqlik, Pa·sek.

## **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Senrifuga, tindiruvchi, filtrlovchi, qattiq zarrachalar, baraban, suspenziya, dispers sistemalar, suyuq faza, dinamik qovushqoqlik, aylanish chastotasi, unumdorlik, emulsiya, silindrik sirt, separatsiyalash, zarrachalar.

### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Sentrifugalash nima?
2. Senrifugalarning turlarini sanab bering.
3. Sentrifugalarning ishlash effektivligi nima?
4. Separatsiyalash jarayonini tushintirib bering.

## **7-MA’RUZA** **BUG‘LATISH APPARATLARI**

### **Reja:**

1. Bug‘latish, asosiy tushunchalar. Suyuqlikning tabiiy va majburiy sirkulyasiyasiga asoslangan apparatlar.
2. Erkin oqib tushuvchi pardali bug‘latgichlar.
3. Markazdan yuguruvchi bug‘latgichlar.
4. Rotorli pardali bug‘latgichlar.

Flotatorlar va markazdan qochma separatorlarda biomassani konsentratsiyalash hujayra massasining suspenziyadagi tarkibini  $600 \text{ kg/m}^3$  dan ko‘p bo‘lmagan miqdorgacha etkazishga imkon beradi. Tovar mahsulot (masalan, 10% namlikdagi) olish uchun 1 t biomassaga taxminan 5 t namlik yo‘qotilishi kerak bo‘ladi. Quritishga ketadigan sarf-harajatlarni kamaytirish maqsadida konsentratlarni bug‘latish apparatlarida bug‘latiladi (quyuqlashtirishadi). Em konsentratlari quruq moddalarning tarkibi 23-25% gacha etganiga qadar bug‘latiladi. Tarkibida tirik va plazmolizga uchragan hujayralarni tutgan biologik suspenziyalarni bug‘latish jarayoni spetsifik tusga ega.

Bug‘latishdagi harorat oqsillarning issiqlik denaturatsiyasi yoki fermentlar inaktivatsiyasiga olib keluvchi ko‘rsatkichlardan oshib ketmasligi lozim. Shunday qilib, em achitqilarni konsentrashda harorat  $80\div85^{\circ}\text{C}$  dan, aksariyat fermentlarni konsentrashda esa  $20\div30^{\circ}\text{S}$  dan oshmasligi kerak. Bunday qaynash haroratlarini ushlab turish uchun bug‘latish apparatlarida mos vakuum hosil qilinishi kerak.


Bug‘latish apparatlarining separatsion kameralarida ko‘pik hosil bo‘lishini kamaytirish uchun achitqi suspenziyasini bug‘latishga uzatishdan avval plazmolizga uchratish kerak. Bundan tashqari, bug‘latish apparatlariga plazmolizga uchragan achitqilarni uzatish bug‘latish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi quyulmalarning hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Mikrobiologik sanoat kimyoviy texnologiya asosida rivojlanib, eng mukammal bug‘latish uskunalarini, termolabil mahsulotlarni qayta ishlash talablariga javob beradigan yangi apparatlarni yarattdi. Isitish va qaynatish kameralari suyuqlik bilan to‘liq to‘ldiriladigan apparatlar bug‘latish uskunalarining asosiy guruhini tashkil qiladi. Suyuqlik harakatlanishining

### **Tabiiy sirkulyasiyali apparatlar**

Apparat (1 rasm) kojux-naysimon issiqlik almashtirgich ko‘rinishida yasalgan isituvchi kamera (4), separator (2) va sirkulyasion quvur (3) dan tashkil topgan. Separatsion kamerada siklon-tomchitutgich (1)

aralashma ikkita oqimga ajraladi: ikkilamchi bug' va sirkulyasion quvurga oqib tushuvchi



**14-rasm. Tabiiy sirkulyasiyalı  
bug'latuvchi apparat**

bug'lanuvchi eritma. Gomogen suyuqlik sifatida Ushbu eritmaning zichligi kamera (4) ning qaynatish quvurlaridagi bug'-suyuqlik aralashma zichligidan ancha yuqori bo'ladi. Buning natijasida erliftli tipdagi fermentatorlarda sodir bo'lgani kabi suyuqlikning intensiv tabiiy sirkulyasiyasi yuzaga keladi.

Isitish kamerasining separator korpusidan tashqarida joylashtirilishi nafaqat suyuqlikning yaxshi sirkulyasisi hisobiga, balki qaynatish quvurlari uzunligining 7 m gacha uzaytirilishi hisobiga ham bug'latish jadalligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Katta uzunlikdagi va kichik diametrдagi qaynatish quvurlariga ega apparatlarda suyuqlikning yuqori qovushqoqligi holatida gidravlik ishqalanishga bo'lgan qarshilik keskin oshadi, bu esa sirkulyasiya tezligining pasayishiga va isituvchi beg'dan qaynayotgan suyuqlikka issiqlik tashilishining yomonlashuviga olib keladi. SHuning uchun tabiiy sirkulyasiyalı apparatlar qovushqoq bo'lmagan eritmalarni bug'latishda ishlatiladi.


#### **Majburiy sirkulyasiyalı apparatlar**

Quvurlarda, ayniqsa konsentrלangan mahsulotlarning bug'latilishida, quyqa yig'ilib qolishning oldini olish uchun 2-2,5 m/sek. dan past, ya'ni tabiiy sirkulyasiyalı apparatlar ishlaydigan tezliklardan yuqori bo'lgan sirkulyasiya tezliklari kerak bo'ladi. Bunday yuqori tezliklarga tabiiy sirkulyasiya sharoitida ham erishish mumkin, lekin bunda isituvchi bug' bilan qaynayotgan eritma orasida haroratlarning juda katta foydali farqlari bo'lishi kerak.

Majburiy sirkulyasiyalı apparatlarda sirkulyasiya tezligi sirkulyasion nasosning ishlab chiqarish quvvati orqali aniqlanadi va quvurlardagi suyuqlik balandligi hamda bug' hosil bo'lishining intensivligiga bog'liq bo'lmaydi. Bunday apparatlarda bug'latish haroratlarning kichik foydali farqlarida ( $3-5^{\circ}\text{S}$ ) hamda eritmalarning yuqori qovushqoqligiga effektiv o'tadi. Majburiy sirkulyasiyalı bug'latish apparatining konstruksiyasi 2-rasmida berilgan.

joylashtirilgan. Bug'lanuvchi eritma sirkulyasion quvurning yuqori qismiga uzatiladi hamda aylanayotgan suyuqlikning asosiy oqimi bilan aralashgan holda oldindan isitiladi. Kamera 4 quvurlari bo'yab harakatlangan sari suyuqlik to'inish haroratigacha isiydi va qaynab chiqadi. Quvurning taxminan 1/3 balandligida 1,5 m/sek. ga etadigan tezlik bilan yuqoriga ko'tariluvchi bug'-suyuqlik aralashmasi hosil bo'ladi.

Kamera (4) ning yuqori qismida joylashgan ajratuvchi qismi bilan separator 2 tomon yo'nalgan bu apparatning turi qaynash zonalari, suyuqlik sirkulyasiyasi va separatsiyasining ma'lum tartibda bo'lishi bilan aniqlanadi. Xususiyatiga ko'ra ular ikki tabiiy va majburiy sirkulyasiyaliturga ajratiladi. Shuningdek, Mikrobiologik ishlab chiqarishlarda, asosan, qaynash zonasini tashqariga chiqarilgan ikkita turdag'i apparatlar ishlatiladi: tabiiy va majburiy sirkulyasiyalı.



15-rasm.

Ushbu holat quyidagicha tushuntiriladi: quvurning pastki qismidagi bosim uning yuqori chetidagi bosimdan suyuqlik ustunining gidrostatik bosimi va quvurning gidravlik qarshiligidagi teng bo‘lgan kattalikka yuqoriroq bo‘ladi.

Qaynatish quvurlarida suyuqlik sathi baland bo‘lganda, butun sirkulyasion konturning aksariyat qismi suyuqlik bilan to‘lgan bo‘ladi, suyuqlik aralashmasi va ikkilamchi bug‘ning o‘z tarkibida bug‘ tutishi esa katta bo‘lmaydi. SHu sababli sirkulyasion nasos katta hajmdagi suyuqliklarni, asosan quvurlarning gidravlik qarshiligini engishga ketadigan energiyaning me’yoriy sarfida uzatish kerak bo‘ladi. Odatda majburiy sirkulyasiyalı apparatlarda qo‘llaniladigan propellerli nasoslar ushbu talablarni qondiradi.

2. Biosintezning aksariyat mahsulotlari uzoq termik ishlov berish davomida o‘zining qimmatga ega sifatlarini yo‘qotib boradi. SHuning uchun bunday termolabil moddalarni tutgan eritma yoki suspenziyalarni bug‘latishda o‘ziga xos yondashuv va mos keladigan apparatura talab etiladi.

Pardali oqimni turli xil usullar orqali hosil qilish mumkin. Ulardan eng oddisi suyuqlikning maxsus sug‘orgich (parda hosil qiluvchi) dan vertikal yuzaga uzatilishidan iborat. Ushbu prinsip asosida erkin oqib tushuvchi pardali bug‘latgichlar ishlaydi. Ular qovushqoqligi past bo‘lgan termolabil suyuqliklarni bug‘latishda ishlataladi. Konstruktiv jihatdan yasalishiga ko‘ra bu apparatlar ikki naysimon va plastinkasimon turlarga bo‘linadi.

Sanoatda naysimon bug‘latgichlar keng miqyosda qo‘llaniladi. Bunday apparat (3-rasm) quvurlar orasidagi bo‘shliqqa uzatiladigan to‘yingan suv bug‘i yoki issiq suv orqali isitiladigan kojux- naysimon issiqlik almashtirgich ko‘rinishida yasaladi.


Oddiy issiqlik almashtirgichdan farqli ravishda u boshlang‘ich eritma taqsimlagichi (2) va har bir quvurning (3) yuqori qismida o‘rnatiladigan sug‘orgichlarda hosil qiluvchilar (1) ga ega. Quvurlarning pastdag‘i quvur panjarasi tagiga chiqarilgan rastki

Apparat chiqariladigan isitish kamerasi (4), separator (1) va boshlang‘ich eritma uzatiladigan isitilmaydigan sirkulyasion quvur (2) ga ega. Mahsulot sirkulyasiyasini nasos (3) orqali amalgalashiriladi.

Bug‘lanuchi eritma yuqori tezlik bilan harakatlanayotganda uning qaynashi qaynatish quvurlaridan chiqishdan oldin keladigan qisqa joyda sodir bo‘ladi. SHu tariqa, qaynash zonasini isitish kamerasining eng yuqori qismiga ko‘chiriladi. Quvurlar uzunligining ko‘proq qismida suyuqlik biroz isiydi, xolos.

uchlari egri kesmalarga ega bo'lib, ular suyuqlikning oqim bo'ylab tushishiga hamda undan ikkilamchi bug'ning yaxshiroq ajralib chiqishiga yordam beradi.


**16-rasm. Oqib tushuvchi parli bug'latgich.**



3. Markazdan yuguruvchi kuch ta'siri ostida issiqlik almashinuvining tez aylanayotgan yuzasi bo'ylab harakatlanayotgan suyuqlikning yupqa pardasidan erituvchining bug'lanishi sodir bo'ladigan apparatlar markazdan yuguruvchi bug'latgichlar nomini oldilar. Hamma ma'lum bo'lган pardali bug'latuvchi apparatlar ichida markazdan yuguruvchi bug'latgichlar eng tezkor bo'lib hisoblanadi.

Issiqlik almashinuvining yuzasi aylanadigan bug'latgichlar asosan termolabil va ko'piruvchi eritmalarни konsentrash uchun qullaniladi. Mikrobiologik sanoatda ular harorat ta'siriga o'ta sezgir bo'lган ferment eritmalarни bug'latishda ishlatiladi. Bunday apparatlarning issiqlik almashinuvи yuzasi yupqadevorli elementlardan tayyorlangan bo'lib, ularning bir tomoniga issiqlik tashuvchi, ikkinchisiga ega bug'lanayotgan suyuqlik yaqinlashtirilgan. Sanoatda ko'proq tepe qismi 70-130° burchak ostida bo'lган, kesilgan, yupqadevorli konuslardan yasalgan issiqlik almashinuvи yuzasiga ega markazdan yuguruvchi bug'latgichlardan foydalaniladi.

Bunday apparat (5-rasm) ichki qismida rotor-bug'latgich joylashtirilgan qopqoqli (1) harakatlanmaydigan kojux (3) ga ega. Rotor korpusi (4) da konuslar yig'masi o'rnatilgan bo'lib, ular quyidagi kameralarni hosil qiladi:



**17-rasm. Issiqlik almashinuvи yuzasi aylanadigan markazdan qochma bug'latgich.**

(6) – bug'lanirilgan eritma uchun va (5) – isituvchi bug' uchun. Issiqlik almashinuvи yuzasi bo'lib yupqadevorli konus (8) hizmat qiladi. Bug'lanirilgan eritma harakatsiz patrubok (9) orqali kameralar (6) ga uzatiladi va markazdan yuguruvchi kuch hisobiga yupqa harakatlanayotgan parda bo'lib konus (8) ning ichki yuzasi bo'ylab rotor korpusidagi maxsus kollektorga taqsimlanadi hamda undan so'ruchi nay (2) orqali chiqariladi. Isituvchi bug' rotor tagidan kameralarga (5) kiritiladi va konus (8) ning tashqi devorini isitadi. Kondensat rotordan so'ruchi nay (7) yordamida chiqarib yuboriladi.


Rotor burchak rezligining ko'tarilishi bilan suyuqlik pardasining bug'lanish jarayoni jadallahshadi. Ammo aylanish chastotasining anchaga oshishi konstruksiyaning murakkablashuvi

sababli, ya’ni tez aylanayotgan vallarni germetizatsiya qilish zaruriyati tufayli apparat ishonchligining pasayishiga olib keladi.

Issiqlik almashinuvining maksimal jadalligi issiqlik almashinuvi yuzasining to‘liq ho‘llanilishidagi sug‘orishning minimal zichligiga mos keladi. Sug‘orish zichligining oshishi bug‘latgichning konsentratsiyalash qobiliyatining pasayishiga, minimal ko‘rsatgichlardan ham kamayishi esa issiqlik almashinuvi yuzasi bir qismining yalang‘ochlanib qolishiga hamda qizib ketgan joylarga tushib qolgan mahsulotning kuyishiga olib keladi.

Isituvchi va ikkilamchi bug‘ haroratlari farqining ko‘payishi bilan issiqlik almashinuvining jadallahuvi sodir bo‘ladi. Ammo sanoat apparatlari harorat naporining optimal ko‘rsatkichi haroratga chidamsiz mahsulotlar denaturatsiyaga uchramasligi shartidan kelib chiqib aniqlanishi kerak.

4. Apparat devori va bug‘lanuvchi suyuqlik orasidagi issiqlik almashinuvi jarayonini oqib tushayotgan suyuqlik pardasini mexanik aralashtirish orqali ancha jadallashtirish mumkin. Bunga qovushqoq, termolabil, kristallanuvchi muhitlarni qayta ishlashda almashtirib bo‘lmaydigan rotorli pardali buglatgichlarda erishiladi.



18-rasm. Vertikal rotorli pardali bug‘latgich.

Konstruksianing murakkabligiga va issiqlik almashinuvi yuzasining maydoni nisbatan katta bo‘lmasligiga ( $21\text{ m}^2$  gacha) qaramasdan, rotorli pardali apparatlar boshqa xildagi bug‘latgichlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Bular quyidagilar: suyuqlikning ishchi zonada qisqa vaqt bo‘lishi (bu termolabil mahsulotlarni qayta ishlashda ayniqsa katta ahamiyatga ega); xaddan tashqari ko‘piradigan moddalarni bug‘latishda kam ko‘pik hosil bo‘lishi; eritma boshlang‘ich sarfining oxirgi mahsulot chiqimiga bo‘lgan nisbatining yuqori bo‘lishi; qovushqoq suyuqliklarni bug‘latib, quruq kukun ko‘rinishdagi tayyor mahsulotni olish mumkinligi.



Sanoatdagagi rotorli pardali bug'latgich (6-rasm) diametri bo'y lab kengaytirilgan yuqorigi separatsion kamerasi (1) bor vertikal korpusga (3) ega. Korpusning (3) asosiy qismi odatda to'yingan suv bug'i bilan isitiladigan rubashka (5) ga kiritiladi.

Korpus ichida rotor joylashtirilgan bo'lib, uning valida (4) suyuqlik taqsimlagichi (2) va lopastli krestovinalar (6) o'rnatilgan bo'ladi. Suyuqlik taqsimlagich val krestovinasiga biriktirilgan silindr – konussimon shakldagi uzukdan iborat. Boshlang'ich eritma ushbu uzukka uzatiladi, va uning yordamida aylanma harakatga kelib, korpus devoriga otilib yuboriladi. Bundan keyin suyuqlik rotor lopastlari orqalikorpusning ichki yuzasi bo'y lab taqsimlanadi.

Pardali rotorli apparatlarni loyihalashtirish va ekspluatatsiyaga uchratishda ularning effektivligini baholash uchun mahsulotning ishchi zonada bo'lishining o'rtacha vaqtini bilish zarur (bu, ayniqsa, haroratga chidamsiz moddalarga ishlov berishda muhimdir). Bundan tashqari, suyuq pardani aralashtirish uchun rotor tomonidan iste'mol qilinadigan quvvat, hamda issiqlik almashinuvni yuzasining maydonini ham bilish kerak. Bunda gidrodinamik holatni ham inobatga olish lozim bo'ladi.

### **O'zlashtirishdagi muhim tayanch so'z va iboralar :**

apparat devori, parrak, qovushqoq, termolabil, kristallanuvchi muhitlar, rotor korpusi, biosintez, gidrodinamik holat, patrubka, loyihalashtirish, ekspluatatsiya, oqib tushuvchi parli bug'latgich, tabiiy sirkulyasiyalı apparatlar, oqim zichligi.

### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Pardali rotorli apparatlarni loyihalashtirish va ekspluatatsiya qilishda nimalarni bilish kerak?
2. Bug'latish jarayoni nima?
3. Tabiiy sirkulyasiyalı apparatlarning ishlash prinsipini tushintirib bering.
4. Plazmoliz jarayonini tushintirib bering.

## **8-MA'RUZA** **QURITISH USKUNALAR**

### **Reja:**

1. Umumiy tushunchalar.
2. Quritish jarayonining moddiy va issiqlik balanslari.
3. Quritgich apparatlarining sinflanishi ularning ishslash prinsipi.

Mikrobiologik sintez mahsulotlarining aksariyati quruq, qoldiq namlik 5-12% dan yuqori bo'lmagan holda chiqariladi. Shuning uchun, issiqlik yordamida quritish mikrobiologik sintezning tayyor shakldagi mahsulotlarini olishning asosiy sanoat usuli bo'lib hisoblanadi.

Biotexnologiya mahsulotlari ba'zan tirik mikroorganizmlar ko'rinishning qator holatlarida nafaqat sifatini, balki preparatlarning hayotchanligini ham saqlab qolish talab etiladi.

Quritish jarayoniga asoslanib, mikrobiologik sintezning barcha mahsulotlarini ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Quritishdan keyin mikroorganizmlar hayotchanligini yoki preparatning yuqori aktivligini saqlab qolishni talab qilmaydigan va yuqori ozuqali oqsil manbai sifatida ishlatiladigan mahsulotlar (em achitqilar, aminokislotalar, ba'zi fermentlar va boshqa).

2. Quritishdan keyin hayotchanligining, hamda ishlatilishidan oldin preparatlar yuqori aktivligining saqlab qolinishini talab qiluvchi mahsulotlar.

Nam materialga issiqlikni o'tkazish usuliga ko'ra kontaktli, konvektiv va radiatsion quritish xillari ajratiladi.

Kontaktli quritishda issiqlik quritilayotgan materialga isigan yuzalardan issiqlik uzatilishi hisobiga o'tadi. Bunda bug'lanayotgan namlik materialni o'rab turgan havoga o'tadi.

Konvektiv quritishda mahsulotni quritish uchun kerak bo'lgan issiqlik gazsimon quritgich agent orqali yuborilib, bu agent issiqlik tashuvchi va materialdan ajralgan namlik o'tadigan muhit

rolini bajaradi. Bu usul mikrobiologik sintez mahsulotlarini pnevmatik, aerofontan, quriti vixrli, purkovchi hamda qaynayotgan qatlamga ega quritgichlarda quritishda qo'llaniladi.

Infraqizil nurlar orqali radiatsion quritishda issiqlik energiya manbai (nur tarqatgich) dan elektromagnit tebranishlar bilan uzatiladi. Nur tarqatgichlar harorati  $700\text{--}2200^{\circ}\text{S}$  ni tashkil qiladi. Isitishning bu usuli tirik mikroorganizmlar, ba'zi turdag'i fermentlarni va boshqa termolabil mahsulotlarni sublimatsion quritishda qo'llaniladi.

2. Quritish jarayonlarining hisoblashlari ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda quritilayotgan material va quritgich agentning statik holati ko'rib chiqiladi, ajraladigan namlik va issiqlik tashuvchining sarflanishi muvozanat tenglamalari bo'yicha baholanadi. Bu hisoblashlar Ramzin diagrammasi yordamida amalga oshiriladi.

Ikkinci bosqichda material namligi va haroratining vaqt davomida o'zgarishni aks ettiruvchi quritish kinetikasi ko'rib chiqiladi.

### *Quritish jarayonining moddiy balansi.*

Quritilayotgan material absolyut quruq modda va namlikdan iborat. Namlik deganda, quritish jarayonida qisman yoki butunlay olib tashlanishi kerak bo'lган har qanday suyuqlik nazarda tutiladi. Boshlang'ich material yoki quritilgan mahsulot tarkibida bo'lган, suspenziya yoki mahsulot umumiy massasidan ulushlarda ifodalangan namlik massasi materialning namligi deb ataladi:

$$u = \frac{m_H}{m_{HM}} = \frac{m_H}{(m_k + m_H)},$$

bunda,

$m_H$  – namlik massasi;

$m_{HM}$  – nam material massasi;

$m_k$  – absolyut quruq modda massasi.

Material namligi quruq moddaga nisbatan ulushlarda ham ifodalanishi mumkin:  $u = \frac{m_H}{m_k}$ .

$u$  i  $u'$  – kattaliklari quyidagicha o'zaro bog'liq:

$$u = \frac{u}{(1-u)}, \quad u = \frac{u}{(1+u)}$$

Quritish jarayonida (agar yo'qotishlar bo'lmasa) absolyut quruq modda massasi o'zgarmaydi, shuning uchun absolyut quruq mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish quvvati quyidagi bo'ladi:

$$q_{mr} = q_{m1}(1-u_1) = q_{m2}(1-u_2),$$

bunda,

$q_{m1}, q_{m2}$  - mos ravishda boshlang'ich va quritilgan material bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlari;

$u_1, u_2$  - mos ravishda materialning quritishdan oldingi va keyingi namligi.

Bug'lanayotgan namlik bo'yicha quritgichning ishlab chiqarish quvvati:

$$q_{mH} = q_{m1} - q_{m2} = q_{m1} \frac{u_1 - u_2}{1-u_2} = q_{m2} \frac{u_1 - u_2}{1-u_1} = q_{mK}(u_1 - u_2).$$

Quritgich agentda (isitilgan atmosfera havosi, yoqilg'i yonishning gazsimon mahsulotlarida) doimo ma'lum miqdorda suv bug'lari mavjud bo'lgani uchun issiqlik tashuvchi nam gaz bo'lib, quruq gaz va suv bug'i aralashmasidan iborat bo'ladi. Quritish jarayonida bug'langan butun namlik isitilgan issiqlik tashuvchi tomonidan qabul qilinadi. Agar quruq gazning oqib chiqishi sodir bo'lmasa, uning massa bo'yicha sarfi o'zgarmaydi. SHuning uchun qurituvchi qurilmalarning

hisoblashlarini nam gaz tarkibidagi bug‘ massasining quruq gaz massasiga bo‘lgan nisbatiga teng  $x$  – namlik tarkibi kattaligini inobatga olgan holda,  $q_{m_2}$  absolyut quruq gazning sarfi bo‘yicha olib borish qulayroqdir.

Quritgichga gaz va material bilan kelib tushadigan namlikning umumiyligi massasi mahsulotda qoladigan namlik massasi va ishlatib bo‘lingan gaz bilan ketadigan namlik massasiga teng bo‘lishi kerak. SHunda quritgichning namlik bo‘yicha moddiy balansi quyidagicha bo‘ladi:

$$q_{m_1}u_1 + q_{m_2}x_1 = q_{m_2}u_2 + q_{m_2}x_2,$$

bundan absolyut quruq gazning sarfini hosil qilamiz:

$$q_{m_2} = \frac{q_{m_H}}{(x_2 - x_1)},$$

bunda,

$x_1$  va  $x_2$  – mos ravishda quritgichga kirish va chiqishdagi agent (havo) ning namlik tarkibi.

Hisoblashda, ko‘pincha, absolyut quruq gazning nisbiy sarfidan foydalilaniladi:

$$q_{m_H} = \frac{q_{m_2}}{q_{m_1}} = \frac{1}{(x_2 - x_1)}$$

Gazning namlik tarkibi quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$x = \frac{M_c}{M_e} \frac{\varphi P_{myü}}{P - \varphi P_{myü}},$$

bunda,

$M_s$ ,  $M_g$  – suyuqlik va gazning molekulyar massalari;

$\varphi$  – gazning nisbiy namligi;

$R$  – apparatdagi ishchi bosim;

$R_{to'}$  – ishchi haroratda suyuqlik to‘yingan bug‘larining bosimi.

Demak, yuqorida berilgan formulaga ko‘ra gazning namlik tarkibini soddalashtirilgan formula orqali aniqlash mumkin:

$$x = \frac{0,622\varphi_{myü}}{(P - \varphi P_{myü})},$$

bunda,

$\varphi$  – havoning nisbiy namligi;

$R_{tuy}$  – havoning berilgan haroratidagi to‘yingan suv bug‘ining bosimi;

$R$  – bug‘-gaz aralashmasining umumiyligi (quritgichdagi absolyut bosim).

### ***Quritgichning issiqlik balansi***

Havo isitgichi 1 va quritish kamerasidan 2 iborat quritish qurilmasini ko‘rib chiqamiz.

$q_{m_2}$  miqdordagi  $t_0$ ,  $u_0$  va  $x_0$  parametrlerlarga ega havo isitgich (1) ga kiradi va undan  $t_1$ ,  $u_1$  va  $x_1$  parametrlerlarga ega bo‘lib chiqadi. Isish jarayonida absolyut quruq gazning  $q_{m_2}$  massa bo‘yicha sarfi va uning namlik tarkibi  $x_0 = x_1$  o‘zgarmasdan qoladi.

Material quritish kamerasiga (2) ( $q_{m_2} + q_{m_H}$ ) miqdorda boshlangich namligi va harorati  $u_1$  va  $\theta_1$  bilan kiritiladi. Quritgichdan chiqishdagi material quyidagi parametrlerlarga ega bo‘ladi:  $q_{m_2}, u_2$  va  $\theta_2$ .

Quritgichga kiritilgan havo bug‘langan namlik bilan to‘yinadi va chiqishda  $t_2$ ,  $u_2$  va  $x_2$  ga ega bo‘ladi.

Berilgan sxemaga mos ravishda quritish kamerasing issiqlik balansi tenglamasi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$q_{m_e} Y_1 + q_{mH} C_x \theta_1 + q_{m_2} C_M \theta_1 + q_{mp} Y_p = (q_{m_e} + q_{mp}) Y_2 + q_{m2} C_M \theta_2 + \theta_{i\bar{y}\kappa},$$

bunda,

$Y$  – havo entalpiyasi, J/kg quruq gaz;

$S_x$  va  $S_m$  – mos harorat  $\theta$  da havo va quruq materialning nisbiy issiqlik sig‘imlari;

$Q_{yo'q}$  - issiqliknинг quritish kamerasi devorlaridan tashqi muhitga bo‘lgan yo‘qotilishi.


3. Purkashli quritishda eritma yoki suspenziya quritish kamerasida maxsus tuzilmalar yordamida mayda dispers holatgacha purkalanadi va gazsimon quritgich agent bilan aralashtiriladi. Bunda purkalishda olingan zarralarning katta yuzasi hosil bo‘ladi. Suvsizlanish juda tez sodir bo‘ladi, va quritishning boshqa xillarida termolabil mahsulotlar sifatiga salbiy ta’sir qiladigan jarayonlar bu erda kamroq namoyon bo‘ladi.

Purkash orqali quritish boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jarayon yuqori tezlik bilan kechadi, quritish vaqt 15-30 sekunddan ko‘p bo‘lmaydi. Purkashli quritishning kamchiliklariga gazlarning nisbatan yuqori bo‘laman boshlang‘ich harorati (100-150°S) bilan quritilganda quritish kameralarining katta o‘lchamlarga ega ekanligini kiritish mumkin. Termolabil mahsulotlarning quritish haroratini pasaytirish zaruriyati quritish kamerasida issiqlik tashuvchining retsirkulyasiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, buning natijasida mayda zarrachalarning bor bo‘lish va quritgich agent bilan kontaktda bo‘lish vaqt keskin ortadi.

Suyuqlikni quritishda quyidagi mexanik va pnevmatik forsunkalar, hamda katta tezlik bilan aylanayotgan markazdan qochma disklar orqali purkash usuli qo‘llaniladi

Mexanik markazdan qochma forsunkalar ekspluatatsiyada eng oddiy purkovchi qurilma hisoblanadi (1-rasm).

Bu erda forsunka boshchasiga (5) spiralsimon kanallarga (3) ega qo‘shimcha (4) o‘matilgan 2-markaziy kanal.




19-rasm. Markazdan qochma oqimli forsunka.

Ushbu tezlik va  $\omega_o$  o‘q tezligida suyuqlik soplodan keyin  $\omega$  haqiqiy tezligiga ega bo‘lib, bu tezlik vektorining joylashuvi purkash kengligi  $\theta$  ochilishining burchak yarmini belgilab beradi. Mexanik markazdan qochma forsunkadan suyuqlik oqib kelishining o‘ziga xosligi shundan iboratki,

soplo o‘qida  $r$ , radiusli havo vixri yuzaga keladi, purkash kengligi esa ichi bo‘sh bo‘lib qoladi. Bunda quritish kamerasining kesimi bo‘ylab suyuqlikning purkalishi bir me’yorda bo‘lmaydi. Quritish kamerasining bir me’yoriyligi yuqoriroq bo‘lgan sug‘orilishi markazdan qochma oqimli forsunkalarni ishlatgan holda hosil qilinadi. Bunday forsunkalarda qo‘shimcha 4 spiralsimon kanallardan tashqari,  $d_0$  diametrali markazdan qochma kanalga ham ega bo‘ladi.

Mikrobiologik sanoatda pnevmatik forsunkalar kengroq miqyosda qo‘llaniladi. Ushbu qurilmalarni tashqi va ichki aralashadigan forsunkalarga bo‘lish mumkin. Ichki aralashishga ega forsunkalar keng qo‘llanilmaydi, chunki ichi tez-tez tiqilib qoladi. Tashqi aralashishga ega pnevmatik qurilmalarda (2,rasm) suyuqlikning dispergirylanishi forsunka korpusidan tashqarida sodir bo‘ladi. Bu turli xil fizik xossalarga ega eritmalar va suspenziyalarni purkashda uning ishonchli ishlashni ta’minlaydi.



20-rasm. Pnevmatik forsunka.

to‘g‘ri oqim prinsipi bo‘yicha ishlaydigan quritgichlar eng keng tarqalgan. Bu holda ham suspenziya, ham quritgich agent kameraning tepe qismiga uzatiladi.


Kuritish kameralarining konstruktiv xususiyatlari, asosan, suyuqlikni purkash shartlari hamda tayyor mahsulot va quritgich agentning chiqarilish usuli bilan aniqlanadi. Forsunkali purkashda suyuqlik kengligi vertikal mo‘ljallanganda,  $R/D = 3 \div 4$  nisbatga ega bo‘lgan silindrik-konussimon shaklli kameralar eng keng tarqalishga uchragan (4-rasm). Suspenziya bo‘yicha kerakli ishlab chiqarish quvvatini ta’minalash uchun kamerada har bir blokka 3-5 tadan yig‘ilgan jami 32 tagacha markazdan qochma mexanik forsunkalar o‘rnatalishi mumkin. Quritgich agentning kamera (2) ga kiritilishi purkash panjarasi (1) orqali amalga oshiriladi. Quritgich agentning tayyor mahsulotning mayda zarralari bilan chiqarilishi gazoxod (3) orqali amalga oshiriladi. Kameraning konussimon qismida o‘tirib qoladigan yirik zarralar pastki shtutser (4) orqali pnevmotransport yordamida chiqariladi.

2-rasmda suyuqlikning markazdan uzatilishi bo‘lgan tashqi aralashishga ega forsunka berilgan. Siqilgan havo yoki bug‘ kamera 1 ga tangensial ravishda uzatiladi.


Doirasi ortib borayotgan aylanayotgan konussimon havo vixri  $O$  nuqtada cho‘qqisiga ega bo‘ladi. Bu nuqta atrofida razryadlanish yuzaga kelib, uning hisobiga qo‘shimcha quvur (2) orqali etib keladigan suyuqlikning so‘rilishi sodir bo‘ladi.  $O$  nuqta bir vaqtning o‘zida purkash kengligining ham cho‘qqisi bo‘ladi. Forsunkaning ishlab chiqarish quvvatini oshirish maqsadida suyuqlik ortiqcha bosim ostida uzatilishi mumkin.

Purkashli quritgichlarni quritish kamerasida gaz va suyuqlik yoki suspenziya zarralarining o‘zaro harakatlanish yo‘nalishiga ko‘ra klassifikatsiyalashadi. Bunda uch xili ajratiladi: quritgich agent va purkalanuvchi zarralarning to‘g‘ri oqimida, qarama-qarshi oqimida hamda aralash harakatlanishida ishlaydigan quritgichlar.

Mikrobiologik sanoatda mikrob biomassasi, em aminokislotalar va antibiotiklarni quritish uchun to‘g‘ri oqim prinsipi bo‘yicha ishlaydigan quritgichlar eng keng tarqalgan. Bu holda ham suspenziya, ham quritgich agent kameraning tepe qismiga uzatiladi.



**21-rasm. Forsunkali purkovchi quritish kamerasi.**



**22-rasm. Diskli purkovchi quritish kamerasi.**

Past ishlab chiqarish quvvatiga ega quritgichlarda, odatda, gazoxod (3) bo‘lmaydi, va quritgich agent tayyor mahsulot bilan birga shtutser (4) orqali chiqariladi.

Diskli purkovchi quritgich (5-rasm) kamerasi N/D ≈ 2 nisbatli silindrik – konussimon shaklga ega bo‘ladi. Suspenziya kameraga purkovchi diskli tuzilma (3) orqali kiritiladi. Quritgich agent egilgan jalyuzilarini gazga aylanma harakatni uzatuvchi taqsimlovchi boshcha (4) orqali kiradi. Quritgich agent mahsulot mayda zarralari bilan birga gazoxod (6) orqali chiqariladi. Yirik zarralar kameraning konussimon qismida o‘tirib qoladi va pnevmotransport sistemaning qabul qiluvchisi 7 orqali tashqariga chiqariladi.

Kameraning qopqog‘ida ehtiyotkorlik klapanlari (1) va yong‘inni o‘chirish uchun tuzilma (2) o‘rnatalgan bo‘ladi.

#### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Quritish, kamera, sublimatsion, konvektiv, past ishlab chiqarish qkvvati, pnevmatik forsunkalar, issiqlik balansi, markazdan qochma forsunkalar, konussimon, agent, yirik zarrachalar, purkab qurituvchi quritgichlar, suspeziya, purkash, vertikal, disk, konussimon, sistema, ekspluatatsiya,

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Quritish jarayoniga asoslanib, mikrobiologik sintezning barcha mahsulotlarini necha asosiy guruhga ajratish mumkin? Izohlab bering.
2. Quritgichning issiqlik balansini keltirib chiqaring.
3. Nam materialga issiqliknki o‘tkazish usuliga ko‘ra necha turga ajratiladi?
4. Forsunkali purkovchi quritish kamerasining ishlash prinsipini aytib bering.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

- 1 N.R.Yusupbekov, H.S.Nurmuhamedov, S.G.Zokirov Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari, Toshkent. Sharq, 2003y.
- 2 Romankov M.G.. Rashkovskaya N.B. Sushka vo vzzveshennom sostoyanii. L.: Ximiya, 1979. 271 s.

## **9-MA’RUZA EKSTRAKTORLAR VA ULARNING ISHLASH PRINSIPI**

### **Reja:**

1. Ekstraktorlar. Umumiylar. Ekstraktorlarning tuzilishi.
2. Adsorberlar. Umumiylar. Adsorberlarning tuzilishi va ishlash prinsipi.

3. Mikrobl li sintez mahsulotlarini konsentrash va tozalash uchun mo'ljallangan membranali apparatlar.

1. Ekstragirlash – bu tanlovchi ekstragentlar yordamida qattiq yoki suyuq moddalar aralashmalarini ajratish jarayoni. Mikrobiologik ishlab chiqarishda ekstragirlash orqali fermentlar zamburug‘ va bakteriyalarning yuzaki kulturaliridan suv yoki tuz eritmalar bilan, mikrobl yog‘ esa achitqi biomassasidan uchuvchan erituvchilar bilan ajratib olinadi. O'simlik xomashyosidan gidrolizatorlarni olish jarayoni polisaxaridlarning gidrolizdan keyin monosaxaridlarni kislota eritmasi bilan qattiq fazadan ekstragirlashga ham bog‘liq. Ekstragirlash orqali ferment preparatlari olinganda, ballast moddalardan 70-75% ga xalos bo‘lishga hamda fermentning quruq moddalarga nisbatan miqdorini taxminan 3 martaga oshirishga erishiladi. Mikrobl yog‘ va uglevodorodlarni ekstragirlashda qoldiq uglevodorodlarning reglamentlangan miqdoriga ega bo‘lgan oqsil – vitaminli konsentratlar va texnik mikrobl yog‘ olinadi.

Qattiq fazadan ektragirlash jarayonining mohiyati molekulyar diffuziya orqali zarrachalar ichidan tashqi yuzasiga hamda konvektiv diffuziya orqali chegaraviy qatlamdan ektragent ichiga o'tkazishdan iborat.

Ekstragirlash jarayoni Fikning I qonuniga bo‘ysunadi, va ekstragirlangan moddalarning miqdorini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$Q = KF \frac{C - c}{\delta} \tau$$

bunda,

$Q$  – ekstragirlangan moddalar miqdori, kg;

$K$  – diffuziya koefitsienti,  $m^2/sek.$ ;

$F$  – ishlov beriladigan zarrachalarning umumiy yuzasi,  $m^2$ ;

$S$  – ekstragirlanayotgan moddalarning zarrachadagi o‘rtacha konsentratsiyasi,  $kg/m^3$ ;

$s$  – ekstragirlanayotgan moddalarning zarracha sirtqi qatlamidagi o‘rtacha konsentratsiyasi,  $kg/m^3$ ;

$\tau$  – ekstragirlash davomiyligi, sek.

$\delta$  - zarracha qalinligi, m.


Fermentlar yoki mikrobl yog‘ ekstraksiyasida qarshi oqim prinsipi bo‘yicha ketma-ket uzlusiz tortib chiqarishning ilg‘or usulidan foydalaniladi. Ushbu usulda boshlang‘ich ektragent eng ko‘p ishlov berilgan materialga, ekstragirlanayotgan moddaning yuqori miqdoriga ega ektragent esa endigina yuklangan materialga etkaziladi. Ketma-ket tortib chiqarish usulidan ferment sanoatida Robert tipidagi uzlusiz ishlaydigan diffuzion qurilmalarda foydalaniladi. Odatda batareyada 8 ta unifikatsiya qilingan diffuzorlar joylashadi.

Diffuziyaning umumiy vaqt 6 s, diffuzorni ishlashga tayyorlash davomiyligi, kulturani yuklab tushirish va yuklashni hisobga olgan holda, tahminan 30-45 min. ni tashkil qiladi. 1 t quruq kulturadan tarkibida 15% gacha quruq moddalarni va taxminan 0,1% fermentlarni tutgan 2,3-3,5 t ekstrakt olinadi.

Ekstraksiya jarayonlarining avtomatizatsiyasiga ega, uzlusiz ishlaydigan yuqori unumli apparatlarga shnekli, rotatsion-kamerali va boshqalar kiradi.

1-rasmida (Bortnikov, 212 b., 6.15 rasm) ETSHV-600 tipidagi uzlusiz ishlaydigan vertikal shnekli ekstraktor berilgan. Ekstraktoring qattiq faza bo‘yicha unumdorligi 300 kg/s ni tashkil qiladi. Ekstraktor yuklash kolonnasi, gorizontal shnek va vertikal ekstraksion kolonnadan iborat.

Ekstraktor kolonnalarining qopqoqlaridan shnek vallarining chiqish joylarida erituvchi yoki mitsellaning oqib chiqishini oldini oladigan salniklar o‘rnatalgan. Boshlang‘ich material yuklanish kolonnasiga yuklatiladi hamda vertikal va gorizontal shneklar bilan ekstraksion kolonnasiga uzatiladi va u erda yuklab tushiriladigan



23-rasm. ETSHV-600 tipdagi shnekli ekstraktor

1,8 – yuritmalar; 2,7 – muftalar; 3,11 – konveyerlar; 4,9, 10 – shneklar; 5 – yuklovchi kolonnaning korpusi; 6, 14 – podshipniklar ustunlari; 12 – ekstraksion kolonnanning korpusi; 13 – salniklar.

qurilmaga tomon yuqoriga ko‘tariladi. Ekstragent ekstraksion kolonnanning yuqori qismiga uzatiladi va u bo‘ylab pastga harakatlanadi. Gorizontal shnek va yuklanish kolonnasidan o‘tib, ekstragent ekstragirlangan moddalar bilan birga ekstraktdan turli qism orqali chiqariladi.

Uzluksiz ishlaydigan shnekli kolonnali ekstraktoring ishlov berilayotgan material bo‘yicha unumдорлиги (kg/s):

$$Q = 60K_{\text{yo}} \frac{\pi D^2}{4} Sn\rho ,$$

bunda,

$K_{yu}$  – 0,7-0,6 – yuklanish kolonnsasi siqilgan buramining to‘ldirilish koeffitsienti;

$D$  – shnek diametri, m;


$S$  – yuklanish kolonnsasi qabul qiluvchi birinchi o‘ramining qadami, m;

$n$  - shnek aylanishining chastotasi, min.<sup>-1</sup>;

$\rho$  – ekstragirlanayotgan materialning zichligi, kg/m<sup>3</sup>.

Mikrobiologik sanoatda achitqilarini neft parafinlaridan ekstraksion tozalash uchun Angliya «Rouzdauns» firmasining biomassa bo‘yicha 115 t/sut. unumдорликка mo‘ljallangan uzluksiz ishlaydigan qurilmasi qo‘llaniladi. Qurilma o‘z ichiga rotorli ekstraktor (2-rasm), biomassani ekstraksiyaga tayyorlash va erituvchi regeneratsiyasi uchun qurilmani oladi. Rotorli ekstraktoring asosiy tugunlaridan biri bo‘lib vertikal o‘q atrofida aylanadigan yacheykalar hisoblanadi. Erituvchi bug‘larining oqib ketishini oldini olish maqsadida shnekli konveyerde probka tipidagi zichlanish hosil qilinadi. Yuqorida yacheykalarga nasos bilan taqsimlovchi qurilmalar orqali uzluksiz ravishda ekstragent uzatilib, u material qatlidan o‘tgandan keyin turli tub qismi orqali qabul qiluvchi idishlarga oqizib yuboriladi. Xomashyoning ustida doimiy holda ekstragent qatlami joylashadi.

Yacheykalar ustida bir nechta qabul qiluvchi idish bo‘ladi. SHu tufayli har bir idishda ekstragirlanayotgan moddalarning har xil konsentratsiyasiga ega bo‘lgan erituvchi yig‘iladi. Ekstraktiv moddalarga ega bo‘lmagan erituvchi yacheykalarga material yuklayu tushirilgandan keyin uzatiladi. Bu yacheykalardan saralab olingan ekstragent keyingi yacheykalarga uzatiladi va h.k. Endigina yuklangan materialga ekstragirlanayotgan moddalarning eng ko‘p miqdoriga ega bo‘lgan erituvchi uzatiladi. Shu tufayli ekstraktorda qarshi oqim hosil bo‘ladi.



**24-rasm. «Rouzdauns» firmasining uzlusiz ishlaydigan rotorli ekstraktor**

1 – yuklatish konveyeri; 2 – rotoring vali; 3 – so‘rvuchi qurilma; 4 – ko‘rish oynasi; 5 – ochiladigan tagning tushirish mexanizmi; 6 – chiqarish konveyeri; 7 – ochiladigan tag; 8 – nasos; 9 – o‘zi tozalanadigan elak; 10 - missella tarqatgich.


Yacheykalardagi suyuqlik uning nasoslar bilan pastdagi idishlardan uzlusiz olinishi va yuqorida yacheykalarga berilishi tufayli uzlusiz ravishda sirkulyasiya qiladi. Bu turg‘un zonalarning hosil bo‘lishini istisno qiladi va mitsellani mayda zarrachalardan tozalashga imkon beradi. Boyitilgan mitsella texnik biyoyog‘ni olish hamda erituvchining regeneratsiyasi uchun bug‘lanishdan beriladi. Ekstragirlangan material yacheyka tub qismining tushirilishida yuklatib olinadi va undan erituvchining olib tashlanishi uchun desolvatorga yo‘naltiriladi.

2. Adsorbsiya deganda, qattiq birikma – adsorbent bilan suyuqlik yoki gazdan komponentlarning yutilish jarayoni tushuniladi. Adsorbsiya usuli mikrobiologik sanoatda chegaralangan holda qo‘llaniladi va, asosan, yuqori tozalangan va immobillangan fermentlarning kristallik aminokislotalarini olishda ishlatiladi.

Fermentlarni aralashmadan ajratib olishda va immobillangan fermentlarni olishda adsorbentlar sifatida organik sorbentlar – kraxmal, selluloza, sintetik va silikagel va boshqalar qo‘llaniladi. Kultural suyuqlikdan aminokislotalarni ajratib olishda sintetik organik ionitlardan foydalaniladi. Yuqori tozalikka ega suyuq parafinlarni ishlab chiqarishda sintetik molekulyar elaklar ishlatiladi. Adsorbsiyadan keyin, maqsadga muvofiq mahsulotlarni olish va adsorbent regeneratsiyasi maqsadida, yutilgan komponentlar ko‘p hollarda adsorbentlardan kislota, tuz va ishqor eritmali, organik erituvchilar va bug‘ bilan chiqarib tashlanadi. Adsorbsiyalangan komponentlarning chiqarib tashlanishi jarayoni desorbsiya deb ataladi. Adsorbsiya jarayonlari harakatsiz yoki harakatlanadigan adsorbent qatlami bilan davriy yoki uzlusiz ravishda ishlaydigan apparatlarda kechadi. Qaynayotgan qatlamga ega adsorbentlar perspektiv bo‘lib hisoblanadi. Mikrobiologik ishlab chiqarishda asosan adsorbentning harakatsiz qatlamiga ega davriy ravishda ishlaydigan adsorberlar qo‘llaniladi.

3-rasmida kultural suyuqlikdan aminokislotalarni ajratib olish uchun mo‘ljallangan vertikal adsorber (ionalmashinuvchi) tuzilishi berilgan. Kolonna ichida turli qism mavjud bo‘lib, u etkazilayotgan suyuq fazaning bir tekisda taqsimlanishi va kolonnadan adsorbentning olib ketilishini oldini olish uchun xizmat qiladi. Adsorbenti yuklash va yuklatib tushirish, hamda

adsorberni tekshirish va ta'mirlash uchun lyuklar xizmat qiladi. Suyuq fazani uzatish va olib ketish uchun kolonnaning yuqori va pastki qismlarida shtutserlar mavjud bo'ladi.



25-rasm. Ionalmashtrigich:

1 – korpus; 2 – qapqoq; 3 – perforlangan tarelkali plita.

Adsorberning ishlash prnsinpi quyidagicha:

Biomassadan ajratib olingandan keyin kultural suyuqlik kolonnaga etkaziladi, aminokislota ionit qavatidan o'tganda smola tomonidan adsorbsiyalanadi, birga keladigan qo'shimchalar esa, kolonnadan ishlov berilgan kultural suyuqlik bilan birga chiqarib yuboriladi. Smola aminokislota bilan to'yinganidan so'ng kultural suyuqlikning etkazilishi to'xtatiladi va smola suv bilan yuviladi. Shundan so'ng bir vaqtida smolaning regeneratsiyasi bilan birga aminokislota ammiakning suvli eritmasi bilan desorbsiyalanadi. Suv bilan yuvilganidan keyin adsorbentni qayta ishlatish mumkin bo'ladi. Olingen aminokislota eritmasi keyingi ishlovga etkaziladi.

3. Ferment, antibiotik, vitamin, aminokilotalar va mikroblili sintez boshqa masulotlarining yuqori tozalangan preparatlarini olish bug'latish, ekstraksiya, cho'ktirish, ion almashinish va boshqa usullar yordamida ularni qo'shimchalardan tozalash hamda konsentrash bilan bog'liq. Bunda temperatura ta'sirida va suyuq fazanining fizik-kimyoviy o'zgarishlari natijasida oxirgi olinadigan masulotlarning biologik aktivligi va preparatlarning sifati pasayadi. Aralashmalarni ajratishning membranalı usullari oxirgi olinadigan masulotlarni kichik yo'qotishlar bilan yuqori effektivlikda va minimal sarflanishlar bilan tozalash va konsentratsiyalashga imkon beradi. Aralashmalarni ajratishning membranalı usullariga teskari osmos, ultrafiltratsiya, dializ, elektrodializ kiradi.

Ultrafiltratsiya – molekulalari diametri erituvchi molekulalari diametridan 10 dan ko'p marta kattaroq bo'lgan erigan moddalar va kolloid zarrachalarni ajratish jarayonidir. Ultrafiltratsiyada suv va past molekulyar moddalarni o'tkazuvchi membranalar ishlatiladi. Ushbu usul yuqori molekulyar birikmalar, masalan fermentlarni tozalash va konsentrashda eng samarali bo'lib hisoblanadi. Yuqori molekulyar birikmalarning eritmalarini past osmotik bosimga ega, shuning uchun ultrafiltratsiya jaraynları 0,6 MPa dan past bosimlarda kechadi.

#### O'zlashtirishdagi muhim tayanch so'z va iboralar :

Yggori molekulyar birikmalar, ultrafiltratsiya, dializ, elektrodializ, moddalar, kolloid zarrachalar, ferment, antibiotik, vitamin, aminokilotalar, kultural suyuqlik, kolonna, biomassa, adsorber, ekstragirlash.

### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Ultrafiltratsiya nima?
2. Adsorbsiya nima?
3. Ekstragirlash deganda nimani tushinasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Vasilsov E.A.. Ushakov V.G. Apparati dlya peremeshivaniya jidkix sred. Spravochnoe posobie. L.: Mashinostroenie, 1979. -272 s.
2. N.R.Yusupbekov, H.S.Nurmuhamedov, S.G.Zokirov Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari, Toshkent. Sharq, 2003y.

## **10-MA'RUZA FLOTATSION USKUNALAR**

**Reja:**

1. Asosiy tushunchalar. Suspenziyalarning flotatsion konsentrlnish mexanizmi.
2. Barbotajli flotatorlar.
3. Naporli flotatorlar.
4. Elektroflotatorlar.

Tovar biomassa mikrobiologik ishlab chiqarishlarning tayyor mahsuloti sifatida namlik tarkibi 10% dan yuqori bo‘lmagan quruq holda olinadi. Fermentyordan chiqadigan suspenziya, masalan, achitqi ishlab chiqarishning suspenziysi tarkibida biomassa konsentratsiyasi, odatda,  $40 \text{ kg/m}^3$  dan oshmaydi. Agar bu biomassa tarkibida 75% gacha hujayra ichi namligi bo‘lishi inobatga olinsa, 1 kg tovar mahsulotni olish jarayonida 98,9 kg namlik yo‘qotilishi kerak bo‘ladi.

Namlikning hammasi biomassani olish texnologiyasida turli usullar yordamida yo‘qotilib, ularni ikkita asosiysiga ajratish mumkin: gidromexanik va issiqlik-fizikaviy. Ikkinchisiga turli tipdag'i bug‘latish apparatlari va quritgichlarda suspenziyalarning quritilishi kiradi. Gidromexanik suvsizlantirish ikkita operatordan iborat: suspenziyani flotatsion boyitish va ularni likopchali separatorlarda konsentratsiyalash.

1. Mikrobiologik sintez jarayonida suspenziyada fermentatsiya bosqichida SAM (sirt aktiv moddalar) lignin, guminli moddalar va hujayralar metabolizmining murakkab tarkibli mahsulotlarining eruvchan fraksiyalari ko‘rinishida hosil bo‘ladi.

Flotatsiya jarayoni bir nechta bosqichda amalga oshadi: suyuqlikda qalqib chiqadigan gaz pufagining sirtiga hujayralarning mahkamlanishi, ularning pufak bilan birga strukturlangan ko‘pikning yuqori qatlamiga chiqarilishi hamda ko‘pik va flotatorning filtrlanib bo‘lgan mikroorganizmlar bilan birga chiqarib tashlanishi.

#### **Flotatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillar:**

1. Hajmiy
2. Adgeziv
3. Planktonlik
4. Ozuqa muhiti kimyoviy moddalarining qovushqoqligi
5. Ozuqa moddalarining kislotalilik hususiyati
6. Ozuqa moddalarining tuzlar saqlashi

Mikroorganizmlarning gaz pufagi sirtida sorbsiyalanish hususiyati ko‘pgina omillar bilan belgilanadi. Hujayralarning flotatsionirlashga layoqati ularning sirt qismidagi holatiga, polisaxaridlarning borligiga va tarkibidagi bog‘langan suvgaga bog‘liq. Silliq qobiqli alohida hujayralardan ko‘ra shoxlangan konglomeratlar yaxshiroq flotatsiyalanadi.

Flotatsiyalanadigan achitqilar muhit bilan yuvilganda o‘zining pishiq suvli qobig‘ini yo‘qotadi va meofob qattiq tanalar singari gaz pufakchalari bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Hujayra

qobig‘ining sirtida to‘planib, unga meofob xususiyatlarni beruvchi modda sifatida azot tutuvchi polisaxarid-xitin hisoblanadi.

Kultural muhitning kislotaligi ham flotatsiya jarayoniga ta’sir qiladi. Eng yaxshi flotatsiyalanish pH = 4,5 da kuzatiladi.

Shuningdek, flotatsiya jarayoni, asosan, (boshqa ijobiy omillar mavjud bo‘lganda) gaz pufaklari sirtining yuzasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Isbot tariqasida hujayralarning gaz pufagi sirtida joylashish sxemasini ko‘rib chiqamiz.

Achitqi hujayralarining shoxi shartli ravishda diametri  $d_{huj}$  va uzunligi  $l_{huj}$  bo‘lgan silindr hajmiga mos tushadi, deb faraz qilamiz. Ushbu shoxning hujayra massasi

$$m_{xy\omega} = \pi d_{xy\omega}^2 \cdot l_{xy\omega} (1 - \varepsilon_1) \rho_{xy\omega} / 4 ,$$

bunda,

$\varepsilon_1$  — shartli silindr ichida suyuqlikning ulushi (shoxning alohidalanganligi).

$1 \text{ m}^3$  suspenziyadagi hujayra shoxlarining massasi  $m=x(1-\varphi)$ , ularning soni esa

$$n=m/m_{xy\omega}=4x(1-\varphi)/[\pi d_{xy\omega}^2 \cdot l_{xy\omega} (1 - \varepsilon_1) \rho_{xy\omega}] \quad (1)$$

$x$  – suspenziya ichida biomassa konsentratsiyasi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$\varphi$  - flotosistemaning gaz tarkibi.

Berilgan sondagi shoxlarning gaz pufaklari sirtida mahkamlanishining shartini  $4\pi d_{xy\omega}^2 / 4 \leq a\varepsilon_2$  ko‘rinishda ifodalash mumkin,

bunda,

$a$  – pufaklar sirtining nisbiy maydoni;

$\varepsilon_2$  - hujayralar bilan qoplangan yuza ulushi.

Ushbu shart, 1-formula inobatga olinsa, quyidagi ifodalanishiga olib keladi:

(2)  $x(1-\varphi)/[l_{xy\omega} (1 - \varepsilon_1) \rho_{xy\omega}] \leq a\varepsilon_2$  va bu suspenziyadagi biomassaning  $X$  konsentratsiyasida gaz pufaklarining sirtida hamma hujayralar mahkamlana olishi uchun sirtning nisbiy maydoni qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

Flotator ishining effektivligi flotatsiya koeffitsienti orqali baholanadi:

$$K_\phi = x_\kappa / x_\eta ,$$

bunda,

$x_\theta$  – flotatsiyalangan ko‘pikdan ajratib olingan suspenziyadagi biomassa tarkibi;

$x_b$  – boshlang‘ich suspenziyada biomassa konsentratsiyasi.

Flotatsiya jarayonining moddiy balansidan ko‘rinib turibdiki,  $K_f$  kattaligi faqat boshlang‘ich  $\varphi_\delta$  va oxirgi  $\varphi_0$  ko‘pikning gaz tarkibiga bog‘liq bo‘ladi.

Haqiqatdan ham, flotatsiya jarayonining boshi va oxirida ko‘pikni hosil qiluvchi gaz pufaklari sirtida hamma hujayralar joylashib olsa, ularning umumiy massasi

$$m=V_{\omega\delta} \cdot x_\delta = V_{\omega o} \cdot x_o , \quad (3)$$

bunda,

$V_{\omega\delta}, V_{\omega o}$  - flotatsiyadan jarayonidan oldin va keyin suspenziyaning ko‘pikdagi hajmlari.

Ko‘piklardagi gaz tarkibi mos ravishda quyidagicha bo‘ladi:


$$\begin{aligned} \varphi_\delta &= V_e / (V_e + V_{\omega\delta}) \\ \varphi_o &= V_e / (V_e + V_{\omega o}) \end{aligned} \quad (4)$$

Flotatsiya jarayonida gaz ko‘pikdan ajralmaydi va ko‘pikda hujayralarning butun massasi qoladi, deb qabul qilinsa, ya’ni  $m/V = \text{const}$  bo‘lsa, unda (3) va (4) dan quyidagi hosil bo‘ladi:

$$K_\phi = x_0 / x_\delta = \varphi_0 (1 - \varphi_\delta) / [\varphi_\delta (1 - \varphi_0)] \quad (5)$$

Qattiq fazaning gaz-suyuqlik sistemasi bilan ta’sirlanishining moddiy balanslariga asoslangan (2) va (5) tenglamalar flotatsiya jarayonining statikasini belgilaydi.

Barbotajli flotatorlarning konstruksiyasini asosan, ularga fermentyordan kelib tushadigan gaz-suyuqlik aralashmasining strukturasi belgilaydi. Agar bu aralashma etarlicha rivojlangan nisbiy yuza maydoni  $\alpha$  ga ega bo‘lsa, flotatorda havoning qo‘srimcha kiritilishi hisobiga rivojlangan nisbiy yuzaga ega gaz-suyuqlik sistemasi hosil bo‘ladigan barbotajli zonasini bo‘ladi. Gaz-suyuqlik aralashmasining qatlamlarga ajralishi sodir bo‘ladigan flotatorning ikkinchi zonasini ko‘pikka minimal mexanik ta’sir bo‘ladigan sharoitlarda ishlashi kerak. Aks holda, gaz pufaklarining yorilishida ulardan ajrab chiqqan hujayralar rangi ochlashtirilgan suyuqlikka tushadi.



26-rasm. Flotator

Ushbu flotator tub qismi yassi bo‘lgan silindr simon idish (5) ko‘rinishda bo‘lib, uning ichiga konussimon uzukli lotokka (2) ega stakan (4) o‘rnatalgan bo‘ladi. Idish (5) va stakan (4) orasidagi uzuksimon bo‘shliq radial to‘sialar orqali beshta seksiyaga ajratilgan bo‘ladi. I va V seksiyalar orasidagi to‘sil (12) flotator tubigacha etib boradi,

boshqa seksiyalar orasidagi to‘sialar (3) esa tub qismigacha etib bormaydi. Har bir kichik seksiyaning pastki qismida barbotaterlar (11) o‘rnatalgan bo‘lib, ular havo etkazish uchun xizmat qiluvchi kollektorga (10) ulangan bo‘ladi. Markaziy stakan (4) ning yuqorigi qismiga mexanik ko‘pik o‘chiruvchi (1) joylashtiriladi. Fermentyordan chiqayotgan gaz-suyuqlik aralashmasi flotatorga patrubok (8) orqali kiritiladi. I seksiyaning uzuksimon bo‘shlig‘i bo‘ylab harakatlanagan sari aralashmaning qatlamlarga ajralishi kuzatiladi. Brajka II va V seksiyalar orqali ketma-ket oqib o‘tadi va u erda barbatyorlar orqali kiritilgan havo ta’sirida qo‘srimcha ravishda ko‘piklanadi. Rangi ochlashtirilgan brajka flotatordan shtutser (6) orqali chiqariladi.

Achitqi bilan boyitolgan ko‘pik konussimon lotokka (2) quyiladi va undan markaziy stakanga (4) oqib tushadi. Bu erda ko‘pik mexanik ko‘pik o‘chiruvchi (1) bilan buziladi, bunga bachokdan (9) uzatiladigan kimyoviy ko‘pik o‘chiruvchi yordam beradi. So‘ng ko‘pik shtutser (7) orqali chiqarib yuboriladi.

Bunday flotatorning asosiy kamchiligi , gazning biomassani tugatish maqsadida oxirgi seksiyalarga yuborilishida ularda hosil bo‘ladigan ko‘pik markaziy stakanga quyuqlashtirilgan suspenziyani suyultirib yuboradigan qo‘srimcha maqdordagi suyuqlikni chiqaradi.

Agar fermentatordan chiqayotgan gaz-suyuqlik aralashmasi gaz pufaklarining etarlicha rivojlangan yuzasiga ega bo'lsa, u turbulentlikning tashqi manbalari tomonidan hech qanday ta'sirga uchramasdan flotator ichida harakatlanishi kerak. Ushbu shartga to'g'riburchak ostidagi kesimli gorizontal kanal (quti) ko'rinishida yasalgan flotator eng mos tushadi.

1. Suyuqliklar aeratsiyasining ehtimoldagi usullarini tahlil qilib, V.I.Klassen suyuqlikdan gaz ajralganda kichik dispersli zarralarning flotatsiya jarayonini yaxshilash mumkinligini nazariy jihatdan asoslab berdi, negaki bu holda pufakchalar bevosita zarralarning sirtida hosil bo'ladi. Genri qonuniga binoan, bunga suyuqlik bosimi pasayganda undagi gaz erishining kamayishi orqali erishiladi. Bosim kamayishining shartlariga binoan vakuumli va naporli flotatsiya ajratiladi.


Birinchi holda atmosfera bosimida gaz bilan to'yangan suspenziyali idishda gaz ajralishini ta'minlovchi vakuum hosil qilinadi. Vakuumli flotatsiyaning boshqa usullarga nisbatan afzalligi shundan iboratki, bunda pufakli gazning hosil bo'lishi, ularning zarrachalar bilan yopishishi va pufakcha-zarracha agregatlarining qalqib chiqishi tinch muhitda sodir bo'ladi, agregatlar buzilishining ehtimolligi minimal darajagacha etkaziladi hamda suyuqlikning havo bilan to'yinishiga sarflanadigan energiya kam miqdorda talab qilinadi.

Vakuumli flotatsiya jarayonining kamchiliklariga suyuqlikning gaz pufaklari bilan past va kichik bosim o'zgarishi bilan chegaralangan darajadagi to'yinishini kiritish mumkin. Bu esa uni tortilgan zarrachalarning konsentratsiyasi  $0,25-0,3 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan suspenziyalarni quyuqlashtirishda qo'llashga imkon bermaydi.

Naporli flotatsiya jarayonining negizi shundan iboratki, ishlanayotgan suspenziyada o'ta to'yangan gaz eritmasi oldindan hosil qilinadi, keyin esa u suyuqlikdan juda kichik pufakchalar ko'rinishida ajralib chiqadi.

Suspenziyaning havo bilan to'yinishi flotatorga olib boradigan so'rvuchi yoki uzatuvchi quvurlarda truboprovodlarda, nasos yordamida hosil qilinadigan yuqori bosim ostida amalgalashiriladi. Atmosfera bosimida ishlaydigan flotatsion apparatda gazning eruvchanligi kamayadi va butun hajm bo'yicha mayda dispers pufakchalar bir ma'yorda ajrala boshlab, ular hujayralar ustiga mahkamlanadi va ularni flotatsiyalaydi. Ushbu usul orqali tortilgan moddalar konsentratsiyasi  $4-5 \text{ kg/m}^3$  va undan ortiq bo'lgan suspenziyalarni ajratish mumkin. Naporli flotatsiya oddiy usullar yordamida oldindan flotatsiyalangan bijg'itishdan oldingi bosqichda qo'llaniladi.

Qurilma sxemasi 2-rasmda berilgan.



27-rasm. Naporli flotatori o'rnatish sxemasi.

Rezervuar – yig'gich (1) dan quvur (2) orqali suspenziya nasos (3) bilan tortib olinadi, hamda naporli bak (4) va bosim regulyatori (5) orqali flotatsion kameraning (6) qabul qilish bo'limiga o'tkaziladi. So'rvuchi nasosning quvurida havoning so'rilishi uchun patrubok joylashgan. Nasos orqali naporli rezervuarga tushgan havo yuqori bosim ostida suyuqlikda eriydi. Naporli bak hajmi to'yinishning kerak bo'lgan davomiyligiga (30 sek. dan 300 sek. gacha) mo'ljallanadi.

Nasos 0,15 dan 0,4 MPa va undan yuqori bo'lgan ortiqcha bosimni hosil qiladi. Bunday bosim va 0,03 dan 0,05  $\text{m}^3$  gacha havo eriydi. Ushbu miqdor bosimning keskin kamayishidan keyin eritmadan ajralgan mikropufakchalar hisobiga flotatsion kameraning qabul qilish qismida havosuvli «emulsiya» hosil bo'lishi uchun etarli hisoblanadi. Pufakchalar hujayralarga yopishib, ularni

ko‘pikli qatlamga olib chiqadi. Flotatsion kameraning yuzasida qiruvchi transporter (7) yordamida yig‘ib olingan ko‘pik olib ketuvchi lotokka haydaladi. Rangi ochlashtirilgan brajka kameraning pastki qismidan olib tashlanadi.

Agar nasos orqali o‘tayotgan havo hajmi haydalayotgan suyuqlik hajmidan 2-3% ga katta bo‘lsa, bu holat uning ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda havo suyuqlikka naporli truboprovod yoki naporli truboprovodni so‘ruvchi truboprovod bilan bog‘lovchi to‘siq ustida o‘rnatilgan havoli ejektor orqali kiritiladi.

2. Tortilgan zarrachalarni suyuqlikdan elektrolizda ajratib chiqadigan gaz pufaklari yordamida ajratib olish jarayoni elektroflotatsiya deyiladi. Boshqa flotatsiya turlariga nisbatan elektroflotatsiya uning afzalliklari bo‘lib hisoblangan quyidagi prinsipial o‘ziga xosliklar va farqlanuvchi belgilarga ega. Elektrolizda o‘ta yupqa dispergirlangan gazlar ajraladi. Agar mexanik tipdagi flotatorlarda hosil bo‘ladigan gaz pufaklarining o‘rtacha diametri 0,8-0,9 mm, pnevmatik flotatorlarda o‘rtacha 2 mm, vakuumli va naporli flotatsiyada 0,1-0,5 mm tashkil etsa, elektroflotatorlarda kattaligi 100 mkm dan kichik pufakchalar hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, elektrolizli gazlarning pufakchalar kattaligi bo‘yicha bir ma’yorda bo‘ladi va elektrodlardan ajralganidan so‘ng suyuqlikda bo‘lgan vaqt davomida doimiy diametrlarini saqlab qoladi.

Oqim zichligini o‘zgartirib, flotatsion muhitda gaz pufaklarining juda yuqori konsentratsiyasini hosil qilish, mumkin, bu esa yupqa va o‘ta yupqa zarrachalarning flotatsiyasiga yordam beradi.

Elektroliz toki parametrlarini o‘zgartirish, elektrodlar yuzasining mos bo‘lgan geometriyasini tanlash va ma’lum kattalikdagi pH hosil qilish pufakchalar dispersligini asta-sekinlik bilan, keng diapazonda o‘zgartirishga imkon beradi. Elektrodlar sifatida ma’lum qalinlikdagi simdan yasalgan setkani ishlatib, elektrolizli gazlarning belgilangan kattalikdagi pufakchalarini hosil qilishi mumkin.

Elektrolitik gazlarning pufakchalar bilan birga aralashmada ishlatilganda, ular yirikroq zarrachalarning flotatsiya jarayoni aktivatorlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Zarrachalarning yuzasida elektrolitik gazlar mayda pufakchalarining bor bo‘lishi ularga havoning yirikroq pufakchalar yopishishini osonlashtiradi.

### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Hajmiy, adgeziv, planktonlik, ozuqa muhiti, kimyoviy moddalarining qovushqoqligi, ozuqa moddalarining kislotalilik hususiyati, ozuqa moddalarining tuzlar saqlashi, flotator, elektrolitik gazlar, oqim zichligini, nasos, moddiy balans, flotatsiya jarayoni, zarrachalar, pnevmatik flotator.

### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Flotatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni sanab bering.
2. Flotatsiya jarayoni nechta bosqichda amalga oshiriladi?
3. Naporli flotatorni o‘rnatish sxemasni tushintirib bering.
4. **Mikroorganizmlarni o‘stirish.**

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. N.R.Yusupbekov, H.S.Nurmuhamedov, S.G.Zokirov Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari, Toshkent. Sharq, 2003y.
2. Aerov M.E., Toles O.M., Narinskiy D.A. Apparati so statsionarnim zernistim sloem. L.: Ximiya, 1979. -176 s.
3. Navashin S.M., Sazikin Yu.O. Perspektivi sovremennoy biotexnologii v oblasti antibiotikov.

**11-MA'RUZA**  
**CHANG TUTUVCHI APPARATLAR**  
**Reja:**

1. Umumiy tushunchalar. Changning dispersion tarkibi va chang tutishning samaradorligi.
2. Siklonlar.
3. Venturi skrubberlari.

Mikrobiologik ishlab chiqarishda chang-gaz oqimlarining hosil bo‘lishi asosan biologik suspenziyalarning changlatuvchi quritilishidan keyin sodir bo‘ladi. Chang va gazni tutish uchun mos bo‘lgan usul va apparaturaning tanlanilishi tutiladigan zarrachalar kattaligiga bog‘liq.

Deyarli har qanday texnologik jarayonida hosil bo‘ladigan chang polidispers materialdan iborat. Undagi zarrachalar kattaligining taqsimlanishi chang tortilmasini teshiklari har xil kattalikda bo‘lgan elaklardan o‘tkazilishi natijasida olinadigan donali ko‘rsatkich orqali baolanadi. Zarrachalarining o‘lchamlari  $d_{min}$  va  $d_{max}$  chegarada bo‘lgan donador material teshiklarining o‘lchami  $d$  ( $d_{min} < d < d_{max}$ ) bo‘lgan elakdan o‘tkazilganda, butun tortilma ikki qismga ajraladi: elakdagi qoldiq va o‘tib ketgan qismi.

Qoldiq massasining tortilma umumiy massasiga bo‘lgan nisbati butun qoldiq  $R_d$  deb ataladi, elakdan o‘tgan qism massasining tortilma massasiga nisbati esa o‘tish  $D_d$  deyiladi:

$$R_d + D_d = 1$$

Tortilmaning elaklardan o‘tishi natijasida olinadigan zarrachalar massasining taqsimlanish funksiyasi  $R_d = f(dr)$  butun qoldiqlarning donali ko‘rsatkichi deb ataladi. Matematik shaklda u ko‘pincha Rozin-Rammler bog‘liqligi orqali ifodalanadi:  $R_d = \exp(-bd_r^n)$ , undagi b va n koeffitsientlarini tanlab olib,  $R_d = f(dr)$  egri chizig‘ining deyarli har qanday ko‘rinishini tavsiflash mumkin.

Berilgan  $d_r$  o‘lchamdagisi donador materialning massa ulushini ko‘rsatuvchi materialning fraksion xarakteristikasi sifatida zarrachalar massasining o‘lchamlariga ko‘ra taqsimlanish zichligi funksiyasidan foydalaniladi:

$$f_{_d} = \partial R_d / \partial R_r .$$

Har qanday chang tutuvchi qurilma ishlash prinsipi bo‘yicha separatordan iborat bo‘lib, unga kelib tushayotgan changni ikki sinfga ajratadi: tutib qolinuvchi (zarrachalarining o‘lchami biror  $d_r$  dan katta) va undan o‘tuvchi (zarrachalarining o‘lchami  $d_r$  dan kichik). Bu holda tutib qolningan va kelib tushgan chang massalarining nisbati bilan baolanadigan chang tutgich samaradorligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\eta_{_d} = R_d .$$

Haqiqatda esa  $d_r$  o‘lchamdagisi zarrachalar tutib qolningan changda ham, separatordan o‘tib ketgan changda ham bo‘lishi mumkin. Sru sababli uning ishi tajriba asosida aniqlanadigan kattalik bilan baholanadi:

$$\eta = q_{mT} / q_{mH} = 1 - q_{mk} / q_{mK} ,$$

bunda:  $q_{mT}$ ,  $q_{mH}$   $q_{mk}$  – mos ravishda chang tutgichda tutib qolningan, unga kelib tushgan va chiqib ketgan changning massa sarfi,

$$q_{mH} = q_r x_H ; \quad q_{mR} = q_r x_K ,$$


bunda,

$q_g$  – changlangan gazning hajmiy sarfi;


$x_n$ ,  $x_k$  – mos ravishda chang tutgichning kirish va chiqish qismida changning gazdagligi konsentratsiyasi.

2. Chang tutgich xillari orasida eng keng tarqalgalari – siklonlardir.

SN-11, SN-15, SN-24 siklonlar (1-rasm) (Sokolov. 241 b, 7.2) korpusning uzaygan silindrik qismiga hamda mos ravishda 11, 15, 24° gacha teng qopqoq va kirish patrubok orasidagi egilish burchagiga- $\alpha$  egilish burchagini ortishi bilan gaz oqimining aylanishi kamayadi, ya’ni gazning apparat silindrik qismidan o’tishida o’ramlar soni kamayadi. Bu uning umumiyligini pasaytiradi, lekin shu bilan birga siklonning samaradorligini ham pasaytiradi, negaki unda gazning bor bo’lish vaqtini qisqaradi.



28-rasm. SN tipdagi siklon.




29-rasm. SK – SN tipdagi siklon.

SKD-SN-33 va SK-SN-34 siklonlari (2-rasm) apparat umumiyligining 79 va 67% ni tashkil qiluvchi uzaygan konussimon qismiga ega. Ularning tuzilishidagi o’ziga xos tomonlari bo’lib spiralsimon kirish patruboki va chiqish (vixlopnaya) quvurining kichraytirilgan diametri hisoblanadi.

Siklonlarning diametriga bog’liq holda ularda 10-20 mkm o’lchamdagini zarrachalar separatsiya qilinishi mumkin. SHuning uchun biotexnologik uskunalarda ular chang tutishning birinchi pog’onasi sifatida qo’llaniladi.

CHang tutish samaradorligini oshirish maqsadida gaz tozalashning birinchi pog’onasi har birida 6 tadan bo’lgan ikki guruh siklonlardan yig’iladi.

3. Venturi skrubberlari changlangan gazning yuqori sarfiga ega uskunalarda chang tutishning ikkinchi pog’onasi sifatida qo’llaniladi. Skrubber ikkita asosiy element-Venturi quvuri va siklon tomchitutgichdan yig’iladi.



30-rasm. Venturi skrubberi.

3-rasmida chang tutgich sxemasi berilgan. Ushbu agregat Venturi quvuri (2) va ikkita parallel ishlaydigan to‘g‘ri oqimli siklon-tomchitutgichlardan (3) iborat. CHanglangan gaz yuqoridan Venturi quvuriga tushadi, quvurning konfuzor qismiga esa changlantiruvchi mexanik forsunka (1) orqali suv kiritiladi. Gaz tezligi 100 m/sek. dan oshishi mumkin bo‘lgan quvur bo‘yin qismi hamda diffuzor qismida suyuqlik tomchilarining maydalanishi sodir bo‘lib, ularning sirtiga chang zarrachalari o‘tirib qoladi. Yirik tomchilar pastki shtutserdan Venturi quvurlariga chiqarib yuboriladi, maydalari esa gaz oqimi bilan siklonga (3) tushadi. Suv bilan chang zarrachalari siklonning pastki shtutseri (5) orqali, tozalangan gaz esa yuqorigi chig‘anoqsimon gazootvod (4) orqali chiqariladi.

Venturi quvuri (2) va siklonlardan (3) chiqadigan ifloslangan suv yig‘uvchi yig‘iladi va undan nasos orqali forsunkaga (1) uzatiladi. Bunday sirkulyasjion sistema chang tutilishining maksimal darajasini ta‘minlovchi suv sarfini tanlab olishga imkoniyat beradi. Yig‘uvchiga uzlusiz ravishda toza suv uzatilib turadi va xuddi shunday miqdorda ifloslangan suv chiqarib yuboriladi. Suv sarfi asosan chang tutgich ishining issiqlik balansi orqali aniqlanadi va chiqarilayotgan suvning temperaturasi 40-45°S dan oshmaslik sharti bilan hisoblab chiqiladi. Forsunkaning ishonchli ishini kafolatlovchi aylanib chiqqan suvdagi chang miqdori 0,5 kg/m<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak. CHangning ushbu konsentratsiyasi yig‘uvchiga uzatiladigan toza suvning sarfini belgilaydigan ikkinchi shartdir.

Gidrodinamik ko‘rsatkichlariga ko‘ra Venturi quvurlari yuqori naporli (gidravlik qarshilik 20-30 kPa gacha) va past naporli ( $\Delta r < 3 \div 5$  kPa) larga bo‘linadi. Mikrobiologik ishlab chiqarishning chang tutuvchi sanoat uskunalarida, odatda bo‘yin qismidagi gazning 100 m/sek. gacha bo‘lgan tezligida ishlaydigan past naporli quvurlar ishlatiladi.

Suyuqlikning Venturi quvurida changlantirganda turbulizatsiyalangan gaz-suyuqlik aralashmasi hosil bo‘lib, uning tomchilari asosan 1 mm dan kichik o‘lchamlarga ega bo‘ladi. Quvurlarga kiritiladigan gaz oqimining energiyasi gazning devorlarga ishqalanishini engib o‘tishga hamda tomchilarni ko‘chirishga sarflanadi:

$$\Delta P = \Delta P_e + \Delta P_{\omega},$$

bunda,

$\Delta R_2$  – «quruq» quvurda gaz bosimining yo‘qotishlari;

$\Delta R_j$  – tomchilarni razgoniga sarflanadigan gaz oqimi bosimining yo‘qotishlari.

«Quruq» quvurdagi bosim yo‘qotishlari mahalliy qarshilikni engib o‘tishdagi kabi ko‘rib chiqiladi, ya’ni

$$\Delta \rho = \xi \rho \omega^2 / 2,$$

bunda,

$\xi$  - qarshilikning yig‘indi koeffitsienti;

$\omega$  - bo‘yin qismidagi gaz tezligi.

Optimal aerodinamikaga ega quvurlar uchun  $\xi = 0,12-0,15$ .

Ma’lum bir boshlang‘ich tezlik bilan quvurga kiritiladigan suyuqlik forsunkadan oqib o‘tib, diffuzordan chiqishda tezlashadi va oxirgi  $\omega_K$  tezlikka ega bo‘ladi.

Suyuqlikning boshlang‘ich tezligini inobatga olmasdan, uning tezlanishga kinetik energiya  $N = q_{mc} \omega_K^2 / 2$  sarflanadi deb hisoblansa, unda gaz bosimi yo‘qotishlarining ikkinchi tashkil qiluvchisi quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta P_{\omega} = \frac{N}{q_e} = \frac{q_{mc} \omega_K^2}{2 q_e} = \frac{\rho \omega_K^2}{2} \cdot q \frac{q_{mc}}{q_e},$$

bunda,

$q_{mc}$ ,  $q_e$  - suyuqlik va gazning massa sarflari.

### O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :

Qarshilik , boshlang‘ich tezlik, chang tutgich, «quruq» quvur, diffuzor, koeffitsent, Venturi quvuri, gidrodinamik ko‘rsatkich, diametr, optimal aerodinamika, siklon tomchitutgich, tezlik, konfuzor,zarracha, o‘lcham, gaz oqimi, quvur, turboizolyasiya, Venturi skrubberlar, SN tipdagi siklon.

### Mavzuni yoritish savollari :

1. Siklon nima?
2. CHang tutuvchi qurilma ishslash prinsipini tushintirib bering.
3. Gidrodinamik ko‘rsatkichlariga ko‘ra Venturi quvurlari qanday guruhlarga bo‘linadi?
4. Venturi skrubberlarining vazifasi nimalardan iborat?

### Foydalilanigan adabiyotlar :

1. Aerov M.E., Toles O.M., Narinskiy D.A. Apparati so statsionarnim zernistim sloem. L.: Ximiya, 1979. -176 s.
2. Navashin S.M., Sazikin Yu.O. Perspektivi sovremennoy biotexnologii v oblasti antibiotikov.

## 12-MA’RUZA

### XOMASHYONI JARAYONGA TAYYORLASH HAMDA UNI UZATISH USKUNALARI

Reja:

- 1.Maydalash qurilmalari
- 2.Saralash qurilmalari
- 3.Ko‘taruvchi-transport asbob-uskunalari
- 4.Nasoslar.

Maydalash deganda, qattiq jismlarning zarba berish, bosish, ishqlash, yorish, kesish va boshqa harakatlar ta’sirida maydarol jismlarga aylantirish jarayoni tushuniladi. Bo‘laklarning maydalashdan oldingi va keyingi katta-kichikligiga qarab maydalashni quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1-jadval

Maydalash sinfi	Bo‘laklar kattaligi, mm	
	Maydalashdan oldin, $d_H$	Maydalashdan keyin, $d_k$
Yirik	1000 - 200	250 - 40
O‘rta	250 - 25	40 - 10
Mayda	50 - 25	10 - 1
Ingichka	25 - 3	1 – 0,4
kolloidli	0,2 – 0,1	0,001

Maydalashdan oldingi va keyingi bo‘laklar kattaliklarining nisbati maydalash darajasi deyiladi.

$$i = \frac{d_H}{d_K}$$

Maydalash usuliga ko‘ra mashinalar kesuvchi, parchalovchi sindiruvchi, bosuvchi, ishqalovchi-bosuvchi, zarba beruvchi, zarba beruvchi-ishqalovchi va kolloidli maydalovchi turlarga bo‘linadi.

### Kesuvchi maydalagichlar.

Kesuvchi maydalagichlarga diskli va barabanli Yoruvchi mashinalar kirdi. Bu mashinalar yordamida em achitqilari va etil spiriti ishlab chiqarishlarida uglevodorodli oziqa muhitlarini tayyorlash uchun payraxani keyinchalik qo'llash maqsadida yog'och maydalanadi.

Diskli Yoruvchi mashinalar ignabargli va yashil bargli daraxtlarning to'sinlarini, yog'och tayyorlashdan qolgan chiqindilarni payraxagacha maydalash uchun mo'ljallangan. Yoruvchi mashinalarning ishchi a'zosi bo'lib 3-16 ta pichoq o'rnatilgan diametri 1 dan 3 gacha bo'lgan yirik disk hisoblanadi. Yoruvchi mashinalarning ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = 2826 K_3 d^2 \ln z$$

bunda,

$K_3$  – doimiy koeffitsient,

$K_3$  – mashina patroniga to'sinlarning bir ma'yorda berilishini inobatga oluvchi  $0,2 \div 0,7$  ga teng yuklash koeffitsienti,

$d$  – maydalanuvchi to'sinlarning o'rtacha diametri, m,

$l$  – kesilayotgan payraxaning uzunligi, m,

$n$  – mashina diskining aylanish chastotasi, sek<sup>-1</sup>,


$z$  – diskdagagi pichoqlar soni.

### Zarba bilan ishlaydigan maydalagichlar.

Ularga bolg'ali maydalagichlar, shaxtali, markazga yuguruvchi, barabanli va oqimli tegirmonlarkiradi. Ushbu maydalagichlar fermentli preparatlar, em antibiotiklari va boshqalarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Bolg'ali maydalagichlar zamburug' kulturalari, antibiotik preparatlarining granulalari va boshqalarni maydalash uchun qo'llaniladi. Bu mashinalar boshqa maydalagichlarga nisbatan konstruksiyasiga ko'ra soddaroq, mahsulotni kam qizitadi, yirik va kichik maydalashda tejamli hisoblanadi.

1-rasmda rotoring bir tomonlama aylanishiga ega bolg'ali drobilka keltirilgan.



31-rasm. BM turdag'i bolg'ali maydalagich

1 – korpus; 2 – podshipniklar; 3 – ta'minlovchi elektrodvigatel; 4 – ta'minlovchi; 5 – magnitli separator; 6 – bolg'a; 7 – sterjen; 8 – disklar; 9 – val; 10 – mufta; 11 – elektrodvigatel; 12 – elak; 13 – rama.

Bolg'ali maydalagichlarning asosiy tugunlariga bolg'alari bo'lgan rotor, stator va metall elaklar kiradi. Maydalanishi kerak bo'lgan material ta'minlovchi orqali etib keladi va rotor

aylanganida radial holatda joylashadigan bolg‘alarning zarbasi ostiga tushadi. Zarba paytida material buziladi, zarrachalar esa himoya qavatiga ega plitaga urilib, undan itariladi va qaytadan bolg‘alar ostiga tushadi. Maydalangan material elak teshiklaridan o‘tib ketadi, yirik bo‘laklar esa elak ustida ushlanib qoladi va qaytadan maydalanish sohasiga yuboriladi. Elaklarni almashtirish orqali materialning kerakli maydalanish darajasi olinadi.

Yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulot turlarini olishda saralash jarayonlari katta ahamiyatga ega. Masalan, yog‘ochni diskli va barabanli Yoruvchi mashinalarda maydalaganda kerakli granulometrik tarkibli payraxani deyarli olib bo‘lmaydi. Maydalangan aralashmada 4% gacha yog‘ochning yirik bo‘laklari bo‘lib, ular transportirovkani, dozalashni hamda gidroliz apparatlarga xomashyoni joylashtirishni qiyinlashtiradi. Yirik bo‘laklar joylashtirilayotgan aralashmaning zichligini va qayta ishlangan xomashyo birligidan shakarning chiqish qiymatini pasaytiradi. Uzluksiz ishlaydigan gidroliz apparatlarining qo‘llanilishi xomashyoning fraksion tarkibini qat’iy sur’atda reglamentlashtiradi.

Sochiluvchan aralashmalarni mexanik usul bilan ajratishga mo‘ljallangan mashinalar ikki guruhga bo‘linadi: **yassi** va **barabanli**.

**Yassi** saralash mashinalari (groxotlar)da elaklar privodli mexanizm yordamida qaytar ilgarilama va aylanma vibratsion harakatlarni amalga oshiradi.

**Barabanli** yoki primali mexanizmlar o‘q atrofida aylanma harakat qiladi. Ikala holda hamishlanayotgan aralashma elak (yirik elak) yuzasi bo‘ylab harakatlanadi va elanadi.

Mikrobiologik ishlab chiqarishlarda ko‘taruvchi – transport uskunalar tarali, donali, sepiluvchi, ag‘daruvchi va suyuq turlarga bo‘linadi. Transport vositalarining tanlovi va hisob-kitobida sochiluvchan yuklarning sepilish zichligi, tinch holatda va harakatda yukning tabiiy egilish burchagi, lenta bo‘ylab yukning ishqalanish (sirpanish) koeffitsienti, granulometrik tarkibi, gigroskopiklik, namlik, aggressivlik va boshqa fizik-mexanik xususiyatlarini inobatga olish kerak.


Transport-ko‘taruvchi mashinalar lentali, skrebokli, vintli konveyer ko‘rinishda bo‘ladi.

**Lentali konveyerlar** donali va sepiluvchi yukni ko‘chirishga mo‘ljallangan. Konveyerning etilish burchagi 5 dan 25°C gacha o‘zgarib turadi.

**Skrebokli konveyerlar** sochiluvchan yuklarni gorizontal va gorizontga nisbatan 45° gacha bo‘lgan burchak ostida etilgan yo‘nalishlarda, hamda 100 m gacha bo‘lgan masofada ko‘chirishga mo‘ljallangan.

**Noriyalar (elevatorlar)** sochiluvchan yuklarni vertikal yo‘nalishda 60 m gacha bo‘lgan balandlikka ko‘chirishga mo‘ljallangan. Cho‘michlar noriyaning ishchi a’zosi bo‘lib, ular lenta yoki zanjirga mahkamlab qo‘yilgan bo‘ladi. Lentaning harakatlanish tezligi 1,2 – 3,6 m/sek. ga, ishlab chiqarish quvvati 5 dan 500 t/s ga teng.

**Vintli konveyerlar** sochiluvchan yuklarni gorizontal va 20° gacha egilgan holatlarda 40 m gacha bo‘lgan masofada ko‘chirishga mo‘ljallangan. Ishchi a’zosi bo‘lib vint hisoblanadi (2-rasm).



32-rasm. Vintli konveyer

1 – lyuk; 2 – podvesok; 3 – jelob; 4 – uchdagagi podshipniklar; 5 – chuvalchangsimon reduktor;  
6 – lyuk; 7 – valning vintli yuzasi; 8 – val.

Sochiluvchan material lyuk 1 orqali jelob 3 ga beriladi. Vint aylanganida material jelob bo‘ylab harakatlanadi va lyuk 6 orqali qabul qiluvchi idishga sepilib tushadi. Vint  $0,5 \div 2$  sek.<sup>-1</sup> chastota bilan aylanadi.

**Pnevmatik transport** qipiqlar, payraxa, qishloq xo‘jaligi chiqindilari, kepak, tayyor mahsulot va hokazolarni transportirovka qilishda qo‘llaniladi. Pnevmotransportning mexanik konveyerlarga nisbatan afzalligi shundan iboratki, sochiluvchan materialni istalgan nuqtada saralab olish va kerakli yo‘nalishda katta masofalarga ko‘chirish mumkin.

Turli xil zichlikka, qovushqoqlikka, agressivlikka ega suyuq muhitlarni ko‘chirish uchun nasoslar ishlataladi.

Konstruktiv belgilari va ishlash prinsipa ko‘ra nasoslar kurakli, hajmli, pnevmatik va oqimli bo‘ladi.


Mikrobiologik korxonalarda kurakli va hajmli nasoslar ko‘proq, oqimli va pnevmatik nasoslar esa kamroq darajada tarqalgan.

**Kurakli nasoslarga** markazga intiluvchi, o‘qli, diagonal nasoslar kirib, ularning ishlash prinsipi kuraklarga ega ishchi g‘ildirakning aylanishida yuzaga keladigan markazga intiluvchi kuch ta’siri ostida suyuqlikning ko‘chirilishiga asoslangan.

K tipdagi markazga intiluvchi konsol nasoslar (GOST 22247-7) va D tipdagi suyuqlikning ikki tomonlama kirishi bo‘lgan nasoslar (GOST 10272-77) mikrobiologik ishlab chiqarishlarda suvni hamda zichligi, qovushqoqligi va kimyoviy aktivligi bo‘yicha suvga o‘xshash boshqa suyuqliklarni uzatish uchun keng qo‘llaniladi.

**Hajmli nasoslarga** porshenli, shesternyali va diafragmali nasoslar kiradi.

**Shesternyali nasoslar** qovushqoqligi  $2 \cdot 10^{-7} \div 2 \cdot 10^{-4}$  m<sup>2</sup>/s va harorati 250°C gacha bo‘lgan suyuqliklarni 144 m<sup>3</sup>/s gacha uzatish va 250 m gacha napor bilan olib o‘tishga mo‘ljallangan (4-rasm).




33-rasm. Shesternkali nasos  
1 – korpus; 2 va 3 – tishchali g‘ildiraklar.

Boshqaruvchi shesternya 3 ning aylanishida boshqarilayotgan shesternya 2 tishchalarning ilinishi tufayli aylanadi. Shesternyalarning o‘ymalarida joylashgan suyuqlik harakatlanib, korpus 1 dan patrubokka etib keladi. Bu nasoslar sintetik va tabiiy ko‘pikli o‘chiruvchilar, dizel yoqilg‘i, mazut, mikroorganizmlarning qovushqoq suspenziyalarini uzatishga mo‘ljallangan.

Vertikal va gorizontal ND tipdagi **plunjjerli nasoslar** konsentrangan sulfat kislotani o‘simglik xomashyosining gidroliziga va turli xil suyuqliklarni dozalashga uzatish uchun ishlataladi.

Suyuqliklarni siqilgan gaz yordamida transportirovka qilishda **montejyu** ishlataladi (5-rasm).



**34-rasm. Monteju**

- 1 – korpus;
- 2,3,7 – kranlar;
- 4 – manometr;
- 5 – kran-vozdushnik;
- 6 – mahsulot uchun truboprovod;
- 8 – lyuk-laz;
- 9 – ichki quvur.

Ular  $0,1 \div 0,4$  MPa bosimga bardosh beradigan idishlardan iborat. Suyuqlikni montejyudan quyib olinayotganda mahsulot quvurdagi ventil 7 va siqilgan gaz chizig‘idagi ventil 3 ochiladi. Ventil 2 va 5 lar yopiq holda bo‘lganda montejyuda bosim ko‘tariladi va suyuqlik truboprovod 9 bo‘ylab boshqa idishga borib quyiladi. Monteju to‘lgandan keyin ventil 2 suyuqlikning etib kelishi uchun, ventil 5 esa siqib chiqariluvchi gazni chiqarib yuborishi uchun ochiladi. Mikrobiologik sanoatda suyuqliklarni siqilgan havo yordamida ko‘chirish prinsipi keng qo‘llaniladi, jumladan, idishlardan steril oziqa muhitlarini va inokulyatorlardan toza kulturalarni ishlab chiqaruvchi steril fermentyorlarga ko‘chirishda qo‘llaniladi. Bu holda oziqa muhiti uchun idishlar va inokulyatorlar qo‘sishma ravishda aralashtirgichlar, shtutserlar, bug‘ va suv rubashkalari hamda boshqa tuzilmalar bilan ta’minlangan montejyudan iborat bo‘ladi.

#### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Maydalagichlar, maydalash sinflari, shtutser, bug‘, nasoslar, ventel, montejyu, plunjер, lyuk, kranlar, xajmli, kurakli nasoslar, transportyor, noriyalar, lentali konveyer, kovshli konveyer, transport vositalari.

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Maydalash mashinalarining turlari xaqida gapirib bering. .
2. Konstruktiv belgilari va ishslash prinsipa ko‘ra nasoslar necha turga bo‘linadi ?
3. Sochiluvchan aralashmalarni mexanik usul bilan ajratishga mo‘ljallangan mashinalar necha guruhga bo‘linadi ?
4. Kesuvchi maydalagichlarga qanday turdagи maydalagichlar kiradi?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. N.R.Yusupbekov, H.S.Nurmuhamedov, S.G.Zokirov Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari, Toshkent. Sharq, 2003y.

## **13-MA’RUZA** **GIDROLIZATORLAR VA INVENTORLAR**

#### **Reja:**

- 1.Gidrolizapparatlar va invertorlar.
- 2.Kislotalarni neytrallash, oziqa muhitlarining komponentlarini qurilmalar. eritish va aralashtirish uchun
- 3.Tindirgichlar, gidrotsiklonlar va filtrlar.

Oziqa muhitlarining tayyorlanishi mikrobiologik sintez ishlab chiqarishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Oziqa muhitlari komponentlarining fizik-kimyoviy xossalariqa qarab ular suvda belgilangan harorat va pH da ma’lum nisbatlarda eritiladi yoki suspenziyalanadi.

Texnologiya talablariga qarab oziqa muhitlarini tayyorlash jarayonida ular boyitiladi, bu neytrallash, tindirish, filtrlash, sovutish, mikroorganizmlar hayot faoliyatini ingibirlovchi komponentlarni olib tashlash, muhitlarni biologik aktiv moddalar bilan boyitish va boshqa bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun turli xil uskunalar ishlatiladi: gidrolizapparatlar, neytralizatorlar, aralashtirgichlarga ega qurilmalar, sterilizatorlar, tindirgichlar, filtrlar, issisqlik almashtirgichlar va boshqalar.

#### **Gidrolizapparatlar va invertorlar.**


Em achitqilari va etil spirtini ishlab chiqarishda uglevodlar manbai bo‘lib yog‘och chiqindilari, kungaboqar po‘stlog‘i, g‘o‘za po‘sti, makkajo‘xori so‘tasi, torf va boshqalar hisoblanadi. Boshlang‘ich xomashyoda uglevodlar achitqilarning oziqlanishi uchun yaroqsiz bo‘lgan birikmalar, ya’ni polisaxaridlar ko‘rinishda bo‘ladi. Sanoatda polisaxaridlarning monosaxaridlargacha gidrolizi asosan suyultirilgan sulfat kislota bilan 190°S bo‘lgan haroratda gidrolizapparatlarda amalga oshiriladi.

Gidroliz jarayonida monosaxaridlar bilan bir qatorda dekstrinlar-polisaxaridlarning qisman gidroliz mahsulotlari hosil bo‘ladi. Dekstrinlarning monosaxaridlargacha gidrolizi (inversiyasi) invertorlarda 140 °C haroratda amalga oshiriladi.

Oziqa muhitlarida metionin, trionin va boshqa ayrim aminokislotalar bor bo‘lganida auksitotrof mutantlar tomonidan lizin aminokislotasining biosintezi amalga oshiriladi. Ushbu aminokislotalarni olishning sanoat usullaridan biri bo‘lib em achitqilari va boshqa oqsil konsentratlarning kislotali yoki fermentativ gidrolizi hisoblanadi. Kislotali gidroliz gidrolizapparatlarda 120°C gacha bo‘lgan haroratda sulfat yoki xlorid kislotalari kabi katalizatorlar ishtirokida amalga oshiriladi. Oqsillarning fermentativ gidrolizi 40 °C gacha bo‘lgan haroratda pH = 5 ÷ 7 da o‘tadi. Katalizatorlar sifatida proteolitik fermentlar ishlatiladi.

Gidrolizli ishlab chiqarishda 18, 30, 37, 50 va 80 m<sup>3</sup> sig‘imga ega gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar asosan geometrik o‘lchami, kislotani gidrolizga uzatish usullari hamda gidrolizatni tanlab olish bilan o‘zaro farqlanadi. Korroziyaning oldini olish maqsadida apparatning ichki yuzasi beton qavati (70-90 mm) bilan futerlanadi, keyin esa termokislotaga chidamli materiallar – keramik, ko‘mir yoki grafit plitkalar, yong‘inga bardoshli shamot g‘isht bilan ishlov beriladi. Po‘lat korpusning yuqorigi va pastki bo‘yin qismlari korroziyadan bronza, yuqori po‘lat qopqoq bronza, mis yoki latun vkladishlar bilan himoya qilinadi. Apparatning agressiv muhit bilan aloqada bo‘ladigan barcha shtutserlari bronzadan quylidi va futerovka ishlaridan oldin o‘rnataladi.

Kislota, suvni uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlarning gidrolizapparat ichidagi joylashuvi suyuqlik oqimlari orqali belgilanadi. Kislotani uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlar ma’lum tarzda joylashtirib, gorizontal, vertikal yoki aralash suyuqlik oqimlari hosil qilinadi. SHu tariqa, gidrolizapparatlarning turli hajmlarida gidroliz jarayoni kechishining eng yaxshi sharoitlariga erishiladi.



**35-rasm. Gidrolizapparat**

1-po'lat korpus; 2 – betonli qavat; 3 – futerovka; 4 – uzaytirilgan filtrovchi quvurlar; 5 – qisqa filtrovchi quvurlar; 6 – gidrolizatni tanlab olish va bug'ni uzatish uchun shtutser; 7-klapan; 8 – og'irlik o'lchagich; 9 – suvni uzatish uchun shtutser; 10 – kislotani uzatish uchun shtutser; 11 – qopqoq; 12 – sduvka uchun shtutser.

Gidrolizapparatning ishslash prinsipi quyidagidan iborat. O'simlik xomashyosi transportyor yordamida yuqorigi bo'yin qismi orqali apparatga uzatiladi. Xomashyoni zichlash va namlash uchun bir vaqtning o'zida suv va kislota ham uzatiladi. Yuklashdan keyin apparatning yuqorigi qopqog'i yopiladi, va pastki shtutser orqali o'tkir bug' uzatiladi. Xomashyoni isitish hamda taxminan  $140^{\circ}\text{C}$  haroratda qisqa vaqt ushlab turish jarayonida oson gidrolizlanadigan polisaxaridlarning gidrolizi amalga oshadi. Bundan keyin apparatga kislota uzatiladi va bir vaqtning o'zida tarkibida erigan uglevodorodlarni tutgan gidrolizat tanlab olinadi. Jarayon oxiriga kelib harorat  $190^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi. Gidroliz oxiriga etganida kislotaning uzatilishi to'xtatiladi, gidrolizatning qoldig'i suv bilan chiqarib yuboriladi, suyuqlik qoldig'i siqib tashlanadi va apparatdan lignin yuklab olinadi. Yuklab olishda pastki tez ishlaydigan klapan ochiladi va  $0,5\div0,7$  MPa bosim ostida lignin quvur bo'ylab bir necha sekund ichida apparatdan siklonga tushadi.


Ko'rib chiqilgan va shunga o'xshash apparatlarda 30% gacha hajmni futerovka egallab, bu yaqqol kamchilik bo'lib hisoblanadi. Futerovkasiz, titan qotishmalaridan yasalgan apparatlar bu borada mukammalroq hisoblanadi. Davriy ravishda ishlaydigan gidrolizapparatlar quyidagi kamchilikka ega: gidroliz jarayonida xomashyo tez zichlashadi va shu sababli reaksiyon hajmning yarmi ishlatilmay qoladi.

Uzluksiz ishlaydigan gidrolizapparatda sig'im maksimal darajada ishlatiladi. Buning hisobiga, hamda yuklatishga, xomashyoni isitishga va qoldiqni olib tashlashga ketadigan vaqtning tejalishi sababli apparatlarning ishlab chiqarish quvvati deyarli ikki baravar oshadi. Jarayonning uzluksizligi fizik-kimyoviy parametrлarning doimiyligini, bug', xomashyo iste'molining bir me'yorda bo'lishini, yordamchi uskunalarga tushadigan yuklanishning bir tekisda bo'lishni hamda shakarlar chiqimining oshishini ta'minlaydi.

Issiqlik yo'qolishini kamaytirish maqsadida gidrolizapparat yuzasi issiqlik-izolyasiyalovchi material bilan qoplanadi. Apparatning o'rta silindrik qismiga lapalar biriktirilgan bo'lib, ulardan biri datchikka ega og'irlik o'lchagichga, boshqasi og'irlik o'lchagichning barqaror ishlashini ta'minlovchi sharnir asoslarga suyanadi.

**Invertorlar** – bu asosiy vazifasi gidrolizatlar yoki sulfit sheloklarda dekstrning uzluksiz gidrolizini ta'minlashdan iborat bo'lgan qurilmalar.

Inversiya jarayonida monosaxaridlarning miqdori 5-10% ga oshadi va achitqilar rivojlanishini ingibirlovchi bir qator komponentlarning konsentratsiyasi kamayadi. Atmosfera bosimida hajmi 500, 750 va 1000 m<sup>3</sup> bo‘lgan invertorlar ishlatiladi. Invertor konussimon tubi va xizmat ko‘rsatish maydoniga ega qopqog‘i bo‘lgan vertikal silindrsimon rezervuardan iborat (2-rasm). Ichidan invertor beton yoki poliizobrutilenga kislotaga chidamli plitkalar yoki g‘isht bilan futerlanadi. Tashqi tomonidan u issiqlik izolyasiya bilan qoplanadi.



36-rasm. 500 m<sup>3</sup> hajmli invertor

1 – temirbetonli poddon; 2 – taqsimlagich; 3 – monometrik termometr uchun cho‘ntak; 4 – aralashtirish kondensatori; 5 – xizmat ko‘rsatish maydoni; 6 – futerovka; 7 – korpus; 8 – uzukli kollektor; 9 – silindrsimon ustun.

Gidrolizat apparatning pastki silindrik qismiga uchida tarqatuvchi bo‘lgan gorizontal quvur orqali uzlusiz ravishda kiritiladi. Silindrik qismning yuqorigi sathidan pastroqda joylashgan kollektor orqali gidrolizatning saralab olinishi amalga oshiriladi. Gidrolizat invertorda 6-8 soat davomida turadi. Ko‘rib chiqilgan invertorlarning haddan tashqari kattaligi, inversyaning davomiyligi va konussimon qismda yig‘ilib qoladigan Cho’kmani chiqarib tashlash uchun invertorni davriy ravishda to‘xtatib turish zaruriyati ularning muhim kamchiligi bo‘lib hisoblanadi.

#### Neytralizatorlar

Kislotalarni neytrallash, oziqa muhitni komponentlarini eritish va aralashtirish uchun mexanik yoki pnevmatik aralashtiruvchi tuzilmalarga ega vertikal apparatlardan iborat neytralizatorlardan foydalaniladi. Apparatlar komponentlarni yuklash va tayyor muhitni chiqarib olish uchun shtutserlarga, ko‘zdan kechirish, tozalash va remont uchun lyuk-lazlarga, nazorat-o‘lchov asboblariga hamda effektiv va xavfsiz ekspluatatsiya uchun kerakli boshqa tuzilmalarga ega. Texnologiya sharoitlariga qarab apparatlar muhitlarni isitish yoki sovutish uchun mo‘ljallangan idish ichida rubashkalar yoki issiqlikalmashirgichlarga ega bo‘lishi mumkin. Apparatlar oziqa muhitlarining komponentlariga nisbatan korroziyaga chidamli bo‘lishi kerak. Apparatlarning uzoq vaqt xizmat qilishi va ishining ishonchligi ushbu omillarga bog‘liqidir.


**Neytralizator** – ushlab turgichlar, shuningdek, gips kristallarini o‘stirish uchun mo‘ljallangan. Neytrallovchi agent va gidrolizatni uzatish bilan bir vaqtda neytralizatorga azot, fosfor va kaliy manbalarini ularni eritish maqsadida kiritish mumkin.

Mikrobiologik sanoatning achitqi va o‘simlik xomashyosidan etil spirtini ishlab chiqaruvchi barcha zavodlarida uzlusiz ravishda ishlaydigan neytralizatorlar qo‘llaniladi.

Uzlusiz ravishda ishlaydigan neytralizator konussimon tubi hamda kislotaga chidamli po‘latdan yasalgan va yog‘och to‘shagich bilan qoplanlangan yassi qopqog‘i bo‘lgan po‘latli vertikal

korpusdan tashkil topgan. Apparat silindrik va konussimon qismlarining ichki yuzasi korroziyadan betonli ostqavat ustidan kislotaga chidamli plitkalar bilan himoyalangan.

Apparatning tashqi qismi issiqlik izolyasiyasi bilan qoplanib, bu ichki yuza qismida mumsimon moddalarning o'tirib qolishiga to'sqinlik qiladi. apparat qopqog'ida gidrolizat bilan ammiakning suvdagi eritmasi yoki kalsiy gidroksid suspenziyasi aralashishi uchun mo'ljallangan kislotaga chidamli po'latdan yasalgan burchakdagi smesitel, oziqa tuzlarini uzatish uchun shtutser hamda apparatdan gazlarni chiqarish uchun shtutser o'rnatiladi. Apparatning pastki konussimon qismida neytralizatorni chiqarish uchun shtutser joylashgan. YOn tomondagi neytralizatorning ketma-ket birikishida neytralizatni kiritish uchun xizmat qiladi. Qopqoq va pastki silindrik qismda remont, apparatni tozalash va ko'rikdan o'tkazish uchun mo'ljallangan lyuk-lazlar bo'ladi. Bu borada «Gazlift» tipdagagi aralashtiruvchi tuzilmaga ega neytralizatorlar mukammalroq hisoblanadi (2-rasm).



36-rasm. «Gazlift» tipidagi neytralizator – ushlab turgich

- 1 – ko'pik bilan o'chirishda suvni uzatish uchun shtutser;
- 2 va 3 – lyuklar;
- 4 – apparatlarning ketma-ket birikishda neytralizatning kirish shtutseri;
- 5 – kosinka;
- 6 – diffuzorlar;
- 7 – lyuk-laz;
- 8 – diffuzor mahkamlanishi.

Qurilma ketma-ket ulangan har xil diametrдаги то'ртта diffuzor, hamda siqilgan havoni keltirib berадиган quvurdan iborat. Bunday neytralizatorning ishlash prinsipi quyidagicha: havo quvur orqali pastki diffuzorga kiradi, va neytralizat bilan aralashib, zichligi diffuzorlar devorlaridan tashqaridagi neytralizat zichligidan kichik bo'lgan gaz-suyuqlik aralashmasini hosil qiladi. Zichliklar farqi natijasida neytralizatorda suyuqlikning intensiv sirkulyasiyasi kechadi. Aralashtirishga ketadigan havoning sarfi  $1\text{ m}^3$  neytralizatga  $1\text{ m}^3/\text{min}$  ni tashkil qiladi.

Oziqa muhitlari, tuzlar va turli xil qo'shimchalar (ko'pikli o'chiruvchilar, kislotalar) eritmalarini bevosita olish uchun  $100\text{ m}^3$  gacha sig'imga ega apparat-smesitellardan foydalaniladi. Ularning barchasi kislotaga chidamli po'lat yoki korroziyaga bardoshli materiallar bilan futerlangan uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Apparatlar mexanik aralashtiruvchi tuzilmalar, sath o'lchagichlar va ularning effektiv ekspluatatsiyasi uchun kerakli boshqa moslamalar bilan ta'minlangan.


Mikrobiologik sanoatda suspenziyalar hosil bo'lishi bilan kechadigan an jarayonlar tarqalgan. Dag'al suspenziyalar o'zida kattaligi  $100\text{ mkm}$  dan oshadigan, yupqalari  $0,5 \div 100\text{ mkm}$ , loyqalar  $0,1 \div 0,5\text{ mkm}$ , kolloidli eritmalar  $0,1\text{ mkm}$  dan kichik qattiq zarrachalarni tutadi.

Suspenziyalar texnologik jarayonning quyidagi bosqichlarida hosil bo'ladi: oziqa muhitlari va tuzlarni tayyorlashda, o'simlik xomashyosi gidrolizatlarini neytrallashda, mikroorganizmlarni kultivirlash va mikroblili sintez mahsulotlarini ajratib olishda, oqava suvlarni hosil qilish va

tozalashda. Suspenziyalarni ajratish ***tindirgichlar***, ***gidrotsiklonlar*** va ***filtrlar*** yordamida amalga oshiriladi.

Suspenziyalarning Cho'kmaga tushirish orqali ajralishi qattiq zarrachalar va dispersion muhit zichliklari orasidagi farq tufayli kechadi. Ushbu farqnning kattalashuvi bilan ajralish effektivligi ham oshadi. Cho'kmaga tushirishdan farqli ravishda, suspenziyalarning filtrlash orqali ajralishi porali to'siqning ikki tomonidagi bosimlar farqi tufayli sodir bo'ladi. Bunda dispersion muhit to'siqdan o'tadi, qattiq fazasi esa uning sirtida ushlanib qoladi.

***Tindirgichlar*** – bu apparatlar suspenziyalarni gravitatsion maydonda tindirish orqali ajratish uchun qo'llaniladi. Tindirgichlar davriy, yarimuzluksiz va uzlusiz ravishda ishlaydigan bo'ladi. Ular oziqa muhitlari, tuzlar eritmalarining rangini ochlashtirish, gidrolizli ishlab chiqarishlarda gipsni neytralizatdan ajratib olish, oqava suvlarni tozalash va boshqalar uchun ishlatiladi.



37-rasm. Mexanik tindirgich

1- korpus; 2 - oqizma jelob; 3 – chiqarib olish tuzilmasining privodi; 4 – ko'taruvchi mexanizm; 5 – xizmat ko'rsatish uchun maydonlar; 6 – issiqlik izolyasiya; 7 – tiqin; 8 – shnekli yuk tushirgich; 9 – uzukli tirkash; 10 – chiqarib olish tuzilmasi; 11 – yuklash barabani.


Uzlusiz ishlaydigan mexanik tindirgich (3-rasm) konussimon tubi va yassi qopqog'i bo'lgan vertikal silindrik rezervuardan iborat.

Tindirgich Cho'kmani olib tashlash uchun chiqarib olish mexanizmi bilan ta'minlangan. Chiqarib olish tuzilmasi valining pastki qismida taroqlar bilan lopastlardan tuzilgan skrebkalar mahkamlab qo'yilgan. Skrebkali tuzilma val bilan birga tindirgichning metall fermasida joylashgan privodli mexanizm orqali harakatga keltiriladi. Ko'taruvchi mexanizm yordamida chiqarib olish tuzilmasi tindirgich tubidan 200-300 mm balandlikka ko'tarilishi mumkin. Valning yuqorigi qismida ikkita panjaraga ega ichi bo'sh silindrsimon shaklga ega yuklash barabani biriktirilgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda suspenziya uzatiladi. Katta teshiklari bo'lgan yuqorigi panjara tindirgichga yirik qattiq bo'laklarning tushishini oldini oladi, kichik teshiklari bo'lgan pastki panjara esa suspenziyaning tindirgichga bir tekisda tushishiga yordam beradi. Tindirgichning yuqorigi ichki qismida oqizma jelob joylashgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda ochlashtirilgan muhit oqiziladi va patrubok orqali chiqariladi. SHnekli yuk tushirgich shlamni 60-70% namlikkacha siqib olish va uni tindirgichdan uzlusiz tushirish uchun xizmat qiladi. tindirgich lazlar, shtutserlar, xizmat ko'rsatish maydonlari hamda effektiv ekspluatatsiya va xavfsiz ish uchun kerak bo'lgan boshqa tuzilmalar bilan ta'minlangan.

Oziqa tuzlari va muhitlari, neytralizatlarning rangini ochlashtirishda hamda oqava suvlarni mexanik tozalashda yuqorinaporli gidrotsiklonlar ham qo'llaniladi. Gidrotsiklonlarni past konsentratsiyali qattiq fazaga ega suspenziyani ajratuvchi apparatlar bilan birgalikda qo'llash ayniqsa effektiv hisoblanadi. Gidrotsiklonlar sodda tuzilgan, xarakatlanuvchi qismlarga ega emas, kompakt, bir xil ishlab chiqarish quvvatida ancha kichik maydonni egallaydi, tindirgichlar va

filtrlarga nisbatan arzon va xizmat ko'rsatishda qulaydir. Kamchiligi bo'lib apparat devorlarining tez ishdan chiqishi va energiyaning ko'p sarflanishi hisoblanadi. 4-rasmda korpusi konussimon silindrik qismlardan tashkil topgan naporli gidrotsiklon tasirlangan. Suspenziya 0,2 MPa bosim ostida nasos orqali, undan keyin silindrik qismga tangensial ulangan quvur bo'ylab uzatiladi. Suspenziyaning vintsimon tarzda harakatlanishida qattiq zarrachalar markazdan yuguruvchi kuchlar ta'siri ostida gidrotsiklon konussimon qismining devorlariga otiladi, pastga tushadi va priemnika boradi. Ochlashtirilgan suyuq fazaning ichki oqimi siklon o'qi yonida tashqi oqimga qarshi tomonga spiral bo'yicha yo'nalgan bo'ladi va priemnikka chiqariladi. Suspenziyalarning ajralish effektiga pastki otvod patruboki diametrining ochlashtirilgan suyuq fazani chiqaruvchi quvur diametriga bo'lgan nisbati katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nisbat 0,35-0,44 ga teng deb olinadi.

38-rasm. Naporli gidrotsiklon



- 1- tashqi oqim;
- 2- Cho'kma;
- 3- ichki oqim;
- 4- gidrotsiklonning konussimon qismi.

Filtrlash usuli bilan bir jinsli bo'lmagan sistemalarni ajratish uchun mo'ljallangan apparatlar filtrlar deb ataladi. Mikrobiologik ishlab chiqarishlar uchun filtr-presslar, barabanli va lentali filtrlar eng perspektiv hisoblanadi.

Filtrni tanlashda suspenziyalarning fizik-kimyoviy xossalari, filtrat va Cho'kmaga bo'lgan talablarni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, filtrlarning ishlab chiqarish quvvatini va boshqalarni inobatga olish kerak.

#### **O'zlashtirishdagi muhim tayanch so'z va iboralar :**

Gidrolizapparatlar, invertorlar, filtrlash, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, naporli gidrotsiklon, tindirgichlar, suyuq faza, bir jinsli, xizmat ko'rsatish maydonlari, filtr-presslar, lentali filtrlar, oqimli siklon, apparat devorlari, dispersion muhit.

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun qanday uskunalardan foydalaniladi?
2. Suspenziyalarni ajratish qanday uskunalarda amalga oshiriladi?
3. Gidrolizapparatning ishlash prinsipini tushintirib bering.
4. Filtrni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Gaponov K.P. Protsessi i apparati mikrobiologicheskix proizvodstv, M.: Legkaya i pishevaya promishlennost. 1981. -239 s.
2. Sokolov V.N.. Domanskiy I.V. Gazojidkostnie reaktori. L.: Mashino-stroenie, 1976. 216 s.

## **14-MA'RUZA**

### **ASOSIY FERMENTATSION USKUNALAR VA ULARNI TANLASH**

#### **Reja:**

4. Umumiy ma'lumotlar.
5. Erliftli fermentyorlar.
6. Gazni mexanik dispergirlovchi fermentyorlar.

So'nggi yillarda biotexnologik sanoatda qo'llaniladigan ko'pgina fermentyorlar paydo bo'lib, ular biomassani aerob o'stirish va uning metabolitlarini olishga mo'ljallangandir. Aerob jarayonlarning effektivligini ko'rsatuvchi asosiy parametr bo'lib, gazning suyuqlik bilan kontaktda bo'luvchi yuzasi hisoblanadi.

Ushbu yuzaning hosil bo'lish usuliga qarab gaz-suyuqlik fermentyorlarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin, ular,

- erliftli,
- gazni mexanik dispergirlovchi,
- oqimli.


Erliftli fermentyorlarda fazalarning kontakt yuzasi gazni gaz taqsimlovchi tuzilmalar orqali sirkulyasiyadagi suyuqlik qatlamiga kiritganda hosil bo'ladi. Apparatning katta ishchi hajmi kerak bo'lganda, hamda gaz fazasi sifatida tarkibida massa almashinuvida zarur sharoitlarni ta'minlash va kultural muhitni pnevmoaralashtirish uchun etarli kinetik energiyani o'zida tutuvchi 80% azot bo'lgan havo ishlatilganda bu fermentyorlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu fermentyorlar yuqori ekspluatatsion ishonchlikka ega, chunki konstruksianing ichki harakatlanuvchi elementlariga ega emas. Ularda suyuqlik sirkulyasiyasi shartlarini buzmagan holda, etarlicha katta yuza maydoniga ega issiqlik almashinuvi tuzilmalarini joylashtirish qulay.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentyorlarda apparatga kiritiladigan gaz suyuqlik bilan mahsus tuzilmalar yordamida aralashtiriladi. Ularni apparatning  $V \leq 100 \text{ m}^3$  hajmida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ular toza gazda ishla ganda effektiv hisoblanadi. Bunda moddaning gazdan o'tkazilishining etarlicha yuqori intensivligiga rivojlangan fazalararo yuza hisobiga erishiladi. Kichik hajmli apparatlar yuqori bosimda ishlashi mumkin.

Oqimli fermentyorlarda gaz nasadkalar sistemasi orqali apparat kesimi bo'ylab taqsimlanadigan suyuqlik oqimlari bilan ejektiriladi.

Mikrobiologik sanoatda, asosan, o'zaro konstruksiysi va ishslash sharoitlari bilan farqlanadigan uch turdag'i erliftli fermentyorlar qo'llaniladi.

Achitqili ishlab chiqarishda eng keng tarqalgan va ko'pincha aeratorlar yoki kyuvetalar deb ataladigan kyuvetali aeratorlarga ega fermentyorlar (1-rasm).




39-rasm. Kyuvetali aeratorlarga ega fermentyor.

Bunday apparat yassi tub qismi va konussimon qopqoqqa ega silindrik idish (3) dan iborat. Idish ichida kyuvetalar (4) o‘rnatilgan bo‘lib, ularning soni fermentyor hajmiga qarab 3 tadan 8 tagacha o‘zgaradi. Kyuvetalarning ikkitali devorlari orasidagi bo‘shliqqa shtutser A orqali suv kiritilib, ular issiqlik almashinuvi tuzilmalari bo‘lib xizmat qiladi. Issiqlik ajralishi intensiv o‘tishi uchun kyuveta bo‘shlig‘idagi suvga spiral kanal hosil qiluvchi lenta joylashtiriladi. Havo fermentyorga markaziy quvur (2) orqali kiritiladi va quvurlar (6) bo‘ylab gaz taqsimlagichlar (barbotyor) (7) ga etib keladi. Gaz taqsimlagich past qutidan iborat bo‘lib, uning silindrik devori bilan pastki qopqog‘i orasida havoning chiqishi uchun tor dumaloq teshik bo‘ladi. Bu teshikning gidravlik qarshiligi shunday mo‘ljallanadiki, bunda barcha barbotyorlar bo‘ylab havoning bir me’yorda berilishi ta’minlanadi. Oziqa muhit, ammiakli suv va ekiladigan achitqi shtutserlar orqali bachokka (1) beriladi va keyin quvurlar (5) bo‘ylab barbotyor qutisiga (7) kelib tushadi. Havo barbotyordan chiqishda yuqoriga ko‘tarilib, o‘zi bilan kyuvetalarga sirkulyasiyalovchi kultural suyuqlik bilan aralashgan oziqa muhitini olib o‘tadi. Havo fermentyor qopqog‘ida o‘rnatilgan tomchili suyuqlik separatori (8) orqali tashqariga chiqariladi. Achitqili suspenziya apparatdan shtutser V orqali chiqadi. Fermentyorning har bir kyuvetasi cho‘ktirilgan erliftga o‘xshab ishlaydi. Havoning uzatilishida kyuvetada gaz-suyuqlik aralashmasi hosil bo‘lib, uning gaz tarkibi apparatining kyuvetalararo bo‘shliqdagi achitqi suspenziyasining gaz tarkibidan yuqoriroqdir. Buning natijasida uning pastki qismida (kyuvetalar zonasida) qattiq fazasining Cho‘kmaga tushishiga to‘sinqilik qiluvchi suspenziya sirkulyasiyasi kyuvetalardan uzoqlashgan sari so‘nib boradi, va apparatning yuqori qismida flotirlangan mikroorganizmlarga ega baland qatlamli barqaror ko‘pik hosil bo‘ladi. Ushbu keraksiz holatni faqatgina apparatning butun hajmida suyuqlikni intensiv aralashtirish hisobiga bartaraf etish mumkin. Buning uchun barbotaj quvur (kyuveta)larning balandligini shunday qilish lozimki, bunda ularning yuqorigi kesimi ko‘pik satxidan 1 m dan katta bo‘lmagan masofada joylashgan bo‘lishi kerak.

#### Erliftli fermentyorlar

Yirik gaz pufaklarining hosil bo‘lishini kichraytirilgan diametrli barbotaj quvurlarga ega fermentatorlarda bartaraf qilish mumkin. Bunday apparatning variantlaridan biri 2-rasmida ko‘rsatilgan.




41-rasm. Aeratorli kojuxoquvurli fermentyor

U qopqoqsiz kojuxoquvurli issiqlik almashgichlardan iborat sakkizta aerator (2) joylashtirilgan idish (1) ko'rinishida tayyorlangan. Quvurlarning ichki diametri 100 mm ga va balandligi 6000 mm ga teng. Havo fermentatorga quvur (3) orqali kiritiladi va gaz taqsimlagichlar bo'ylab (4) tarqatiladi. Gaz taqsimlagich past silindrik qutidan iborat bo'lib, uning yuqorigi qopqog'ida havoni har bitta barbotaj quvurga uzatish uchun nasadkalar o'rnatilgan. Aeratorlarning quvur orasidagi bo'shlig'i shtutser A ga uzatiladigan suv orqali sovutiladi. Fermentorning yuqorigi qopqog'ida mexanik ko'pikli o'chirgichlar (5) o'rnatilgan bo'lib, ulardan qayta ishlangan havo kollektor (6) ga kiritiladi va undan shtutser B orqali chiqariladi.

3. Gaz pufaklarini intensiv maydalash va ularni suyuqlik hajmida bir me'yorda taqsimlash hisobiga rivojlangan gaz-suyuqlik fazalararo yuzasini xosil qilishning mumkinligi Ushbu jarayonning asosiy yutug'i bo'lib hisoblanadi.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentatorlarni ikki guruxga ajratish kerak: erkin hajmda va sirkulyasion konturda aralashtirgichga ega fermentyorlar.

## 2) Aralashtirgichli fermentyor



40-rasm. Aralashtirgichli fermentyor

Kimyo sanoatida gaz-suyuqlik reaktorlarini ham, fermentyorlarni ham ekspluatatsiya qilish tajribasi shuni ko'rsatadiki, gazni suyuqlikda mexanik aralashtiruvchi apparatlarni  $100 m^3$  gacha bo'lган hajmda va idish diametri  $3,6 m$  dan katta bo'lmaganda ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bunday apparatlarning gaz bo'yicha o'tkazuvchanlik qobiliyati  $2000 m^3/s$  dan yuqori bo'lmaydi. 3-rasmida rubashka (2) ga joylashtirilgan idish (1) (elipssimon yoki yassi qopqog'i va tubi bo'lган) ko'rinishida tayyorlangan apparat tasvirlangan. Hajmi  $6,3 m^3$  dan kichik bo'lган fermentyorlarda rubashka bir tekis bo'ladi,  $6,3 m^3$  dan kattaroq hajmlarda esa seksiyalarga bo'lingan holda bo'ladi. Idish ichida vertikal val ustida aralashtirgichlar (3) maxkamlab ko'yilgan bo'lib, ularning soni (1 tadan 4 tagacha) apparat balandligiga bog'liq bo'ladi. Pastki aralashtirgich tagida gaz taqsimlagich

(birlamchi aeratsiyalovchi tuzilma) (6) joylashtirilgan. Idish hosil qiluvchilar bo'ylab kengligi  $b_m = 0,1D$  va balandligi  $h_m = \frac{H_c}{(1-\varphi)}$  bo'lgan to'rtta vertikal to'siqlar (4) o'rnatilgan, bunda  $N_s$  –

apparatdagi suyuqlikning boshlang'ich qatlami balandligi; - sistemaning gaz tarkibi. Idish sig'imi  $16 m^3$  dan katta bo'lganda uning ichiga qo'shimcha issiqlik almashinushi elementlari zmeeviklar (5) o'rnatiladi.

Gazni suyuqlikka dispergirlashda eng effektiv bo'lib elementlari kattaliklarining quyidagi nisbatlarida olingan to'g'ri va qayrilgan lopastlarga ega ochiq turbinali aralashtirgich hisoblanadi:

$$dm/D = 0,2\%4,0,3$$

$$hl/dm = 0,2$$

$$ll/dm = 0,25$$

Kichik xajmli yoki to'ldirish balandligi past bo'lgan fermentyorlarda gazni dispergirlash uchun o'ziso'rvuchi turbinali aralashtirgichlardan foydalanish mumkin. O'ziso'rvuchi aralashtirgichlarning qo'llanilishi havoni fermentyorga majburiy uzatishning zaruriyatini yo'q qiladi. Bu ularning asosiy yutug'idir.

*Dispergirlash qattiq yoki suyuq jismlarni mayin qilib maydalash . kolloidlar va umuman dispers sistemalar olish usullaridan biridir.*


Sirkulyasion konturda aralashtirgichga eega fermentyorlar davriy jarayonlarda, qachonki kultural muhit qovushqoqligi vaqt davomida biomassa konsentratsiyasining ko'payishi bilan o'zgarganda xamda aralashtirgichning aylanish chastotasini o'zgartirish hisobiga aralashtirishning kerakli intensivligini ta'minlash mumkin bo'lganda, effektiv qo'llaniladi.

Apparat ikki xil variantda yasalgan bo'lishi mumkin:

-sirkulyasion s ichidagi vintli (propellerli) aralashtirgich bilan,

-sirkulyasion stakan tagida joylashgan ochiq turbinali aralashtirgich bilan.

4-rasmda sirkulyasion stakan ichida joylashgan vintli aralashtirgichga ega fermentator ko'rsatilgan. U balandligining diametriga nisbati  $L/D = 510$  ga teng bo'lgan idish (3) ko'rinishda yasalgan. Idish ichida sirkulyasion stakan (4) o'rnatilgan bo'lib, uning diametri stakan o'zining xajmda uning idish devorlari bilan xosil qilganuzuksimon teshik kesimlari maydonlarining tenglik shartidan xisoblab topiladi. Stakanning pastki qismi kichraytirilgan kesimga ega, va unda o'q nasosi vazifasini bajaruvchi vintli aralashtirgich (7) xamda oqimni yo'naltiruvchi tuzilmalar joylashgan bo'ladi.



42-rasm. Sirkulyasion konturda vintli aralashtirgichga ega fermentyor:  
 a - biomassa suspenziysi;  
 b va g - gaz; v - azot.

Nasos sifatida gorizontal chiziqla nisbatan egilish burchagi  $\alpha = 15\%45^\circ C$  bo'lgan to'g'ri parraklarli aralashtirgich ishlatilishi mumkin.

Aralashtiruvchi tuzilma pastda joylashganida valining germetizatsiya tuguniga bo‘lgan talablar ko‘payadi, shuning uchun bu erda yonbosh zichlantiruvchilar o‘rnatalidi yoki ekranlashtiruvchi gilzali maxsus elektr yuritmalardan (8) foydalaniladi.

Hajmi katta bo‘lmagan apparatlarda issiqlik almashinuvi elementi bo‘lib rubashkaga (6) joylangan ilish devori xizmat qiladi. Apparatning xajmi, binobarin, issiqlik yuklanishi xam oshganda qo‘srimcha issiqlik almashinuvi elementiga zaruriyat tug‘iladi. Bu xolda sirkulyasion stakan xosil qiluvchilar bo‘ylab bir-biri bilan plastina-peremichkalar orqali biriktirilgan xamda yuqorida va pastda uzuksimon kollektorlar (2) yordamida birlashgan aylanma xolda joylashgan naylar 9% dan yasaladi.

Hajmi gaz-suyuqlik aralashmasi bilan to‘liq to‘ldirilganda apparat eng yuqori effektivlikda ishlaydi. Shuning uchun yutilmagan gaz va suyuqlikning chiqarilishi gaz-suyuqlik aralashmasining separatori (1) bilan birlashgan yuqorigi shtutser orqali amalga oshiriladi. Gazni uning birlamchi dispergiranishini ta’minlovchi aralashtirgichtagiga uzatish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik gaz pufaklarining kattaliklari suyuqlikning markaziy stakan va uzuksimon teshikdagি turbulentligi orqali aniqlanadi.

Turbinali aralashtirgichga ega apparat modda massasini ko‘chirish bo‘yicha effektivligi yuqoriroq xisoblanadi. Unda gazning yaxshiroq dispergiranishga erishiladi, xamda sistemaning yuqori gaz tarkiblarida va hattoki turg‘un ko‘piklar ustida barqaror ishlaydi.

#### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Erliftli, gazni mexanik dispergirlovchi, oqimli, dispegirlash, kolloidlar, dispers sistemalar, zmeeviklar, gaz-suyuqlik reaktorlar, aerator, kojuxoquvurli fermentyor, sirkulyasion kontur, gaz pufakchalar, intensiv maydalash, turbinali aralashtirgich.

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Fermentyorlarning sinflanishi, ularning ishlash prinsipi.
2. Dispegirlash nima?
3. Mikrobiologik sanoatda, necha turdagи erliftli fermentyorlar ishlatiladi?
4. Erliftli fermentyorlarning ishlash prinsipini tushintirib bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

4. Atkinson D. Bioximicheskie reaktori M.: Pishevaya promishlennost, 1979. 280 s.
5. Aerov M.E., Toles O.M., Narinskiy D.A. Apparati so statsionarnim zermistim sloem. L.: Ximiya, 1979. -176 s.
6. Navashin S.M., Sazikin Yu.O. Perspektivi sovremennoy biotexnologii v oblasti antibiotikov.

### **15-MA’RUZA**

### **XOMASHYO TAYYOR MAHSULOTNI SAQLASH UCHUN USKUNALAR VA ULARNI SAQLASH REJIMLARI**

#### **Reja:**

- 1.Xomashyoni saqlash uchun rezervuarlar.
- 2.Yordamchi materiallarni saqlash uchun rezervuarlar.
- 3.Turli muhitlarni saqlash uchun sig‘imli idishlar

Xomashyo, yordamchi materiallar va tovar mahsuloti saqlash uchun, hamda rezervuarlarning umumiy hajmini hisoblaganda quyidagilarni hisobga olish kerak:

1. Muhitlarning har bir turi uchun, ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida ishchi rezervuarlar, toksik muhitlar uchun esa qo‘srimcha rezervuarning o‘rnatalishi ko‘zda tutilgan;
2. Muhitlarning omborga davriy ravishda etkazilishi va undan jo‘natilishida har bir muhit uchun ikkitadan rezervuar o‘rnatalish tavsiya etiladi;

3. Agar katta sig‘imdagi rezervuarlarni tayyorlash texnik tomonidan mumkin bo‘lmasa va iqtisodiy tomonidan maqsadga muvofiq bo‘lmasa, rezervuarlar soni ikkitadan ko‘proq bo‘lishi mumkin;

4. Bir turdag'i xomashyo uchun mo‘ljallangan rezervuarlarning umumiy sig‘imi saqlash normalari orqali aniqlanadi va uning zaxirasiga bog‘liq bo‘ladi;

5. Tovar mahsuloti uchun mo‘ljallangan rezervuarlarning umumiy sig‘imi saqlash normalari orqali aniqlanadi va mahsulot yig‘imiga bog‘liq bo‘ladi.

Omborxonalardagi rezervuarlarda yaratiladigan yordamchi materiallar va xomashyo miqdori asosan joriy hamda sug‘urta (kafolat) zaxiralari bilan aniqlanadi. Fasliy tayyorgarchiliklarda (masalan, lavlagi melassasining) fasl zahirasi inobatga olinadi.

Xomashyo va yordamchi materiallarning joriy zaxirasi (*sut.*) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Z_j = at,$$

bunda,

**a** – xomashyo va yordamchi materiallarning o‘rtacha sutkalik rejali iste’moli, *t/sut*,

**t** – navbatdagi jo‘natishlar yoki etkazilishlar orasidagi interval (masofa), *sut*.

Transport kechikishlari, rejadan tashqaridagi ta’mirlash ishlari, sisternalar yo‘qligi va boshqa holatlarida zarur bo‘ladigan xomashyo, yordamchi materiallar va tovar mahsulotining sug‘urta zahirasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Z_s = a (t_{yuk} + t_{tr} + t_q + t_m),$$

bunda,

**t<sub>yuk</sub>** – xomashyo va yordamchi materiallarni yuklash davomiyligi, *sut*,

**t<sub>tr</sub>** - transportirovka davomiyligi, *sut*,

**t<sub>q</sub>** – iste’molchi tomonidan qabul qilish davomiyligi, *sut*,

**t<sub>m</sub>** – ishlab chiqarish iste’moliga xomashyo va yordamchi materiallarni tayyorlashning davomiyligi, *sut*.

Transportirovka davomiyligi:

$$t_{mp} = \frac{L}{330},$$

bunda,

L – temir yo‘li bo‘ylab jo‘natish bekatidan belgilangan bekatgacha bo‘lgan masofa, *km*,

330 – poezdnинг yuk tezligi, *km/sut*.

Maksimal omborxona zahirasi:

$$Z_{max} = Z_{se} + Z_c$$

Xomashyo, yordamchi materiallar yoki tayyor mahsulot turlaridan birini saqlashga mo‘ljallangan rezervuarlarning umumiy hajmi:

$$V = \frac{1000 \cdot Z_{max}}{\rho \cdot k_T}$$

bunda,


**ρ** - xomashyo, yordamchi material zachligi, *kg/m<sup>3</sup>*;

**k<sub>T</sub>** = 0,9 rezervuar hajmining to‘liq koeffitsienti.

Muhit xossalari va mos bo‘lgan me’yorlarni inobatga olib, rezervuarlarning umumiy hajmidan kelib chiqqan holda rezervuarlarning turi, hajmi va soni topiladi.

Hozirgi paytda mikroblı sintez mahsulotlarini olishda ishlatiladigan asosiy suyuq xomashyo turlariga suyuq parafinlar, lavlagi melassasi, dizel yoqilg‘i, metanol, etanol va sirka koslotasi kiradi. Mikroblı sintezning suyuq tovar mahsulotlari bo‘lib texnik va ozi


Suyuq parafinlar, dizel yoqilg‘i va lavlagi melassasini neft mahsulotlarini saqlashga mo‘ljallangan po‘latdan qilingan vertikal saqlash rezervuarlarida saqlanadi.



#### **43-rasm. Melassa saqlash rezervuari**

gomogenizatsion sistema; 2 – tubi; 3-korpus; 4 - tomi; 5 – markaziy ustun; 6 – vozdushnik; 7 – sathning ko‘rsatkichi uchun shtutser; 8 – lyuk; 9 – narvon; 10 – melassani oqizib yuborish uchun shtutser; 11 – isitgich.

Korpusning silindrik qismi bir-biriga biriktirilgan 8 ta kamardan iborat taxtali konstruksiya ko‘rinishiga ega. Rezervuar markazida ustun-yuqori va pastki chiziqlari bo‘lgan po‘lat truba joylashgan. Truba qum bilan to‘ldiriladi. Yuqori chiziqqa tom suyanadi, pastki chiziq esa tubiga suyanadi. Qalqonli tom markazdan rezervuarning chekka tomoniga qarab  $\alpha = 0,02$  ga teng og‘ishga ega. Melassaning chiqish qismida melassani  $40^{\circ}\text{C}$  gacha mahalliy isitishga mo‘ljallangan naysimon isitgich joylashgan. Rezervuarda melassani bir jinsli massa ko‘rinishida ushlab turish uchun har xil balandlikda o‘rnatilgan 5 ta oqizma quvurlardan iborat gomogenizatsiya sistemasi mavjud. Sirkulyasyon nasos yordamida melassa pastki shtutserdan saralab olinadi.



45-rasm. Etil spirtini saqlash rezervuari

1 – ko'pik kamerasi; 2 – xlopushkani boshqarish; 3 – sug'oruvchi moslama; 4 – gidravlik himoya qilish klapani; 5 – olovdan chegaralovchi; 6 – sathni o'lchash uchun asbob; 7 – tushirish shtutseri; 8 – gidravlik yopgich; 9 – suv yig'uvchi quvur.

Rezervuar atmosfera bosimida va tashqi havoning  $40^{\circ}\text{C}$  gacha bo‘lgan haroratida zichligi  $1445 \text{ kg/m}^3$  gacha bo‘lgan (neytral muhitli) melassani saqlashga mo‘ljallangan.

Mikrobiologik sanoat uchun yog'och chiqindilaridan, oziq-ovqat uchun esa oziqa chiqindilaridan olinadigan texnik etil spirti ishlataladi.

2-rasmda etil spiritini saqlashga mo'ljallangan rezervuar ko'rsatilgan.

U konussimon qopqoq va yassi tub qismiga ega po'latdan yasalgan vertikal germetik idish konstruksiyasidan iborat. Etil spirti +9°C ga teng tutash haroratiga ega va oson uchuvchan hamda oson alanga oladigan suyuqliklar qatoriga kiradi. Spirtning havodagi miqdori  $10-12 \text{ g/m}^3$  dan yuqori bo'lmasligi kerak. Rezervuarlar 100, 250, 500, 2000 va  $3000 \text{ m}^3$  spirtgaga mo'liallanagan bo'ladi.

Sexlardagi sig‘imli idishlar umumiy zavod omborxonasining rezervuarlaridan etkaziladigan xomashyo, yordamchi materiallarni, hamda tovar mahsulotni rezervuar-saqlagichlarga uzatishdan oldin qisqa vaqt davomida saglash uchun mo‘liallangan. SHu bilan birga idishlar oziga tuzlari va

muhitlari, mikroorganizmlar suspenziyalar, kultural suyuqliklar hamda ishlab chiqarishning turli bosqichlarida hosil bo‘ladigan boshqa suyuq muhitlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Idishlarning hajmi joylashish vaqt va muhit hajmiga, ishlab chiqarish quvvati va boshqa omillarga bog‘liq. Idishlar konstruksiyasining tanlanishi, shuningdek, muhit xossalariiga vam os bo‘lgan, normativ hujjatlarda berilgan talablarga bog‘liq.

#### **O‘zlashtirishdagi muhim tayanch so‘z va iboralar :**

Melassa, konstruksiya, sig‘imli idishlar, suspenziyalar, korpus,gabarit, kultural suyuqlik, sirkulyasion, muhit hajmi, atmosfera, neytral muhit, sutkali rejim, quvurlar, ishlab chiqarish quvvati, kultural suyuqlik, muhit xossalari.

#### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Rezervuarlarning klassifikatsiyasi haqida gapirib bering.
2. Melassa saqlash rezervuari xaqida ma’lumot bering.
3. Xomashyo va yordamchi materiallarning joriy zaxirasi formulasini keltirib chiqaring.
4. Mikrobiologik sanoat uchun qanday spirtdan foydalaniadi?

#### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

1. Braginskiy L.N., Begachev V.I., Barabash V.M. Peremeshivanie jidkix sred. L.: Ximiya, 1984. -335 s.
2. Vasilsov E.A.. Ushakov V.G. Apparati dlya peremeshivaniya jidkix sred. Spravochnoe posobie. L.: Mashinostroenie, 1979. -272 s.

**« BIOTEXNOLOGIK JARAYON JIHOZLARI »**  
***FANIDAN***  
***AMALIY MASHG‘ULOTLAR***  
***BO‘YICHA USLUBIY QO‘LLANMA***

## Kirish

Biotexnologiya - hozirgi vaqtida insoniyatning eng asosiy dolzarb muammolaridan biri hisoblanmish - oziq-ovqat, energetik resurs, atrof-muxit ifloslanishining oldini olish bilan bog'lik muammolari echimini topishga xizmat kiladi. Mikroorganizmlar, o'simlik va hayvon xujayralari, sun'iy oziqa muhitlarida o'stirilayotgan hujayra, to'qima va organlarni biosintetik potensialidan amaliy foydalanishda bioreaktor va biotexnologik jarayoi uskunalarining ahamiyati katta. Hozirgi vaktda dunyoning ko'plab manlakatlarda biotexnologiyaning tarakkiyotiga asosiy e'tibor karatilmokda, chunki boshka texnologiyalarga karaganda, biotexnologik jarayonlarga energiya sarfining kamligi, deyarli chiknndisnligi, ekologik sofligi jixatidan bir kator afzalliklarga ega. Bundan tashkari bu texnologiyalar muayyan asbob-uskuna, texnik kurilma va preparatlardan foydalanishi talab kiladi, shuningdek, iqlim sharoitlariga karamasdan kichik xajmni egallaydigan maydonlarda xam tadqiqotlar o'tkazish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamonda ko'proq diqqat e'tibor tirik organizlarning hayot-faoliyatiga suyanib olib boriladigan sanoat jarayonlariga qaratilmoqda va ular biotexnologik jarayonlar deb ataladi. Biotexnologiyaniq gulkirab rivojlanishi oxirgi 40 yillarga to'g'ri kelib, biologiya fanining yutuqlari, genetika va hujayra injeneriyasi texnologiyalarining ishlanmalarini yuzaga kelishi hamda tabiiy resurslarni kamayishi (yoki qimmatlashishi), ananaviy texnologiyalarning inqirozga uchrashi bilan bog'liqidir. Biotexnologiyaning rivojlanishi kelajakda iqtisodiy va ekologik manfaatdorlikka olib keladi.

Biotexnologiyaning bugungi kundagi faol rivojlanayotgan ilmiy yunalishi - mikrobiologik biotexnologiyadir yoki uni mikrob biotexnologiyasi deb ham yuritiladi. Mikrob biotexnologiyasi rivojlanishi birinchidan ayrim mahsulotlarga bo'lgan.

## 1 – AMALIY MASHG‘ULOT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING QUVVATINI HISOBBLASH

**Ishdan maqsad.** Ishlab chiqarish korxonalarining quvvatini hisoblash.

Ishlab chiqarish sanoatida korxona quvvati deb, bu korxonaning barcha sexlari vaqt birligida ishlab chiqaradigan mahsulot miqdoriga aytildi. Korxona quvvati kalendar yilga hisoblanadi. Ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda alohida tur mahsulotlari uchun liniyalar texnik quvvati hisobga olinadi, (Masalan, aminokislotalar ishlab chiqarish, zamburug‘lar va h.)

Liniyalar quvvati alohida jihozlar unumdorligi orqali topiladi, bu bug‘latish apparatlari, sentrifuga, separator, bioreaktorlar, fermentyorlar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Yillik quvvat liniyalar soni va unumdorligi hamda mavsum davomiyligi bilan hisoblanadi. Odatda mavsum avjida ishlab chiqarish korxonalari 3 smenada ishlashi mumkin. Mavsum davomiyligi har bir mahsulot uchun umumiyligi smena soni bilan ham belgilanadi.

Yillik quvvatni topish uchun har bir mahsulot bo‘yicha smena quvvatini yillik ishchi fondga ko‘paytiriladi. Yillik ishchi fond bu yillik smena miqdoridir.

Umumiyligi holda ishlab chiqarish quvvati ( $M$ ) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$M = \frac{T_c}{t}$$

bunda,

$T_s$  – korxona ish vaqtini fondining samaradorligi

$t$  - bir ish hajmidagi mahsulot birligi

Ishlab chiqarish quvvati vaqt mobaynida o‘zgarib turadi.

Ishlab chiqarish quvvatini quyidagi balanslar yordamida aniqlanadi.

Kirish quvvati ( yil boshidagi quvvat)  $M_{y.b.}$

CHiqish quvvati (yil oxiridagi quvvat)  $M_{y.o.}$

O‘rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati  $M_{o.r.}$

CHiqish quvvati quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$M_{y.o.} = M_{y.b.} + M_{kir.} - M_{chiq.}$$

bunda,

$M_{y.o.}$  - chiqish quvvati

$M_{kir.}$  – yil davomida kirayotgan quvvat,

$M_{chiq.}$  – yil davomida chiqayotgan quvvat.

Ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz kerak, mashinalar soni, qurilmalarning unumdorligi, ishlab chiqarish dasturining mutanosibligi.

Ishlab chiqarish korxonasining ish vaqtini fondining samaradorligi  $-t/soat$ ,  
bir ish hajmidagi mahsulot birligi  $- t/soat$ ,  
Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini-  $t/yil$ .

### **Masala.**

Ishlab chiqarish korxonasining ish vaqtini fondining samaradorligi  $2000 \text{ kg/smena}$ , bir ish hajmidagi mahsulot birligi  $250 \text{ kg/soat}$ . Bir yilda ishchi kunlar soni 210 kun, korxona ikki smenadan iborat, bir smenani 4 soat deb qabul qilamiz. Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvatini topilsin.

$$M = \frac{T_c}{t}$$

$250 * 8 = 2000 \text{ kg/smena}$ ,

$210 * 2000 = 500000 \text{ kg/smena} = 500 \text{ t/soat}$  ( yillik)

Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvatini  $500 \text{ t/soat}$ .

### **Talaba uchun topshiriq**

Ishlab chiqarish korxonasining ish vaqtini fondining samaradorligi  $X \text{ kg/smena}$ , bir ish hajmidagi mahsulot birligi  $Y \text{ kg/soat}$ . Bir yilda ishchi kunlar soni 245 kun, korxona ikki smenadan iborat, bir smenani 4 soat deb qabul qilamiz. Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati topilsin.

Variant	$T_s$ (kg/soat)
1	2800
2	7200
3	3000
4	4200
5	5000
6	8000
7	2000
8	2500
9	4000
10	3600

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish korxonalarining quvvatini hisoblashda qanday ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak?
2. CHiqish quvvati formulasini yozing va izohlab bering.
3. Ishlab chiqarish quvvati qanday kattaliklarga bog'liq?

## **2 – AMALIY MASHG'ULOT DAVRIY VA UZVIY ISHLOVCHI USKUNALARNI HISOBLASH**

***Ishdan maqsad:*** Uzluksiz ishlaydigan fermentyorning hisobi

Mikroorganizmlarni o'stirish uchun fermentyorlardan foydalilanadi. Jarayon davomida mikroorganizmlar nafas oladi. O'sadi, ko'payadi, muhitga gazsimon va suyuq holdagi metabolizm mahsulotlarini ajratadi, natijada muhitda biomassa yoki metabolizm mahsuloti yig'iladi. Buning natijasida a muhitga mikroorganizmlar bomassasi va metabolizm mahsuloti to'planadi. Eng keng tarqagan fermentyorlardan biri bu mexanik aralashtirgichli va havo yuborishga mo'ljallangan barbotyorli qurilmadir. Bunday qurilmada suyuqlik, mexanik aralashtirgich parraklar va yuborilgan havo yordamida aralashtiriladi. Fermentyorning hajmiga qarab, uning o'qiga bir nechta aralashtirgich parraklar o'rnatiladi. Ayrim hollarda ko'piksizlantiruvchi to'siqlar ham o'rnatilishi mumkin. Fermentyor ichida zarur bo'lgan temperaturani bir xil ushlab turish maqsadida unga issiqlik almashinishini ta'minlovchi g'ilof o'rnatiladi. Fermentyordagi temperatura g'ilof ichiga sovuq suv yuborish yo'li bilan boshqariladi.

Fermentyorlar 2 xil ish prinsipiiga ega. Ular davriy va uzluksiz ishlaydigan fermentyorlardir.

Texnologik sxema uchun tanlangan uskunalarni tanlash va hisoblash loyihada texnologik sxema uchun tanlangan va ishlab chiqarish uchun berilgan quvvat, moddiy balans va texnologik normalarga asoslanadi.

Hisoblash uchun berilgan boshlang'ich ma'lumotlar .

Q - ishlab chiqarish unumдорлиги (t/yil)

τ - bir yildagi ishchi kunlar soni (kun)

q -  $1\text{m}^3$  kultural suyuqlikdan preparatning chiqishi ( g/ $\text{m}^3$ )

Uskunani hisoblash uchun quyidagilarni qabul qilamiz.

Filtrat va konsentrat yig'gichning to'ldirish koeffitsenti- 0,8%

Fermentyor to‘ldirish koeffitsenti -0,5%  
Ekish uskunalarini to‘ldirish koeffitsenti -0,6%

### **Asosiy uskunaning hisobi (Ishlab chiqarish fermentyorlari)**

1. Fermentyordan gaz xolida chiqib ketish xisobiga fermentatsion ozuqa muhitining yo‘qolishini xisoblash (10%).

Tayyor kultural suyuqlik miqdori (k.s) – (G)-  $1 \text{ m}^3$  ga teng.

Yo‘qotish sarfi -10%.

Produtsent ekilgan ozuqa muxiti miqdori:

$$G_1 = G \times 1,1 \text{ m}^3.$$

2.  $1,1 \text{ m}^3 (G_1)$  fermentatsion ozuqa muxiti tayyorlash uchun ozuqa muxiti komponentlari va uning absolyut quruq modda saqlashini xisoblash.

2.1 Fermentatsion ozuqa muxiti uchun komponentlarining umumiy sarfi:

$$G_2 = g_1 + g_2$$

bunda,

$g_1, g_2$  va x.k. – ozuqa muxitining alohida komponentlari.

2.2 Fermentatsion ozuqa muxitida absolyut quruq modda saqlashi:

$$G_3 = S_1 + S_2 + S_3 \text{ va x.k.}$$

bunda,

$S_1, S_2, S_3$  va x.k. – ozuqa muxitining xar bir komponentining absolyut quruq moddasi; u esa muvofiq GOST bo‘yicha komponent sarfini, mavjud (qolgan) absolyut quruq moddaga ko‘paytirib aniqlanadi.

3. Fermentatsion ozuqa muxitiga ekish uchun ekuv materialli miqdorini xisoblash (ekuv me’yori  $G_1$  ga bog‘liq xolatda 2%)

$$G_4 = G_1 \times 0,02 \text{ m}^3$$

O‘stirish davomida ekuv materialining yo‘qolishi - 5%.

Tayyor ekuv materiali miqdori

$$G_5 = G_4 \times 0,95 \text{ m}^3$$

ni tashkil etadi.

4. Ekuv materialini olish uchun ozuqa muhiti komponentlari sarfi:

4.1. Ekuv ozuqa muxiti uchun kmponentlarning umumiy xarfi:

$$G_6 = g_1 + g_2 \text{ va x.k.}$$

bunda,

$g_1, g_2$  va x.k. – ekuv ozuqa muxitining aloxida komponentlari sarfi.

4.2. Ekuv ozuqa muxitining absolyut quruq modda saqlashi:

$$G_7 = S_1 + S_2 + S_3 \text{ va x.k.}$$

(hisoblash 2.2 bandidagidek amalga oshiriladi).

5. Fermentyorni tushadigan ozuqa miqdori (fermentatsiya uchun ozuqa muxiti + ekuv materiali):

$$G_8 = G_1 + G_5 \text{ m}^3$$

5.1 bunda absolyut quruq modda saqlashi .

$$G_9 = G_3 + G_7$$

kg ni tashkil etadi.

6. Fermentatsiyadan keyin olinadigan va qayta ishlov berish bosqichiga beriladigan kultural suyuqlik miqdori (ajraluvchi gazlar bilan yo‘qoladigan xisobi -90%):

$$G_{10} = G_8 \times 0,9 \text{ m}^3$$

6.1 Kultural suyuqlik ajraluvchi gazlar bilan 10% yo‘qitiladi:

$$G_{12} = G_9 \times 0,1 \text{ kg}$$

6.2. Kultural suyuqlik faolligi:  $A_1$ .

Kultural suyuqlikning umumiy faolligi:

$$A_2 = A_1 \times G_{10} \text{ birlik.}$$

6.3 Energiya biosintezi uchun sarf bo‘ladigan absolyut quruq modda (15%):

$$G_{13} = G_9 \times 0,15 \text{ kg}$$

6.4. Ishlov berishga tushadigan kultural suyuqlikning absolyut quruq modda miqdori:

$$G_{13} = G_9 \times 0,15 \text{ kg}$$

7. Kultural suyuqlikni filtirlash.

7.1. 1:0,5 nisbatdagi gidromodulda qoldiqni yuvish uchun suv sarfi:

$$G_{15} = G_{10} \times 0,5 \text{ dm}^3$$

7.2. Olingan filtrat miqdori (filtratsiyada yo‘qotilishi 10% hisobida):

$$G_{16} = (G_{10} + G_{15}) \times (1-0,1) \text{ sm}^3$$

7.3. Filtrat faolligi (inaktivatsiyadan yo‘qotilish xisobi 5%)

$$A = \frac{A_2 - (1 - 0,05)}{G_{10} + G_{15}} \text{ bir/sm}^3$$

7.4. Filtratning umumiy faolligi:

$$A_4 = G_{16} \times A_3 \text{ bir.}$$

Faollik yo‘qolishi bosqichlarida:

$$a_1 = A_2 - A_4,$$

bunda,

biomassa ( $a_2$ ) bilan faollik yo‘qolishi 7% ni tashkil etadi:

$$a_2 = a \times 0,07;$$

inaktivatsiyadan faollik yo‘qoti:  $a_3 = a_1 - a_2$

7.5. Filtratsiyada aloxidalangan absolyut quruq cho‘kma miqdori.

Kultural suyuqlikni filrlaganimizda qoldiqda 40% absolyu quruq modda qoladi.

$$G_{17} = G_{14} \times 0,4 \text{ kg}$$

Qoldiqning 85% li namligida uning miqdori

$$G = \frac{G_{17}}{1 - 0,85}$$

bunda -1,2 – qoldiq zichligi.

7.6. Filtratning absolyut quruq modda saqlashi:

$$G_{20} = G_{14} - G_{17} \text{ kg}$$

8. Fermentli eritmani ultrafiltratsion usulda quyuqlashtirish.

8.1. Quyuqlashtirish (konsentrash)darajasi 10 bo‘lganda ultrakonsentrat miqdori:

$$G_{21} = G_{16} : 10 \text{ } dm^3$$

8.2. Ultrakonsentratda yo‘qotilish 10% bo‘lganda ksilanaza faolligi:

$$A_5 = \frac{A_3 \times G_{16} \times (1 - 0,1)}{G_{21}} \text{ bir/sm}^3.$$

8.3. Konsentratning umumiy faolligi:

$$A_6 = A_5 \times G_{21} \text{ bir.}$$

8.4. Konsentratda absolyut quruq modda miqdori (75% analitik o‘lchanadi):

$$G_{22} = G_{21} \times 0,075 \text{ kg}$$

8.5. Ultrafiltrat miqdori :

$$G_{23} = G_{16} - G_{21} \text{ dm}^3,$$

8.6. Ultrafiltratda absolyut quruq modda miqdori:

$$G_{24} = G_{20} - G_{22} \text{ kg}$$

8.7. Ultrafiltratda ksilanazalarning umumiy faolligi ( yo‘qotilish filtrat umumiy faolligidan ultrafiltratda -6,5%),

$$A_7 = A_4 \times 0,065 \text{ bir.}$$

Inaktivatsiyadan yo‘qotilish -3,5 % :

$$a_4 = A_4 \times 0,04$$

8.8 Ultrafiltratda ksilanazalar faolligi:

$$a_5 = A_7 : G_{23} \text{ bir/ml}$$

9. Konsentratni filtrlab sterillash.

9.1. 3% yo‘qotish bilan xisoblanadigan steril konsentrat miqdori.

$$G_{25} = G_{21} \times (1-0,03) \text{ dm}^3$$

9.2. Konsentrat faolligi inaktivatsiya xisobiga 5% yo‘qotilganda ksilinazalar steril konsentrati faolligi

$$A_8 = A_5 \times (1-0,05) \text{ bir/sm}^3$$

9.3. Steril konsentratning umumiy faolligi:

$$A_9 - A_8 : G_{25} \text{ bir.}$$

Inaktivatsiyadan yo‘qotish:  $a_6 - A_6 \times 0,05$

10.4 Steril konsentratda 1% yo‘qotish bilan xisoblanadi umumiy faollik:

$$A_{11} = A_8 \times (1-0,01) \text{ bir.}$$

Faollik yo‘qolishi  $a_7=A_8 - A_{21}$

10.5. Kiritilayotgan (Qo‘shilayotgan) qo‘shimchaning xajmi 0,3% gacha oshganda standartlangan steril konsentrat miqdori:

$$G_{32}= G_{25} \times (1-0,003) \text{ } dm^3$$

10.6. Steril konsentratda ferment faolligi :

$$A_{12} = \frac{A_{11}}{G_{32}}$$

9.4. Filtrlab sterillanganda olingan nam qoldiq miqdori (konsentratdagi absolyut quruq moddadan 8% olib tashlanadi):

$$G_{26}= G_{22} \times 0,08 \text{ kg}$$

9.5. Filtrlab sterillanganda olingan nam qoldiq miqdori (qoldiq namligi – 85%):

$$G_{27}= G_{26} : (1-0,85) \text{ kg}$$

yoki

$$G_{28}= G_{27} : 1,1$$

bunda,

1,1 – qoldiq zichligi

Qoldiq bilan faollik yo‘qolishi:  $a_7=A_6-A_8$

9.6. Steril konsentratdagi absolyut quruq modda miqdori

$$G_{29}= G_{22} - G_{26} \text{ kg}$$

10. Steril konsentratni suyuq xolda standartlash

10.1 Suyuq xolda standartlash, konsentratda quruq modda saqlashini 10-12% gacha oshirish maqsadida qandaydir inert qo‘shimchalar yordamida (osh tuzi, natriy sulfat) amalga oshiriladi.(12% gacha misolida).

10.2. Suyuq xolda standartlash uchun qo‘shimcha miqdori (bosqich bo‘yicha yo‘qotish – 3%)

$$G_{30}= G_{25} \times 0,12 - G_{29} \text{ kg}$$

10.3. Steril konsentratda absolyut quruq modda miqdori.

$$G_{31}= G_{29} + G_{30} \text{ kg}$$

10.4. Steril konsentratning 1% yo‘qotish bilan umumiy faolligi:

$$A_{11}= A_8 \times (1-0,01) \text{ bir.}$$

Faollik yo‘qolishi  $a_7=A_8-A_{11}$

10.5. 0,3% qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida xajm oshishini xisobga olgan xolda standartlangan steril konsentrat miqdori;

$$G_{32}= G_{25} \times (1+0,003) \text{ } dm^3$$

10.6. Steril konsentratda ferment faolligi:

$$A_{12} = \frac{A_{11}}{G_{32}} \text{ bir/ml.}$$

11. Konsentratni quritish.

11.1. O'tkazuvchi xavo natijasida quruq moddaning 10% yo'qotilishini xisobga olganda quritilgan preparat miqdori (preparatning namligi -8%):

$$G_{33} = \frac{G_{31} \times (1 - 0,1)}{(1 - W)} \text{ kg (g)}$$

11.2. Inaktivatsiya natijasida 8% yo'qotilishni xisobga olganda preparat faolligi:

$$A_{13} = \frac{A_{11} \times (11 - 0,08)}{G_{31}} \text{ bir/g}$$

11.3. 8% namlik bilan preparatning absolyut quruq modda saqlashi

$$G_{34} = G_{31} \times 0,92 \text{ kg}$$

11.4. 8% namlikda xisoblanganda quritish davomida absolyut quruq modda yo'qotilishi quyidagini tashkil etadi:

$$G_{34} = (G_{31} - G_{34}) \times (1+0,08)$$

11.5. 8% yo'qotish bilan quruq preparatda ksilanzalar umumiy faolligi

$$A_{14} = A_{13} \times G_{33} \text{ bir.}$$

Quritish davomida faollik yo'qotilishi  $a_8 = A_{11} - A_{14}$

12. Quruq preparatni standartlash.

12.1. Muvofiq TU ga asosan standart preparat faolligi:  $A_{15}$

12.2. Standartizatsiya uchun qo'shimcha miqdori:

$$G_{35} = \frac{G_{33} \times (A_{13} - A_{15})}{A_{15}} \text{ kg}$$

12.3. Standartizatsiyaga tushadigan (qo'shiladigan) modda miqdori:

$$G_{36} = G_{33} + G_{35} \text{ kg}$$

12.4. Standartizatsiyadan keyin 2% yo'qotish bilan olingan preparat miqdori:

$$G_{37} = G_{36} \times (1-0,02) \text{ kg}$$

shuningdek,

Absolyut quruq modda  $= G_{37} \times 0,92$

12.5. Preparatning umumiy faolligi:

$$A_{16} = A_{15} \times G_{37} \text{ bir.}$$

12.6 Standartizatsiya davomida preparat miqdorining yo‘qotilishi:

$$G_{38} = G_{36} - G_{37} \text{ kg}$$

12.7. Standartizatsiya bosqichida faollik yo‘qotilishi:

$$a_9 = G_{38} * A_{15}$$

13. Joylash (qo‘yish), qadoqlash, markirlash

13.1. Preparatning turiga bog‘liq xolatda ular polietilen qoplarga keyin qog‘oz qoplarga 15-20 kg miqdorida solinadi. Qadoqlash bosqichi davomida yo‘qotish 1% ni tashkil etadi. Qadoqlangan preparat miqdori:

$$G_{39} = G_{37} * (1-0,01) \text{ kg}$$

13.2. Mexanik yo‘qotish:  $G_{40} = G_{37} - G_{39}$

13.3. Perparatning umumiy faolligi.

$$A_{18} = G_{39} \times A_{14} \text{ bir.}$$

13.4. Bosqichda faollik yo‘qotilishi:

$$a_{10} = G_{40} \times A_{15}$$

SHunday qilib 10000 *bir/gr* standart faolligida preparat chiqishi  $1 m^3$  kultural suyuqlikda  $A_{18}$  kg ni tashkil etadi, faollik bo‘yicha umumiy siqish esa:

$$G_{41} = \frac{A_{42} \times 100}{A_{15}}$$

% ga teng bo‘ladi.

### Talaba uchun topshiriq

Quyidagi variantlarda berilgan dastlabki ma’lumotlarga asosan fermentyorni hisoblang.

variant	Q t/yil	$\tau$ kun	q g/m <sup>3</sup>
1	20	288	0,9
2	10	230	0,9
3	15	280	0,9
4	12	288	0,9
5	13	233	0,9
6	16	280	0,9
7	26	200	0,9
8	13	260	0,9
9	15	244	0,9
10	17	200	0,9

### Nazorat uchun savollar

1. Fermentyorlar necha xil ish prinsipiga ega?
2. Ishlab chiqarish fermentyorlarining qanday turlarini bilasiz ?
3. Fermentatsiya sharoitidagi temperatura qanday boshqariladi ?

### 3 – AMALIY MASHG‘ULOT

### TEXNOLOGIK HISOBBLASHLAR UCHUN ASOSIY MA’LUMOTLAR

**Ishdan maqsad:** Bioreaktorlar o‘lchamini tanlash

Apparatning texnologik hisobi deganda, uning moddiy va issiqlik balanslari, apparatning asosiy o‘lchamlari , gidravlik hisobi, normativ sarflar aniqlanish hisob kitoblari tushiniladi. Apparatning texnologik hisobi bo‘yicha quyidagilarni aniqlash kerak.

yuqori va quyisi mahsulotlarning tarkibi va miqdori;

yuqori va quyisi desorb harorati;

isitgichning issiqligi.

*Absorbsiya - bu gazlar aralashmasidan biror moddaning suyuq fazaga selektiv ravishda yutilish jarayonidir.*

*Absorbsiyaga teskari jarayon, ya’ni yutilgan komponentlarni suyuqlikdan ajratib olish desorbsiya deyiladi.*

Texnologik hisoblashning asosiy turlari.

Texnologik jarayonlarning amalga oshirishda qayta ishlash uchun modda va materiallar kerak bo‘ladi. Ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashda apparat va jarayonlarning o‘lchamlari, yoqilg‘i sarfi hisobga olinadi. Texnologik hisoblar material va energetik balanslar asosida amalga oshiriladi. Gidravlik hisoblar bo‘yicha ishchi o‘lchamlar o‘lchanadi, shuningdek, apparatning to‘liq ishlashi uchun bosim va temperaturaning o‘zgarishi o‘rganiladi.

Jarayon uchun material balanslarni komponenet yoki elementlar hisobida hisoblash mumkin. Balanslar tenglik, tajriba, sxema yoki diagramma ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Bioreaktor o‘lchamini tanlash

Bioraktor o‘lchami kubik metrda, xom-ashyo sifati, turi miqdoriga, shuningdek, bijg‘itish davomiyligi va haroratiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Bioreaktor o‘lchami va kunlik yuklanadigan xom-ashyo me’yorining nisbati

Kunlik yuklanadigan xom-ashyoning miqdori bijg‘itish davomiyligi va tanlangan haroratga nisbatan aniqlanadi. Bioreaktorda mezofil rejimda bijg‘itish davomiyligi 10 kundan 20 kungacha davom etadi. Kundalik quyiladigan xom-ashyoning me’yori esa bioreaktordagi umumiy xom-ashyoning 1/20 dan 1/10 gacha nisbatda bo‘ladi.

Aniq miqdordagi xom-ashyoni qayta ishlash uchun bioreaktor o‘lchami. Dastlab hayvonlar soniga bog‘liq holda biogaz uskunasiga tushadigan kundalik go‘ng miqdori (DN) aniqlanadi. So‘ngra xom-ashyo suv yordamida 86-92% namlikkacha suyultiriladi.

Ko‘pchilik qishloq xo‘jalik biogaz uskunalarida go‘ng va suv miqdori 1:3 dan 2:1 nisbatgacha qo‘llaniladi.

SHunday qilib, yuklanadigan xom-ashyo (D) – bu xo‘jalik qoldiqlari summasi (DN) va suv (DV) aralashmasiga teng.

Xom-ashyoni mezofil rejimda qayta ishlash uchun xom-ashyoning kundalik me’yori uskunaga quyiladigan umumiy xom-ashyoning (OS) 10% iga teng bo‘ladi.

SHunday qilib, bioreaktor o‘lchami (OR) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$OS = \frac{2}{3} OR$$

$$OR = 1,5 OS$$

Bunda:

$$OS = 10 \times D \quad D = DN + DV$$

Xo‘jalikda 10 bosh yirik qoramol, 20 bosh cho‘chqa va 35 bosh tovuq boqilganda bioreaktor o‘lchami quyidagicha bo‘ladi:

1 bosh yirik qoramolning kundalik ekskrementining hajmi 55 kg;

1 bosh cho‘chqaniki 4,5 kg, 1 bosh tovuqniki 0,17 kg ga teng bo‘ladi.

Demak, xo‘jalikning kundalik axlat chiqindisi (DN) quyidagiga teng bo‘ladi:  $10 \times 55 + 20 \times 4,5 + 35 \times 0,17 = 550 + 90 + 5,95 = 645,95$  kg yoki taxminan 646 kg ni tashkil etadi.

Ekskrementlarning namligi cho‘chqanida va qoramollarda 86%, tovuqlarnikida esa 75% ga teng bo‘ladi.

85% li namlikni ta'minlash uchun 3,9 l suv qo'shish zarur (4 kg atrofida). Demak, kundalik quyiladigan xom-ashyo miqdori 650 kg. Bioreaktorning to'liq xom-ashyo bilan to'ldirilishi OS =  $10 \times 0,65 = 6,5$  t va bioreaktor hajmi OR =  $1,5 \times 6,5 = 9,75$  yoki taxminan 10m<sup>3</sup> ga teng bo'ladi.

### Talaba uchun topshiriq

Ho'jalikda yirik qoramol va parranda bor. Ulardan hasil bo'ladigan kundalik biogaz xomashyosini hisoblang va zarur hajmdagi bireaktorlar toping.

variant	Yirik qoramol (bosh)	Parranda (bosh)
1	100	100
2	90	60
3	80	70
4	40	80
5	50	80
6	20	40
7	100	20
8	30	30
9	20	80
10	60	30

### Nazorat uchun savollar


1. Bioreaktor o'lchamini tanlash qanday tanlanadi?
2. Desorb harorat deganda nimani tushinasiz?
3. Texnologik hisoblar qanday balanslar asosida amalga oshiriladi ?

## 4 – AMALIY MASHG'ULOT SENTRIFUGALARING ASOSIY HISOBI

**Ishdan maqsad:** Sentrifuganing asosiy hisoblashlarini o'rganish

Sentrifugalash – bu markazdan qochma kuchlar maydonida suyuq bir jinsli bo'limgan sistemalarni ajratish jarayonidir. Sentrifugalash maxsus uskunalar – sentrifugalarda amalga oshiriladi. Dispers sistemalarning xossalari qarab, sentrifugalash markazdan qochma filtrlash yoki cho'ktirish usullari orqali amalga oshiriladi. Ajratish usullariga mos ravishda sentrifugalar filtrlovchi va tindiruvchi turlarga bo'linadi.

Tindiruvchi sentrifugalarining turli xil konstruksiyalari orasidan suyuqlik separatorlari nomini olgan likopchasimon va silindrik vstavkalarga ega, tuzilishi va ishlash prinsipi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan mashinalarning katta guruhini ajratish mumkin.



parametrlardan hisoblanadi. U markazdan qochma maydon tezlanishi va og‘irlik kuchining tezlanishi nisbatlarini ko‘rsatadi. Bo‘linish faktori quyidagi formula orqali topiladi.

$$Fr = \frac{\omega^2 R}{g} = 0,00112 R n^2 = 112 * 10^{-5} R n^2$$

bunda,

$\omega$  - rotorning burchak tezligi,  $sek^{-1}$ ;

R – rotorning ichki radiusi,  $m$  ;

g - og‘irlik kuchining tezlanishi,  $m/sec^2$ ;

n - minutiga rotorning aylanishlar soni.

Bo‘linish faktori kattaligiga qarab sentrifugalar ikki turga bo‘linadi:  $Fr < 3500$  dan kichik bo‘lgan normal sentrifugalar va  $Fr > 3500$  dan katta bo‘lgan yuqori sentrifugalar. Ishlash jarayonida senrifuga rotorining devori ortilgan material hisobiga juda katta bosim ostida bo‘ladi.

P bosim rotorning yuza birligida quyidagi formula yordamida topiladi.

$$P = \frac{\rho \omega^2}{2g} (R_{t-}^2 - R_{n-}^2) \text{ kG/sm}^2$$

bunda,

$\rho$ - qayta ishlanayotgan suyuqlik zichligi,  $kg/sm^3$  ;

$\omega$  - rotorning burchak tezligi,  $sek^{-1}$ ;

g - og‘irlik kuchining tezlanishi,  $m/sec^2$ ;

$R_{t-}$  suyuqlik qatlamining tashqi radiusi;

$R_{n-}$  suyuqlik qatlamining ichki radiusi;

Rotor devorining butun yuza qismini hisobga olgan holda umumiy bosim  $p_0$  quyidagicha aniqlanadi:

$$p_0 = \rho F \text{ kG.}$$

Mahsulot bo‘yicha tindiruvchi sentrifugalar unumdarligi quyidagi formula orqali topiladi:

$$V = 2\pi L \upsilon_{o-r} r_{o-r} \text{ m}^3/\text{sek}$$

bunda,

L – barabanning ishchi zonasini uzunligi; m;

$\upsilon_{o-r}$  - qattiq faza zarrachalarining cho‘kishining o‘rtacha tezligi;  $m/sec$ ;

$r_{o-r}$  - suspenziya qatlamining o‘rtacha tezligi; m;

$$r_{yp} = \frac{r_0 + R}{2}$$

bunda,

$r_0$ - suspenziya qatlamining ichki radiusi,  $m$ ;

R- suspenziya qatlamining tashqi radiusi,  $m$

Davriy ishlaydigan sentrifugalarda cho‘kmaning yig‘ilishi vaqt mobaynida turlichadir.

Sentrifuganing unumdarligi  $Q$  ( $m^3/sm$ ) quyidagi tenglama orqali hisoblanadi.

$$Q = \frac{r_u S}{\mu r_{ohr}}$$

$r_s$  - markazdan qochma kuch hosil qilgan bosim,  $Pa$ ,

S- filtrlash yuzasi,  $m^2$ ,

$\mu$  - mahsulotning dinamik qovushqoqligi,  $Pa/sek$ ,

$r_0$ - cho‘kmaning birlik qarshiligi,  $l/m^2$ ,

hr- cho‘kma qatlami qalinligi,  $m$ .

**Masala.**

Berilgan

$\omega$  -  $200 \text{ sek}^{-1}$ ;

g - 20  $m/sek^{-1}$ ;

n- 800

R – 10 m

$$Fr = \frac{\omega^2 R}{g} = 0,00112Rn^2 = 112*10^{-5} Rn^2 = 112*10^{-5} *10*800 = 896000*10^{-5}$$

### Talaba uchun topshiriq

Berilgan ma'lumotlarga asosan sentrifuganing unumidorligi hisoblansin.

variant	$\omega$	g	n	R
1	200	30	800	10
2	230	35	1000	20
3	300	25	830	20
4	250	30	800	25
5	150	25	1300	25
6	130	40	1000	10
7	125	35	800	20
8	260	35	800	20
9	235	25	850	20
10	180	20	800	25

### Nazorat uchun savollar

1. Sentrifugalash deganda nimani tushinasiz?
2. Sentrifuganing unumidorligi qanday tenglama orqali hisoblanadi ?
3. Bo'linish faktori nima ?

## 5 – AMALIY MASHG'ULOT QURITISH JARAYONINI O'RGANISH

*Ishdan maqsad:* Quritish qurilmasini hisoblash

Qattiq va pastasimon materiallar tarkibidagi namlikni bug'latish va hosil bo'layotgan bug'larni chetga olish chiqishga quritish jarayoni deyiladi.

Nam materiallarni issiqlik yordamida quritish- sanoatida eng keng tarqalgan usul. Ushbu usul kimyoviy, oziq – ovqat va bir qator boshqa texnologiyalarda ishlataladi. Material tarkibidagi namlik dastavval arzon, mexanik (masalan filtrlash) usulda, yakuniy, to'la suvsizlantirish esa – quritish usulida olib boriladi. Suvsizlantirishning bunday kombinatsiyalashgan usuli iqtisodiy jihatdan samaralidir.

Sanoatda nam materiallarni quritish uchun sun'iy (maxsus quritish qurilmalarida) va tabiiy (ochiq havoda quritish – juda davomiy jarayon) usullar qo'llaniladi.

Ma'lumki, quritish jarayoni bu issiqlik va modda (namlik) ning material ichida harakati va material yuzasidan atrof muhitga uzatilishidir. SHunday qilib, quritish bu issiqlik va massa almashinish jarayonlarining bir –biri bilan uzviy bog'langan jarayonlar majmuasidir.

Qattiq, nam materialga issiqlik ta'sir etish usuliga qarab quritish quyidagi turlarga bo'linadi:

*Konvektiv quritish* – bunda nam material bilan qurituvchi eltkich bevosita o'zaro ta'sirda bo'ladi. Odatda, qurituvchi eltkich sifatida qizdirilgan havo yoki tutun gazlari ishlataladi;


*Kontaktli quritish* – issiqlik tashuvchi eltkich va nam material orasida ajratuvchi devor bo'ladi. Materialga issiqlik shu devor orqali uzatiladi;

*Radiatsion quritish* – nam materialga issiqlik infraqizil nurlar orqali uzatiladi;

*Dielektrik quritish* – nam material yuqori chastotali tok maydonida uzatiladi;

*Sublimatsion quritish* – nam material muzlagan holatda, yuqori vakuum ostida quritiladi.

Quritish qurilmasining hisobi.



**Bir seksiyali mavxum qaynashqatlamliquiritgich.**

1 - ventilyator; 2 - kalorifer; 3 - bunker; 4 - shnek; 5 - siklon; 6 - quritgich; 7 – to’kish patrubkasi; 8 – gaz taqsimlovchi teshikli panjaraa; 9 - konvektir.

Quritishga uzatilayotgan nam materialning massaviy sarfini  $G_b$ (kg/soat), quritilgan material massaviy sarfi  $G_{ox}$ (kg/soat), materialning boshlang‘ich va oxirgi namliklari  $W_1$  va  $W_2$ (bug‘langan namlik miqdori )  $W$  ( kg/soat) deb belgilab olamiz.

Unda jarayonning moddiy balansini quyidagicha yozish mumkin.

$$G_b = G_{ox} + W \text{ yoki } W = G_b - G_{ox}$$

Quruq moddalar bo‘yicha moddiy balans quyidagicha yozish mumkin.

$$G_b = (100 - W_1) = G_{ox} = (100 - W_2) \text{ yoki}$$

$$W = G_b \cdot \frac{100 - w_1}{100 - w_2}$$

Bug‘latilgan namlik miqdori ushbu tengshlama yordamida aniqlanadi.

$$W = G_b \cdot \frac{w_1 - w_2}{100 - w_2}$$

bunda,

$w_1$ - materialning boshlang‘ich namligi,

$w_2$ - materialning oxirgi namligi.

### Masala.

Berilgan .

$$G_b = 2000 \text{ kg/s} = 0,55 \text{ kg/sek}$$

$$W_b = 30\% \quad t_1 = 1250 \text{ C}$$

$$W_{ox} = 15\% \quad t_2 = 580 \text{ C}$$

Nam material buyicha moddiy balans:

$$G_b = G_{ox} + W$$

bunda,  
 W- nam materialdagi namlik mikdori, *kg/sek*  
 $G_1, G_2$  –nam va kuruk material massasi, *kg/sek*

Bug‘latilgan namlik mikdori:

$$W = G_\sigma \cdot \frac{w_1 - w_2}{100 - w_2} = 0,55 \frac{30 - 15}{100 - 15} = 0,09 \text{ кг/сек}$$

### **Talaba uchun topshiriq**

Berilgan ma’lumotlarga asoslanib, bug‘latilgan namlik miqdori aniqlansin.

<b>Variant</b>	<b><math>G_b, \text{kg/s}</math></b>	<b><math>W_b</math></b>	<b><math>W_{ox}</math></b>
1	2500	30	12
2	3600	30	10
3	2300	40	15
4	5000	45	12
5	1000	40	14
6	1500	55	20
7	3000	50	25
8	4500	55	15
9	1200	45	12
10	1300	60	20

### **Nazorat uchun savollar**

1. Quritish jarayonini tushintirib bering.
2. Qattiq, nam materialga issiqlik ta’sir etish usuliga qarab quritish necha turga bo‘linadi ?
3. Bug‘latilgan namlik miqdori qanday tenglama yordamida aniqlanadi ?

## **6-AMALIY MASHG’ULOT** **OZUQA MUHITLARNI KONSENTRLASH UCHUN BUG’LATISH USKUNASI** **HISOBBLASH**

***Ishdan maqsad:*** Oziqa muhitlarining tayyorlanishi mikrobiologik sintez ishlab chiqarishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Oziqa muhitlari komponentlarining fizik-kimyoviy xossalariiga qarab ular suvda belgilangan harorat va pH da ma’lum nisbatlarda eritiladi yoki suspenziyalanadi.

Texnologiya talablariga qarab oziqa muhitlarini tayyorlash jarayonida ular boyitiladi, bu neytrallash, tindirish, filtrash, sovutish, mikroorganizmlar hayot faoliyatini ingibirlovchi komponentlarni olib tashlash, muhitlarni biologik aktiv moddalar bilan boyitish va boshqa bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun turli xil uskunalar ishlataladi: gidrolizapparatlar, neytralizatorlar, aralashtirgichlarga ega qurilmalar, sterilizatorlar, tindirgichlar, filtrlar, issisqlik almashtirgichlar va boshqalar.

### ***Gidrolizapparatlar va invertorlar.***

Em achitqilarli va etil spirtini ishlab chiqarishda uglevodlar manbai bo‘lib yog‘och chiqindilari, kungaboqar po‘slog‘i, g‘o‘za po‘sti, makkajo‘xori so‘tasi, torf va boshqalar hisoblanadi. Boshlang‘ich xomashyoda uglevodlar achitqilarning oziqlanishi uchun yaroqsiz bo‘lgan birikmalar, ya’ni polisaxaridlar ko‘rinishda bo‘ladi. Sanoatda polisaxaridlarning

monosaxaridlargača gidrolizi asosan suyultirilgan sulfat kislota bilan  $190^{\circ}\text{S}$  bo‘lgan haroratda gidrolizapparatlarda amalga oshiriladi.

Gidroliz jarayonida monosaxaridlar bilan bir qatorda dekstrinlar-polisaxaridlarning qisman gidroliz mahsulotlari hosil bo‘ladi. Dekstrinlarning monosaxaridlargača gidrolizi (inversiyasi) invertorlarda  $140^{\circ}\text{C}$  haroratda amalga oshiriladi.

Oziqa muhitlarida metionin, trionin va boshqa ayrim aminokislotalar bor bo‘lganida auksitotrof mutantlar tomonidan lizin aminokislotasining biosintezi amalga oshiriladi. Ushbu aminokislotalarni olishning sanoat usullaridan biri bo‘lib em achitqilari va boshqa oqsil konsentratlarining kislotali yoki fermentativ gidrolizi hisoblanadi. Kislotali gidroliz gidrolizapparatlarda  $120^{\circ}\text{C}$  gacha bo‘lgan haroratda sulfat yoki xlorid kislotalari kabi katalizatorlar ishtirokida amalga oshiriladi. Oqsillarning fermentativ gidrolizi  $40^{\circ}\text{C}$  gacha bo‘lgan haroratda  $\text{pH} = 5 \div 7$  da o‘tadi. Katalizatorlar sifatida proteolitik fermentlar ishlatiladi.

Gidrolizli ishlab chiqarishda 18, 30, 37, 50 va  $80 \text{ m}^3$  sig‘imga ega gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar asosan geometrik o‘lchami, kislotani gidrolizga uzatish usullari hamda gidrolizatni tanlab olish bilan o‘zaro farqlanadi. Korroziyaning oldini olish maqsadida apparatning ichki yuzasi beton qavati ( $70\text{-}90 \text{ mm}$ ) bilan futerlanadi, keyin esa termokislotaga chidamli materiallar – keramik, ko‘mir yoki grafit plitkalar, yong‘inga bardoshli shamot g‘isht bilan ishlov beriladi. Po‘lat korpusning yuqorigi va pastki bo‘yin qismlari korroziyadan bronza, yuqori po‘lat qopqoq bronza, mis yoki latun vkladishlar bilan himoya qilinadi. Apparatning agressiv muhit bilan aloqada bo‘ladigan barcha shtutserlari bronzadan quyiladi va futerovka ishlaridan oldin o‘rnataladi.

Kislota, suvni uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlarning gidrolizapparat ichidagi joylashuvi suyuqlik oqimlari orqali belgilanadi. Kislotani uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlar ma’lum tarzda joylashtirib, gorizontal, vertikal yoki aralash suyuqlik oqimlari hosil qilinadi. SHu tariqa, gidrolizapparatlarning turli hajmlarida gidroliz jarayoni kechishining eng yaxshi sharoitlariga erishiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Gaponov K.P. Protsessi i apparati mikrobiologicheskix proizvodstv, M.: Legkaya i pishevaya promishlennost. 1981. -239 s.
2. Sokolov V.N.. Domanskiy I.V. Gazojidkostnie reaktori. L.: Mashino-stroenie, 1976. 216 s.

## 7-AMALIY MASHG’ULOT FERMENTLARNI HISOBBLASH

**Ishdan maqsad** So‘nggi yillarda biotexnologik sanoatda qo‘llaniladigan ko‘pgina fermentyorlar paydo bo‘lib, ular biomassani aerob o‘stirish va uning metabolitlarini olishga mo‘ljallangandir. Aerob jarayonlarning effektivligini ko‘rsatuvchi asosiy parametr bo‘lib, gazning suyuqlik bilan kontaktda bo‘luvchi yuzasi hisoblanadi.

Ushbu yuzaning hosil bo‘lish usuliga qarab gaz-suyuqlik fermentyorlarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin, ular,

- erliftli,
- gazni mexanik dispergirlovchi,
- oqimli.

Erliftli fermentyorlarda fazalarning kontakt yuzasi gazni gaz taqsimlovchi tuzilmalar orqali sirkulyasiyadagi suyuqlik qatlamiga kiritganda hosil bo‘ladi. Apparatning katta ishchi hajmi kerak bo‘lganda, hamda gaz fazasi sifatida tarkibida massa almashinuvida zarur sharoitlarni ta’minalash va kultural muhitni pnevmoaralashtirish uchun etarli kinetik energiyani o‘zida tutuvchi 80% azot bo‘lgan havo ishlatilganda bu fermentyorlarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu fermentyorlar yuqori ekspluatatsion ishonchlikka ega, chunki konstruksiyaning ichki

harakatlanuvchi elementlariga ega emas. Ularda suyuqlik sirkulyasiyasi shartlarini buzmagan holda, etarlicha katta yuza maydoniga ega issiqlik almashinuvi tuzilmalarini joylashtirish qulay.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentyorlarda apparatga kiritiladigan gaz suyuqlik bilan mahsus tuzilmalar yordamida aralashtiriladi. Ularni apparatning  $V \leq 100 \text{ m}^3$  hajmida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ular toza gazda ishla ganda effektiv hisoblanadi. Bunda moddaning gazdan o'tkazilishining etarlicha yuqori intensivligiga rivojlangan fazalararo yuza hisobiga erishiladi. Kichik hajmli apparatlar yuqori bosimda ishlashi mumkin.

Oqimli fermentyorlarda gaz nasadkalar sistemasi orqali apparat kesimi bo'ylab taqsimlanadigan suyuqlik oqimlari bilan ejektirlanadi.

Mikrobiologik sanoatda, asosan, o'zaro konstruksiyasi va ishslash sharoitlari bilan farqlanadigan uch turdag'i erliftli fermentyorlar qo'llaniladi.

Achitqili ishlab chiqarishda eng keng tarqalgan va ko'pincha aeratorlar yoki kyuvetalar deb ataladigan kyuvetali aeratorlarga ega fermentyorlar (1-rasm).

### **Kyuvetali aeratorlarga ega fermentyor.**

Bunday apparat yassi tub qismi va konussimon qopqoqqa ega silindrik idish (3) dan iborat. Idish ichida kyuvetalar (4) o'rnatilgan bo'lib, ularning soni fermentyor hajmiga qarab 3 tadan 8 tagacha o'zgaradi. Kyuvetalarning ikkitali devorlari orasidagi bo'shliqqa shtutser A orqali suv kiritilib, ular issiqlik almashinuvi tuzilmalari bo'lib xizmat qiladi. Issiqlik ajralishi intensiv o'tishi uchun kyuveta bo'shlig'idagi suvga spiral kanal hosil qiluvchi lenta joylashtiriladi. Havo fermentyorga markaziy quvur (2) orqali kiritiladi va quvurlar (6) bo'ylab gaz taqsimlagichlar (barbotyor) (7) ga etib keladi. Gaz taqsimlagich past qutidan iborat bo'lib, uning silindrik devori bilan pastki qopqog'i orasida havoning chiqishi uchun tor dumaloq teshik bo'ladi. Bu teshikning gidravlik qarshiligi shunday mo'ljallanadiki, bunda barcha barbotyorlar bo'ylab havoning bir me'yorda berilishi ta'minlanadi. Oziqa muhit, ammiakli suv va ekiladigan achitqi shtutserlar orqali bachokka (1) beriladi va keyin quvurlar (5) bo'ylab barbotyor qutisiga (7) kelib tushadi. Havo barbotyordan chiqishda yuqoriga ko'tarilib, o'zi bilan kyuvetalarga sirkulyasiyalovchi kultural suyuqlik bilan aralashgan oziqa muhitini olib o'tadi. Havo fermentyor qopqog'ida o'rnatilgan tomchili suyuqlik separatori (8) orqali tashqariga chiqariladi. Achitqili suspenziya apparatdan shtutser V orqali chiqadi. Fermentyorning har bir kyuvetasi cho'ktirilgan erliftga o'xshab ishlaydi. Havoning uzatilishida kyuvetada gaz-suyuqlik aralashmasi hosil bo'lib, uning gaz tarkibi apparatining kyuvetalalararo bo'shliqdagi achitqi suspenziyasining gaz tarkibidan yuqoriroqdir. Buning natijasida uning pastki qismida (kyuvetalar zonasida) qattiq fazasining Cho'kmaga tushishiga to'sqinlik qiluvchi suspenziya sirkulyasiyasi kyuvetalardan uzoqlashgan sari so'nib boradi, va apparatning yuqori qismida flotirlangan mikroorganizmlarga ega baland qatlamli barqaror ko'pik hosil bo'ladi. Ushbu keraksiz holatni faqatgina apparatning butun hajmida suyuqlikni intensiv aralashtirish hisobiga bartaraf etish mumkin. Buning uchun barbotaj quvur (kyuveta)larning balandligini shunday qilish lozimki, bunda ularning yuqorigi kesimi ko'pik satxidan 1 m dan katta bo'lмаган masofada joylashgan bo'lishi kerak.

### **Erliftli fermentyorlar**

Yirik gaz pufaklarining hosil bo'lishini kichraytirilgan diametrli barbotaj quvurlarga ega fermentatorlarda bartaraf qilish mumkin. Bunday apparatning variantlaridan biri 2-rasmida ko'rsatilgan.

### **Aeratorli kojuxoquvurli fermentyor**

U qopqoqsiz kojuxoquvurli issiqlik almashgichlardan iborat sakkizta aerator (2) joylashtirilgan idish (1) ko'rinishida tayyorlangan. Quvurlarning ichki diametri 100 mm ga va balandligi 6000 mm ga teng. Havo fermentyorga quvur (3) orqali kiritiladi va gaz taqsimlagichlar bo'ylab (4) tarqatiladi. Gaz taqsimlagich past silindrik qutidan iborat bo'lib, uning yuqorigi qopqog'ida havoni har bitta barbotaj quvurga uzatish uchun nasadkalar o'rnatilgan. Aeratorlarning quvur orasidagi bo'shlig'i shtutser A ga uzatiladigan suv orqali sovutiladi. Fermentatorning

yuqorigi qopqog‘ida mexanik ko‘pikli o‘chirgichlar (5) o‘rnatilgan bo‘lib, ulardan qayta ishlangan havo kollektor (6) ga kiritiladi va undan shtutser B orqali chiqariladi.

3. Gaz pufaklarini intensiv maydalash va ularni suyuqlik hajmida bir me'yorda taqsimlash hisobiga rivojlangan gaz-suyuqlik fazalararo yuzasini xosil qilishning mumkinligi Ushbu jarayonning asosiy yutug‘i bo‘lib hisoblanadi.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentatorlarni ikki guruxga ajratish kerak: erkin hajmda va sirkulyasion konturda aralashtirgichga ega fermentyorlar.

### Aralashtirgichli fermentyor

Kimyo sanoatida gaz-suyuqlik reaktorlarini ham, fermentyorlarni ham ekspluatatsiya qilish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, gazni suyuqlikda mexanik aralashtiruvchi apparatlarni  $100 \text{ m}^3$  gacha bo‘lgan hajmda va idish diametri  $3,6 \text{ m}$  dan katta bo‘limganda ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bunday apparatlarning gaz bo‘yicha o‘tkazuvchanlik qobiliyati  $2000 \text{ m}^3/\text{s}$  dan yuqori bo‘lmaydi. 3-rasmida rubashka (2) ga joylashtirilgan idish (1) (elipssimon yoki yassi qopqog‘i va tubi bo‘lgan) ko‘rinishida tayyorlangan apparat tasvirlangan. Hajmi  $6,3 \text{ m}^3$  dan kichik bo‘lgan fermentyorlarda rubashka bir tekis bo‘ladi,  $6,3 \text{ m}^3$  dan kattaroq hajmlarda esa seksiyalarga bo‘lingan holda bo‘ladi. Idish ichida vertikal val ustida aralashtirgichlar (3) maxkamlab ko‘yilgan bo‘lib, ularning soni (1 tadan 4 tagacha) apparat balandligiga bog‘liq bo‘ladi. Pastki aralashtirgich tagida gaz taqsimlagich (birlamchi aeratsiyalovchi tuzilma) (6) joylashtirilgan. Idish hosil qiluvchilar bo‘ylab kengligi  $b_m = 0,1D$  va balandligi  $h_m = \frac{H_c}{(1-\varphi)}$  bo‘lgan to‘rtta vertikal to‘siqlar (4) o‘rnatilgan, bunda  $N_s -$  apparatdagi suyuqlikning boshlang‘ich qatlami balandligi;  $-$  sistemaning gaz tarkibi. Idish sig‘imi  $16 \text{ m}^3$  dan katta bo‘lganda uning ichiga qo‘srimcha issiqlik almashinuvi elementlari zmeeviklar (5) o‘rnatiladi.

Gazni suyuqlikka dispergirlashda eng effektiv bo‘lib elementlari kattaliklarining quyidagi nisbatlarida olingen to‘g‘ri va qayrilgan lopastlarga ega ochiq turbinali aralashtirgich hisoblanadi:

$$dm/D = 0,2 \div 0,3$$

$$hl/dm = 0,2$$

$$ll/dm = 0,25$$

Kichik xajmli yoki to‘ldirish balandligi past bo‘lgan fermentyorlarda gazni dispergirlash uchun o‘ziso‘ruvchi turbinali aralashtirgichlardan foydalanish mumkin. O‘ziso‘ruvchi aralashtirgichlarning qo‘llanilishi havoni fermentyorga majburiy uzatishning zaruriyatini yo‘q qiladi. Bu ularning asosiy yutug‘idir.

*Dispergirlash qattiq yoki suyuq jismalarni mayin qilib maydalash . kolloidlar va umuman dispers sistemalar olish usullaridan biridir.*

Sirkulyasion konturda aralashtirgichga eega fermentyorlar davriy jarayonlarda, qachonki kultural muhit qovushqoqligi vaqt davomida biomassa konsentratsiyasining ko‘payishi bilan o‘zgarganda xamda aralashtirgichning aylanish chastotasini o‘zgartirish hisobiga aralashtirishning kerakli intensivligini ta‘minlash mumkin bo‘lganda, effektiv qo‘llaniladi.

Apparat ikki xil variantda yasalgan bo‘lishi mumkin:

-sirkulyasion s ichidagi vintli (propellerli) aralashtirgich bilan,

-sirkulyasion stakan tagida joylashgan ochiq turbinali aralashtirgich bilan.

4-rasmida sirkulyasion stakan ichida joylashgan vintli aralashtirgichga ega fermentator ko‘rsatilgan. U balandligining diametriga nisbati  $L/D = 510$  ga teng bo‘lgan idish (3) ko‘rinishda yasalgan. Idish ichida sirkulyasion stakan (4) o‘rnatilgan bo‘lib, uning diametri stakan o‘zining xajmda uning idish devorlari bilan xosil qilganuzuksimon teshik kesimlari maydonlarining tenglik shartidan xisoblab topiladi. Stakanning pastki qismi kichraytirilgan kesimga ega, va unda o‘q nasosi vazifasini bajaruvchi vintli aralashtirgich (7) xamda oqimni yo‘naltiruvchi tuzilmalar joylashgan bo‘ladi.

Nasos sifatida gorizontal chiziqqa nisbatan egilish burchagi  $\alpha = 15\% / 45^\circ\text{C}$  bo‘lgan to‘g‘ri parraklarli aralashtirgich ishlatilishi mumkin.

Aralashtiruvchi tuzilma pastda joylashganida valining germetizatsiya tuguniga bo‘lgan talablar ko‘payadi, shuning uchun bu erda yonbosh zichlantiruvchilar o‘rnatalidi yoki ekranlashtiruvchi gilzali maxsus elektr yuritmalardan (8) foydalaniladi.

Hajmi katta bo‘lmagan apparatlarda issiqlik almashinuvi elementi bo‘lib rubashkaga (6) joylangan ilish devori xizmat qiladi. Apparatning xajmi, binobarin, issiqlik yuklanishi xam oshganda qo‘srimcha issiqlik almashinuvi elementiga zaruriyat tug‘iladi. Bu xolda sirkulyasion stakan xosil qiluvchilar bo‘ylab bir-biri bilan plastina-peremichkalar orqali biriktirilgan xamda yuqorida va pastdauzuksimon kollektorlar (2) yordamida birlashgan aylanma xolda joylashgan naylar 9% dan yasaladi.

Hajmi gaz-suyuqlik aralashmasi bilan to‘liq to‘ldirilganda apparat eng yuqori effektivlikda ishlaydi. Shuning uchun yutilmagan gaz va suyuqlikning chiqarilishi gaz-suyuqlik aralashmasining separatori (1) bilan birlashgan yuqorigi shtutser orqali amalga oshiriladi. Gazni uning birlamchi dispergirlanishini ta’minlovchi aralashtirgichtagiga uzatish maqsadga muvofiqlik. Keyinchalik gaz pufaklarining kattaliklari suyuqlikning markaziy stakan vauzuksimon teshikdagি turbulentligi orqali aniqlanadi.

Turbinali aralashtirgichga ega apparat modda massasini ko‘chirish bo‘yicha effektivligi yuqoriroq xisoblanadi. Unda gazning yaxshiroq dispergirlanishga erishiladi, xamda sistemaning yuqori gaz tarkiblarida va hattoki turg‘un ko‘piklar ustida barqaror ishlaydi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar :**


7. Atkinson D. Bioximicheskie reaktori M.: Pishevaya promishlennost, 1979. 280 s.
8. Aerov M.E., Toles O.M., Narinskiy D.A. Apparati so statsionarnim zernistim sloem. L.: Ximiya, 1979. -176 s.
9. Navashin S.M., Sazikin Yu.O. Perspektivi sovremennoy biotexnologii v oblasti antibiotikov.

## **8 – AMALIY MASHG‘ULOT ISSIQLIK ALMASHUVCHI USKUNALARINI ISSIQLIK BALANSINI HISOBBLASH**


*Ishdan maqsad.* Issiqlik almashinuvchi uskunaning issiqlik balansini hisoblash.

Temperaturasi yuqori bo‘lgan jismdan temperaturasi past jismga issiqlikning o‘z-o‘zidan, qaytmas o‘tish jarayoniga issiqlik almashinish deyiladi. Jarayonni harakatga keltiruvchi kuchi, bular bir xil temperaturali bo‘lgan jismlarning temperaturalar farqidir. Issiqlik har doim temperaturasi yuqori jismdan temperaturasi past jismga o‘tadi.

*Ko‘p yo‘lli issiqlik almashinish qurilmasi*



1-qobiq, 2 - isituvchi truba,  
3 - qopqoq, 4 - to’siq.



1-qobiq, 2 – to’siq, 3 – isituvchi truba, 4 – qopqoq.

Issiqlik (issiqlik miqdori) – bu issiqlik almashinish jarayonining energetik xarakteristikasi bo‘lib, jarayon mobaynida uzatilgan yoki olingan energiya miqdori bilan belgilanadi.

Issiqlik almashinish jarayonida ishtirok etuvchi jismlar issiqlik tashuvchi eltkich yoki issiqlik eltkich deb nomlanadi.

Issiqlik almashinish jarayonlariga isitish, sovitish, kondensatsiyalash, bug'lanish va bug'latishlar kiradi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilmalar issiqlik almashinish qurilmalari deb ataladi.

Ma'lumki, issiqlik almashinish jarayonlarida kamida 2 ta turli temperaturali muhitlar ishtirok etadi. Issiqlik energiyasini uzatuvchi, yuqori temperaturali muhit - issiqlik eltkich deb atalsa, issiqlik energiyasini qabul qiluvchi past temperaturali muhit esa-sovuqlik eltkich deb ataladi. Issiqlik va sovuqlik eltkichlar kimyoviy bardoshli bo'lishi, qurilmalarini emirmasligi va uning devorlarida qattiq, g'ovak, quyqa hosil qilmasligi kerak. SHuning uchun, issiqlik yoki sovuqlik eltkichlarni tanlashda jarayon temperaturasi, narxi va ularni qo'llanish sohalari kabi ko'rsatgichlarga katta ahamiyat berish kerak.

Issiqlik almashinish qurilmalarini hisoblashda quyidagi parametrlar topiladi:

1. Issiqlik oqimi (qurilmaning issiqlik yuklamasi), ya'ni issiqlik miqdori  $Q$  hisoblanadi. Issiqlik oqimini aniqlash uchun issiqlik balansi tuziladi va u  $Q$  ga nisbatan ehib topiladi;
2. Berilgan vaqt ichida zarur issiqlik miqdorini uzatishni ta'minlovchi qurilmaning issiqlik almashinish yuzasi aniqlanadi.


Buning uchun issiqlik o'tkazishning asosiy tenglamasidan foydalaniladi.

Issiqlik asosan 3 usulda uzatilishi mumkin.


1. Issiqlik o'tkazuvchanlik,
2. Konveksiya
3. Issiqlik nurlanishi.

Konvektiv issiqlik almashinish

Issiqlik o'tkazish



**Текис девор орқали иssiqliк ўтказиш жараёнида температуранинг ўзгариши характери.**



**Конвектив иssiqliк алмашининиши схемаси.**

Issiqlik almashinish apparatlarining issiqlik balansini hisoblashda apparatning issiqlik yuklamasi va issiqlik yoki sovutish tashuvchilar hisobi inobatga olinadi. Issiqlik yuklamasi deganda, issiqlik tashuvchidan sovuqlik tashuvchiga berilayotgan issiqlik miqdori tushiniladi.

$$Q = Q_{iss} = Q_{miqd}$$

Berilgan jarayonga qarab issiqlik balansi har xil bo'lishi mumkin. Issiqlik balansini umumiy ko'rinishda quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$Q_{prin} = Q_{sarif}$$

sovutgichlar uchun:

$$Q_{iss} = G_{iss} * s (t_1 - t_2)$$

$$Q_{iss} = G_{miq} * s_{suv} (t'' - t')$$

bunda,

$G_{iss}$  – issiqlik tashuvchining issiqlik miqdori; kg/s

$s$  – issiqlik tashuvchining o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imi;

$t_1$  va  $t_2$  – issiqlik tashuvchining boshlang‘ich va oxirgi temperaturasi;  
 $G_{miq}$  – sovitilayotgan suv miqdori;  $kg/s$   
 $s_{suv}$  – sovitilayotgan suvning o‘rtacha solishtirma issiqlik sig‘imi;  $J/(kg * grad)$   
 $t'$ va  $t''$ - sovitilayotgan suvning apparatga kirayotgan va chiqayotgan temperaturasi.  $grad$ .  
Issiqlik balansining tenglamasidan sovitilayotgan suvning sarfi topiladi:

$$G_{muk} = G_{ucc} \frac{c(t_1 - t_2)}{c(t'' - t')}$$

isitgichlar uchun:

Bitta issiqlik yurituvchini istish isitilayotgan suvli to‘yingan bug‘ kondensatsiyasi hisobiga sodir bo‘ladi:

$$Q_{prits} = D^* s (i_1 - i_2)$$

$$Q_{rasp} = G_c * (t_1 - t_2)$$

bunda,

$D$  – isitilayotgan bug‘ning sarfi,  $kg/s$ ;

$i_1$  – isitilayotgan bug‘ning issiqlik saqlashi,  $J/kg$ ;

$i_2$  – kondensatning issiqlik saqlashi,  $J/kg$ ;

$G_c$  – isitilayotgan material sarfi;

$s$  – isitilayotgan material (modda) ning solishtirma issiqlik sig‘imi;

$t_1$  va  $t_2$  – moddaning boshlang‘ich va oxirgi temperaturasi, grad.

Issiqlik balansining tenglamasi:

$$Q_{prin} = Q_{rasp} + Q_{yo'q}$$

bunda,

$Q_{yo'q}$  – apparat devoridan atrof-muhitga issiqlikning yo‘qotilishi,  $Vt$ .

### Masala.

Berilgan

$$t_1 = 200 S,$$

$$t_2 = 600 S$$

$$s = 30, G_c = 10$$

$$G_{miq} = 100 kg/s$$

$$i_1 = 10 J/kg;$$

$$i_2 = 15 J/kg$$

$$Q_{yo'q} = 25 Vt$$

$Q_{prits}$  ni toping.

### Echish.

$$Q_{prin} = Q_{rasp} + Q_{yo'q}$$

$$Q_{rasp} = G_s * s (t'' - t') = 10 * (60 - 20) = 400$$

$$Q_{prin} = Q_{rasp} + Q_{yo'q}$$

$$2. Q_{prin} = 400 + 25 = 425 Vt$$

Apparatning issiqlik balansi 425  $Vt$  ga teng.

### Talaba uchun topshiriq

Quyidagi berilgan ma’lumotlarga asosan apparatning issiqlik balansi topilsin.

variant	$t_1$	$t_2$	$s$	$G_c$	$G_{miq}$	$i_1$	$i_2$	$Q_{yo'q}$
1	10	55	30	10	100	10	15	25
2	20	60	30	15	150	10	16	25
3	10	50	20	10	100	12	20	35
4	20	45	20	15	150	12	16	35

5	15	55	25	10	160	15	25	45
6	12	35	20	15	120	15	25	25
7	22	45	30	10	120	15	25	30
8	15	40	30	10	130	10	20	28
9	14	35	20	15	100	10	15	27
10	18	35	25	15	100	12	20	30

### Nazorat uchun savollar

1. Issiqlik almashinish apparatlarining issiqlik balansini hisoblashda nimalar e'tiborga olinadi ?
2. Issiqlik asosan necha xil usulda uzatilishi mumkin ?
3. Issiqlik balansini umumiy tenglamasini izohlab bering.

## 9 – AMALIY MASHG'ULOT SUSPENZIYANI SOVITISH UCHUN ISSIQLIK ALMASHINISH USKUNASI XISOBI

**Ishdan maqsad.** Bioreaktor uchun aralashtirish moslamasi tanlash. Biokimyoviy aylanishlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan qurilmalar bioreaktorlar deb ataladi. Biokimyoviy jarayonlar va qurilmalari orasida bioreaktorlar va ularda kechadigan jarayonlar alohida o'rinn tutadi. Biokimyoviy aylantirishlar quyidagi xosligi bilan xarakterlanadi:

a) gidrodinamik, issiqlik va massa almashinish hodisalarini belgilaydi;


b) biokimyoviy-texnologik jarayonlarning kechishiga katta ta'sir etuvchi omillar biokimyoviy jarayonlar uchun muhit ahamiyatga ega; reaksiyalarni bir vaqtida parallel va ketma-ket kechishida temperatura va aralashtirish kabi omillar mahsulot sifatiga salmoqli ta'sir etadi;

v) jarayon tezligi eng sekin o'tadigan bosqich bilan belgilanganligi sababli, biokimyoviy jarayonlar diffuzion, kinetik va oraliq sohalarda kechishi mumkin.

Ishlab chiqarish sanoatida bir necha turdag'i bioreaktorlardan foydalaniladi:

**1. Barbotajli va erliftli** – bunda muhitga, ya'ni ozuka muhitga xavo berish hisobiga aralashtirish jarayoni kechadi.

**2. Mexanik aralashtirgichli** bioreaktorlar - ya'ni, fermentyor ichiga aralashtirgich parraklari urnatilib ular vertikal, gorizontal xolda aralashtirish vazifasini bajaradi. Mexanik aralashtirgichli bioreaktorlar zamonaviy mikrobiologik ishlab chikarishda keng foydalaniladigan konstruksiyalar xisoblanadi.



2-rasm. Mexanik aralashtirgichlar.

**Parrakli:** a-to‘g‘ri parrakli, b-kiya burchak ostida egilgan parrakli, v-diskli tugri parrakli, g-diskli uchi egik parrakli, d – diskli egik parrakli, e - «qaldirg‘och-dum» parrakli;  
**turbinali:** j – yopiq, z - ikki yo‘naltiruvchi apparatli.

**3. Kombinirlangan** – ya’ni, bir necha jarayonlar uchun mo‘ljallangan bioreaktorlar.

**4. Tor doirali** - ya’ni, aynan bir jarayon uchun mo‘ljallangan bioreaktorlar.

### Masala

Hajmi  $V_b=5 \text{ m}^3$  bo‘lgan bioreaktor uchun aralashtirish moslamasi tanlansin. Suspenziya qovushoqligi  $\mu=0,0065 \text{ Pas}$ , qattiq faza zichligi  $\rho_t=1700 \text{ kg/m}^3$  va o‘lchami  $\delta=1,5 \text{ mm}$ . Qattiq faza konsentratsiyasi 90% gacha. Qurilmadagi bosim 0,3 MPa.

**Echish:** Ushbu sharoitda samarali aralashtirish ochiq turbinali yoki uch parrakli aralashtirgichda amalga oshirish mumkin. Bu muhit uchun uch parrakli aralashtirgich tanlaymiz, chunki kichik aylanish chastotasida ushbu moslama qattiq fazani muallak holatini ta’minlay oladi.

Nominal xajmi  $V_n=5\text{m}^3$  bo‘lgan bioreaktor diametri  $D=1800\text{mm}$ . Agar, nisbat  $D/d_{o,r}=4$  deb kabul kilsak, aralashtirgich diametri  $d_a=1800/4=450 \text{ mm}$  bo‘ladi.

Aralashtirgichning aylana buylab tezligini  $w=4 \text{ m/s}$  bo‘lsa, unda uning aylanish chastotasi

$$n = \frac{w}{\pi d_{cp}} = \frac{4}{3,14 \cdot 0,45} = 2,83 \text{ c}^{-1}$$

Aralashtirgich aylanish chastotasini  $n=3,33\text{c}^{-1}$  deb kabul kilamiz.

Qurilmadagi o‘rama chuqurligini aniqlash uchun G va Re parametrlarni topish kerak. Qurilmaning to‘ldirish koefitsienti  $\varphi=0,75$  da suyuklik sathining balandligi  $N=1,62 \text{ m}$  bo‘ladi.

Unda

$$\Gamma = \frac{8H}{D} + 1 = \frac{8 \cdot 1,62}{1,8} + 1 = 8,2$$

Aralashtirish davrida Reynolds soni

$$Re_{MK} = \frac{n \cdot d_{cp} \cdot \rho_c}{\mu} = \frac{3,33 \cdot 0,45^2 \cdot 1020}{0,0065} = 105800$$

To‘sqlirsiz qurilmadagi o‘rama chukurligi

$$h_y = \frac{4,5 \cdot 3,33^2 \cdot 0,45^2}{2} = 5$$

Aralashtirgichning o‘rnatish balandligi

$$h = 0,5 \cdot d_{ap} = 0,5 \cdot 0,45 = 0,225 \text{ m}$$

bo‘lsa, o‘rama ruhsat etilgan chukurligi

$$h_{ps} = 1,62 - 0,225 = 1,4 \text{ m}$$

O‘rama chukurligi  $h_u=5>>h_{re}=1,4$  bo‘lgani uchun, qurilmada aks ta’sir etuvchi to‘sqliar o‘rnatish zarur.

Aralashtirgich o‘qining diametri

$$d = 0,166 \cdot 0,45 = 0,075 \text{ m}$$

Standart o‘qning diametri  $d=0,08 \text{ m}$  deb kabul kilamiz.

### Talaba uchun topshiriq

Hajmi  $V_b$  bo‘lgan bioreaktor uchun aralashtirish moslamasi tanlansin. Suspenziya qovushoqligi  $\mu$ , qattiq faza zichligi  $\rho_t$  va o‘lchami  $\delta$ , qattiq faza konsentratsiyasi, qurilmadagi bosim quyidagi jadvalda berilgan.

<b>Variant</b>	<b>V<sub>b</sub>, m<sup>3</sup></b>	<b>μ, Pas</b>	<b>ρ<sub>t</sub>, kg/m<sup>3</sup></b>	<b>δ, mm</b>	<b>Qattiq faza konsentratsiyasi %</b>	<b>R MPa.</b>
1	6	0,0065	1700	1,5	90	0,3
2	6	0,0065	1700	1,4	90	0,2
3	5	0,0065	1700	1,5	80	0,2
4	5	0,0065	1800	1,8	80	0,2
5	6	0,0065	1800	1,5	80	0,3
6	5	0,0065	1700	1,3	80	0,2
7	5	0,0065	1700	1,6	90	0,3
8	6	0,0065	1900	1,4	90	0,3
9	6	0,0065	1900	1,3	90	0,3
10	6	0,0065	1800	1,5	80	0,2

### **Nazorat uchun savollar**

1. Bioreaktorlar nima, ularning qanday turlarini bilasiz ?
2. Mexanik aralashtirgichli bioreaktorlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Barbotajli va erliftli bioreaktorlarda jarayon qanday kechadi?

## **10 – AMALIY MASHG‘ULOT KONSENTRLANGAN BIOMASSANI YIG‘ISH USKUNASI XISOBI**

**Ishdan maqsad** Oziqa muhitlarining tayyorlanishi mikrobiologik sintez ishlab chiqarishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Oziqa muhitlari komponentlarining fizik-kimyoviy xossalari qarab ular suvda belgilangan harorat va pH da ma’lum nisbatlarda eritiladi yoki suspenziyalanadi.

Texnologiya talablariga qarab oziqa muhitlarini tayyorlash jarayonida ular boyitiladi, bu neytrallash, tindirish, filtrlash, sovutish, mikroorganizmlar hayot faoliyatini ingibirlovchi komponentlarni olib tashlash, muhitlarni biologik aktiv moddalar bilan boyitish va boshqa bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun turli xil uskunalar ishlataladi: gidrolizapparatlar, neytralizatorlar, aralashtirgichlarga ega qurilmalar, sterilizatorlar, tindirgichlar, filtrlar, issisqlik almashtirgichlar va boshqalar.

#### **Gidrolizapparatlar va invertorlar.**

Em achitqilari va etil spirtini ishlab chiqarishda uglevodlar manbai bo‘lib yog‘och chiqindilari, kungaboqar po‘stlog‘i, g‘o‘za po‘sti, makkajo‘xori so‘tasi, torf va boshqalar hisoblanadi. Boshlang‘ich xomashyoda uglevodlar achitqilarning oziqlanishi uchun yaroqsiz bo‘lgan birikmalar, ya’ni polisaxaridlar ko‘rinishda bo‘ladi. Sanoatda polisaxaridlarning monosaxaridlargacha gidrolizi asosan suytirilgan sulfat kislota bilan 190°C bo‘lgan haroratda gidrolizapparatlarda amalga oshiriladi.

Gidroliz jarayonida monosaxaridlar bilan bir qatorda dekstrinlar-polisaxaridlarning qisman gidroliz mahsulotlari hosil bo‘ladi. Dekstrinlarning monosaxaridlargacha gidrolizi (inversiyasi) invertorlarda 140 °C haroratda amalga oshiriladi.

Oziqa muhitlarida metionin, trionin va boshqa ayrim aminokislotalar bor bo‘lganida auksitotrof mutantlar tomonidan lizin aminokislotasining biosintezi amalga oshiriladi. Ushbu aminokislotalarni olishning sanoat usullaridan biri bo‘lib em achitqilari va boshqa oqsil konsentratlarining kislotali yoki fermentativ gidrolizi hisoblanadi. Kislotali gidroliz gidrolizapparatlarda 120°C gacha bo‘lgan haroratda sulfat yoki xlorid kislotalari kabi katalizatorlar ishtirokida amalga oshiriladi. Oqsillarning fermentativ gidrolizi 40 °C gacha bo‘lgan haroratda pH = 5 ÷ 7 da o‘tadi. Katalizatorlar sifatida proteolitik fermentlar ishlatiladi.

Gidrolizli ishlab chiqarishda 18, 30, 37, 50 va  $80 \text{ m}^3$  sig‘imga ega gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar asosan geometrik o‘lchami, kislotani gidrolizga uzatish usullari hamda gidrolizatni tanlab olish bilan o‘zaro farqlanadi. Korroziyaning oldini olish maqsadida apparatning ichki yuzasi beton qavati (70-90 mm) bilan futerlanadi, keyin esa termokislotaga chidamli materiallar – keramik, ko‘mir yoki grafit plitkalar, yong‘inga bardoshli shamot g‘isht bilan ishlov beriladi. Po‘lat korpusning yuqorigi va pastki bo‘yin qismlari korroziyadan bronza, yuqori po‘lat qopqoq bronza, mis yoki latun vkladishlar bilan himoya qilinadi. Apparatning agressiv muhit bilan aloqada bo‘ladigan barcha shtutserlari bronzadan quyiladi va futerovka ishlaridan oldin o‘rnataladi.

Kislota, suvni uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlarning gidrolizapparat ichidagi joylashuvi suyuqlik oqimlari orqali belgilanadi. Kislota uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlar ma’lum tarzda joylashtirib, gorizontal, vertikal yoki aralash suyuqlik oqimlari hosil qilinadi. Shu tariqa, gidrolizapparatlarning turli hajmlarida gidroliz jarayoni kechishining eng yaxshi sharoitlariga erishiladi.

Gidrolizapparatning ishlash prinsipi quyidagidan iborat. O‘simlik xomashyosi transportyor yordamida yuqorigi bo‘yin qismi orqali apparatga uzatiladi. Xomashyoni zichlash va namlash uchun bir vaqtning o‘zida suv va kislota ham uzatiladi. Yuklashdan keyin apparatning yuqorigi qopqog‘i yopiladi, va pastki shtutser orqali o‘tkir bug‘ uzatiladi. Xomashyoni isitish hamda taxminan  $140^\circ\text{C}$  haroratda qisqa vaqt ushlab turish jarayonida oson gidrolizlanadigan polisaxaridlarning gidrolizi amalga oshadi. Bundan keyin apparatga kislota uzatiladi va bir vaqtning o‘zida tarkibida erigan uglevodorodlarni tutgan gidrolizat tanlab olinadi. Jarayon oxiriga kelib harorat  $190^\circ\text{C}$  gacha ko‘tariladi. Gidroliz oxiriga etganida kislotaning uzatilishi to‘xtatiladi, gidrolizatning qoldig‘i suv bilan chiqarib yuboriladi, suyuqlik qoldig‘i siqib tashlanadi va apparatdan lignin yuklab olinadi. Yuklab olishda pastki tez ishlaydigan klapan ochiladi va  $0,5\div0,7 \text{ MPa}$  bosim ostida lignin quvur bo‘ylab bir necha sekund ichida apparatdan siklonga tushadi.

Ko‘rib chiqilgan va shunga o‘xshash apparatlarda 30% gacha hajmni futerovka egallab, bu yaqqol kamchilik bo‘lib hisoblanadi. Futerovkasiz, titan qotishmalaridan yasalgan apparatlar bu borada mukammalroq hisoblanadi. Davriy ravishda ishlaydigan gidrolizapparatlar quyidagi kamchilikka ega: gidroliz jarayonida xomashyo tez zichlashadi va shu sababli reaksiyon hajmning yarmi ishlatilmay qoladi.

Uzluksiz ishlaydigan gidrolizapparatda sig‘im maksimal darajada ishlatiladi. Buning hisobiga, hamda yuklatishga, xomashyoni isitishga va qoldiqni olib tashlashga ketadigan vaqtning tejalishi sababli apparatlarning ishlab chiqarish quvvati deyarli ikki baravar oshadi. Jarayonning uzluksizligi fizik-kimyoviy parametrлarning doimiyligini, bug‘, xomashyo iste’molining bir me’yorda bo‘lishini, yordamchi uskunalarga tushadigan yuklanishning bir tekisda bo‘lishni hamda shakarlar chiqimining oshishini ta’minlaydi.

Issiqlik yo‘qolishini kamaytirish maqsadida gidrolizapparat yuzasi issiqlik-izolyasiyalovchi material bilan qoplanadi. Apparatning o‘rta silindrik qismiga lapalar biriktirilgan bo‘lib, ulardan biri datchikka ega og‘irlilik o‘lchagichga, boshqasi og‘irlilik o‘lchagichning barqaror ishlashini ta’minlovchi sharnir assoslarga suyanadi.

**Invertorlar** – bu asosiy vazifasi gidrolizatlar yoki sulfit sheloklarda dekstrning uzluksiz gidrolizini ta’minalashdan iborat bo‘lgan qurilmalar.

Inversiya jarayonida monosaxaridlarning miqdori 5-10% ga oshadi va achitqilar rivojlanishini ingibirlovchi bir qator komponentlarning konsentratsiyasi kamayadi. Atmosfera bosimida hajmi 500, 750 va  $1000 \text{ m}^3$  bo‘lgan invertorlar ishlatiladi. Invertor konussimon tubi va xizmat ko‘rsatish maydoniga ega qopqog‘i bo‘lgan vertikal silindrsimon rezervuардан iborat (2-rasm). Ichidan invertor beton yoki poliizobutilenga kislotaga chidamli plitkalar yoki g‘isht bilan futerlanadi. Tashqi tomonidan u issiqlik izolyasiya bilan qoplanadi.

Gidrolizat apparatning pastki silindrik qismiga uchida tarqatuvchi bo‘lgan gorizontal quvur orqali uzluksiz ravishda kiritiladi. Silindrik qismning yuqorigi sathidan pastroqda joylashgan kollektor orqali gidrolizatning saralab olinishi amalga oshiriladi. Gidrolizat invertorda 6-8 soat davomida turadi. Ko‘rib chiqilgan invertorlarning haddan tashqari kattaligi, inversiyaning

davomiyligi va konussimon qismda yig‘ilib qoladigan Cho’kmani chiqarib tashlash uchun invertorni davriy ravishda to‘xtatib turish zaruriyati ularning muhim kamchiligi bo‘lib hisoblanadi.

### **Neytralizatorlar**

Kislotalarni neytrallash, oziqa muhiti komponentlarini eritish va aralashtirish uchun mexanik yoki pnevmatik aralashtiruvchi tuzilmalarga ega vertikal apparatlardan iborat neytralizatorlardan foydalaniladi. Apparatlar komponentlarni yuklash va tayyor muhitni chiqarib olish uchun shtutserlarga, ko‘zdan kechirish, tozalash va remont uchun lyuk-lazlarga, nazorat-o‘lchov asboblariga hamda effektiv va xavfsiz ekspluatatsiya uchun kerakli boshqa tuzilmalarga ega. Texnologiya sharoitlariga qarab apparatlar muhitlarni isitish yoki sovutish uchun mo‘ljallangan idish ichida rubashkalar yoki issiqlikalmashtirgichlarga ega bo‘lishi mumkin. Apparatlar oziqa muhitlarining komponentlariga nisbatan korroziyaga chidamli bo‘lishi kerak. Apparatlarning uzoq vaqt xizmat qilishi va ishining ishonchligi ushbu omillarga bog‘liqdir.

**Neytralizator** – ushlab turgichlar, shuningdek, gips kristallarini o‘stirish uchun mo‘ljallangan. Neytrallovchi agent va gidrolizatni uzatish bilan bir vaqtida neytralizatorga azot, fosfor va kaly manbalarini ularni eritish maqsadida kiritish mumkin.

Mikrobiologik sanoatning achitqi va o‘simlik xomashyosidan etil spirtini ishlab chiqaruvchi barcha zavodlarida uzlusiz ravishda ishlaydigan neytralizatorlar qo‘llaniladi .

Uzlusiz ravishda ishlaydigan neytralizator konussimon tubi hamda kislotaga chidamli po‘latdan yasalgan va yog‘och to‘shagich bilan qoplangan yassi qopqog‘i bo‘lgan po‘latli vertikal korpusdan tashkil topgan. Apparat silindrik va konussimon qismlarining ichki yuzasi korroziyadan betonli ostqavat ustidan kislotaga chidamli plitkalar bilan himoyalangan.

Apparatning tashqi qismi issiqlik izolyasiyasi bilan qoplanib, bu ichki yuza qismida mumsimon moddalarning o‘tirib qolishiga to‘sinqlik qiladi. apparat qopqog‘ida gidrolizat bilan ammiakning suvdagi eritmasi yoki kalsiy gidroksid suspenziyasi aralashishi uchun mo‘ljallangan kislotaga chidamli po‘latdan yasalgan burchakdagi smesitel, oziqa tuzlarini uzatish uchun shtutser hamda apparatdan gazlarni chiqarish uchun shtutser o‘rnataladi. Apparatning pastki konussimon qismida neytralizatorni chiqarish uchun shtutser joylashgan. YOn tomondagi neytralizatorning ketma-ket birikishida neytralizatni kiritish uchun xizmat qiladi. Qopqoq va pastki silindrik qismda remont, apparatni tozalash va ko‘rikdan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan lyuk-lazlar bo‘ladi. Bu borada «Gazlift» tipdagi aralashtiruvchi tuzilmaga ega neytralizatorlar mukammalroq hisoblanadi

Qurilma ketma-ket ulangan har xil diametrдagi to‘rtta diffuzor, hamda siqilgan havoni keltirib beradigan quvurdan iborat. Bunday neytralizatorning ishlash prinsipi quyidagicha: havo quvur orqali pastki diffuzorga kiradi, va neytralizat bilan aralashib, zichligi diffuzorlar devorlaridan tashqaridagi neytralizat zichligidan kichik bo‘lgan gaz-suyuqlik aralashmasini hosil qiladi. Zichliklar farqi natijasida neytralizatorda suyuqlikning intensiv sirkulyasiyasi kechadi. Aralashtirishga ketadigan havoning sarfi 1 m<sup>3</sup> neytralizatga 1 m<sup>3</sup>/min ni tashkil qiladi.

Oziqa muhitlari, tuzlar va turli xil qo‘shimchalar (ko‘pikli o‘chiruvchilar, kislotalar) eritmalarini bevosita olish uchun 100 m<sup>3</sup> gacha sig‘imga ega apparat-smesitellardan foydalaniladi. Ularning barchasi kislotaga chidamli po‘lat yoki korroziyaga bardoshli materiallar bilan futerlangan uglerodli po‘latdan tayyorlanadi. Apparatlar mexanik aralashtiruvchi tuzilmalar, sath o‘lchagichlar va ularning effektiv ekspluatatsiyasi uchun kerakli boshqa moslamalar bilan ta’milangan.

Mikrobiologik sanoatda suspenziyalar hosil bo‘lishi bilan kechadigan an jarayonlar tarqalgan. Dag‘al suspenziyalar o‘zida kattaligi 100 mkm dan oshadigan, yupqalari 0,5 ÷ 100 mkm, loyqalar 0,1 ÷ 0,5 mkm, kolloidli eritmalar 0,1 mkm dan kichik qattiq zarrachalarni tutadi.

Suspenziyalar texnologik jarayonning quyidagi bosqichlarida hosil bo‘ladi: oziqa muhitlari va tuzlarni tayyorlashda, o‘simlik xomashyosi gidrolizatlarini neytrallashda, mikroorganizmlarni kultivirlash va mikrobl li sintez mahsulotlarini ajratib olishda, oqava suvlarni hosil qilish va tozalashda. Suspenziyalarni ajratish **tindirgichlar**, **gidrotsiklonlar** va **filtrlar** yordamida amalgalashiriladi.

Suspenziyalarning Cho’kmaga tushirish orqali ajralishi qattiq zarrachalar va dispersion muhit zichliklari orasidagi farq tufayli kechadi. Ushbu farqning kattalashuvi bilan ajralish effektivligi ham oshadi. Cho’kmaga tushirishdan farqli ravishda, suspenziyalarning filtrlash orqali

ajralishi porali to'siqning ikki tomonidagi bosimlar farqi tufayli sodir bo'ladi. Bunda dispersion muhit to'siqdan o'tadi, qattiq fazasida uning sirtida ushlanib qoladi.

**Tindirgichlar** – bu apparatlar suspenziyalarni gravitatsion maydonda tindirish orqali ajratish uchun qo'llaniladi. Tindirgichlar davriy, yarimuzluksiz va uzlusiz ravishda ishlaydigan bo'ladi. Ular oziqa muhitlari, tuzlar eritmalarining rangini ochlashtirish, gidrolizli ishlab chiqarishlarda gipsni neytralizatdan ajratib olish, oqava suvlarni tozalash va boshqalar uchun ishlatiladi.

Uzlusiz ishlaydigan mexanik tindirgich (3-rasm) konussimon tubi va yassi qopqog'i bo'lgan vertikal silindrik rezervuardan iborat.

Tindirgich Cho'kmani olib tashlash uchun chiqarib olish mexanizmi bilan ta'minlangan. Chiqarib olish tuzilmasi valining pastki qismida taroqlar bilan lopastlardan tuzilgan skrebkalar mahkamlab qo'yilgan. Skrebkali tuzilma val bilan birga tindirgichning metall fermasida joylashgan privodli mexanizm orqali harakatga keltiriladi. Ko'taruvchi mexanizm yordamida chiqarib olish tuzilmasi tindirgich tubidan 200-300 mm balandlikka ko'tarilishi mumkin. Valning yuqorigi qismida ikkita panjaraga ega ichi bo'sh silindrishimon shaklga ega yuklash barabani biriktirilgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda suspenziya uzatiladi. Katta teshiklari bo'lgan yuqorigi panjara tindirgichga yirik qattiq bo'laklarning tushishini oldini oladi, kichik teshiklari bo'lgan pastki panjara esa suspenziyaning tindirgichga bir tekisda tushishiga yordam beradi. Tindirgichning yuqorigi ichki qismida oqizma jelob joylashgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda ochlashtirilgan muhit oqiziladi va patrubok orqali chiqariladi. Shnekli yuk tushirgich shlamni 60-70% namlikkacha siqib olish va uni tindirgichdan uzlusiz tushirish uchun xizmat qiladi. tindirgich lazlar, shtutserlar, xizmat ko'rsatish maydonlari hamda effektiv ekspluatatsiya va xavfsiz ish uchun kerak bo'lgan boshqa tuzilmalar bilan ta'minlangan.

Oziqa tuzlari va muhitlari, neytralizatlarning rangini ochlashtirishda hamda oqava suvlarni mexanik tozalashda yuqorinaporli gidrotsiklonlar ham qo'llaniladi. Gidrotsiklonlarni past konsentratsiyali qattiq fazaga ega suspenziyani ajratuvchi apparatlar bilan birgalikda qo'llash ayniqsa effektiv hisoblanadi. Gidrotsiklonlar sodda tuzilgan, xarakatlanuvchi qismlarga ega emas, kompakt, bir xil ishlab chiqarish quvvatida ancha kichik maydonni egallaydi, tindirgichlar va filtrlarga nisbatan arzon va xizmat ko'rsatishda qulaydir. Kamchiligi bo'lib apparat devorlarining tez ishdan chiqishi va energiyaning ko'p sarflanishi hisoblanadi.

4-rasmda korpusi konussimon silindrik qismlardan tashkil topgan naporli gidrotsiklon tasirlangan. Suspenziya 0,2 MPa bosim ostida nasos orqali, undan keyin silindrik qismga tangensial ulangan quvur bo'ylab uzatiladi. Suspenziyaning vintsimon tarzda harakatlanishida qattiq zarrachalar markazdan yuguruvchi kuchlar ta'siri ostida gidrotsiklon konussimon qismining devorlariga otiladi, pastga tushadi va priemnika boradi. Ochlashtirilgan suyuq fazaning ichki oqimi siklon o'qi yonida tashqi oqimiga qarshi tomonga spiral bo'yicha yo'nalgan bo'ladi va priemnikka chiqariladi. Suspenziyalarning ajralish effektiga pastki otvod patruboki diametrining ochlashtirilgan suyuq fazani chiqaruvchi quvur diametriga bo'lgan nisbati katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nisbat 0,35-0,44 ga teng deb olinadi.

Filtrlash usuli bilan bir jinsli bo'limgan sistemalarni ajratish uchun mo'ljallangan apparatlar filtrlar deb ataladi. Mikrobiologik ishlab chiqarishlar uchun filtr-presslar, barabanli va lentali filtrlar eng perspektiv hisoblanadi.

Filtrni tanlashda suspenziyalarning fizik-kimyoviy xossalalarini, filtrat va Cho'kmaga bo'lgan talablarni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, filtrlarning ishlab chiqarish quvvatini va boshqalarini inobatga olish kerak.

### **O'zlashtirishdagi muhim tayanch so'z va iboralar :**

Gidrolizapparatlar, invertorlar, filtrlash, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, naporli gidrotsiklon, tindirgichlar, suyuq faza, bir jinsli, xizmat ko'rsatish maydonlari, filtr-presslar, lentali filtrlar, oqimli siklon, apparat devorlari, dispersion muhit.

### **Mavzuni yoritish savollari :**

1. Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun qanday uskunalardan foydalaniladi?
2. Suspenziyalarni ajratish qanday uskunalarda amalga oshiriladi?
3. Gidrolizapparatning ishlash prinsipini tushintirib bering.
4. Filtrni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

## **11 – AMALIY MASHG‘ULOT**

### **SUYUQ OZUQA ACHITQISI TAYYORLASH SEXINING TEXNOLOGIK JIHOZLARI XISOBI**

**Ishdan maqsad** Oziqa muhitlarining tayyorlanishi mikrobiologik sintez ishlab chiqarishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Oziqa muhitlari komponentlarining fizik-kimyoviy xossalariiga qarab ular suvda belgilangan harorat va pH da ma’lum nisbatlarda eritiladi yoki suspenziyalanadi.

Texnologiya talablariga qarab oziqa muhitlarini tayyorlash jarayonida ular boyitiladi, bu neytrallash, tindirish, filtrlash, sovutish, mikroorganizmlar hayot faoliyatini ingibirlovchi komponentlarni olib tashlash, muhitlarni biologik aktiv moddalar bilan boyitish va boshqa bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Oziqa muhitlarini va havoni tayyorlab olish uchun turli xil uskunalar ishlatiladi: gidrolizapparatlar, neytralizatorlar, aralashtirgichlarga ega qurilmalar, sterilizatorlar, tindirgichlar, filtrlar, issisqlik almashtirgichlar va boshqalar.

#### **Gidrolizapparatlar va invertorlar.**


Em achitqilar va etil spirtini ishlab chiqarishda uglevodlar manbai bo‘lib yog‘och chiqindilari, kungaboqar po‘stlog‘i, g‘o‘za po‘sti, makkajo‘xori so‘tasi, torf va boshqalar hisoblanadi. Boshlang‘ich xomashyoda uglevodlar achitqilarining oziqlanishi uchun yaroqsiz bo‘lgan birikmalar, ya’ni polisaxaridlar ko‘rinishda bo‘ladi. Sanoatda polisaxaridlarning monosaxaridlargacha gidrolizi asosan suyultirilgan sulfat kislota bilan 190°S bo‘lgan haroratda gidrolizapparatlarda amalga oshiriladi.

Gidroliz jarayonida monosaxaridlar bilan bir qatorda dekstrinlar-polisaxaridlarning qisman gidroliz mahsulotlari hosil bo‘ladi. Dekstrinlarning monosaxaridlargacha gidrolizi (inversiyasi) invertorlarda 140 °C haroratda amalga oshiriladi.

Oziqa muhitlarida metionin, trionin va boshqa ayrim aminokislotalar bor bo‘lganida auksitotrof mutantlar tomonidan lizin aminokislotasining biosintezi amalga oshiriladi. Ushbu aminokislotalarni olishning sanoat usullaridan biri bo‘lib em achitqilar va boshqa oqsil konsentratlarining kislotali yoki fermentativ gidrolizi hisoblanadi. Kislotali gidroliz gidrolizapparatlarda 120°C gacha bo‘lgan haroratda sulfat yoki xlorid kislotalari kabi katalizatorlar ishtirokida amalga oshiriladi. Oqsillarning fermentativ gidrolizi 40 °C gacha bo‘lgan haroratda pH = 5 ÷ 7 da o‘tadi. Katalizatorlar sifatida proteolitik fermentlar ishlatiladi.

Gidrolizli ishlab chiqarishda 18, 30, 37, 50 va 80 m<sup>3</sup> sig‘imga ega gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar qo‘llaniladi. Konstruktiv jihatdan gidrolizapparatlar asosan geometrik o‘lchami, kislotani gidrolizga uzatish usullari hamda gidrolizatni tanlab olish bilan o‘zarlo farqlanadi. Korroziyaning oldini olish maqsadida apparatning ichki yuzasi beton qavati (70-90 mm) bilan futerланади, keyin esa termokislotaga chidamli materiallar – keramik, ko‘mir yoki grafit plitkalar, yong‘inga bardoshli shamot g‘isht bilan ishlov beriladi. Po‘lat korpusning yuqorigi va pastki bo‘yin qismlari korroziyadan bronza, yuqori po‘lat qopqoq bronza, mis yoki latun vkladishlar bilan himoya qilinadi. Apparatning agressiv muhit bilan aloqada bo‘ladigan barcha shtutserlari bronzadan quyiladi va futerovka ishlaridan oldin o‘rnataladi.

Kislota, suvni uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlarning gidrolizapparat ichidagi joylashuvi suyuqlik oqimlari orqali belgilanganadi. Kislotani uzatish va gidrolizatni tanlab olish uchun quvurlar ma’lum tarzda joylashtirib, gorizontal, vertikal yoki aralash suyuqlik oqimlari hosil qilinadi. SHu tariqa, gidrolizapparatlarning turli hajmlarida gidroliz jarayoni kechishining eng yaxshi sharoitlariga erishiladi.



**1-rasm. Gidrolizapparat**

1-po'lat korpus; 2 – betonli qavat; 3 – futerovka; 4 – uzaytirilgan filtrovchi quvurlar; 5 – qisqa filtrovchi quvurlar; 6 – gidrolizatni tanlab olish va bug'ni uzatish uchun shtutser; 7-klapan; 8 – og'irlik o'lchagich; 9 – suvni uzatish uchun shtutser; 10 – kislotani uzatish uchun shtutser; 11 – qopqoq; 12 – sduvka uchun shtutser.


Gidrolizapparatning ishslash prinsipi quyidagidan iborat. O'simlik xomashyosi transportyor yordamida yuqorigi bo'yin qismi orqali apparatga uzatiladi. Xomashyoni zichlash va namlash uchun bir vaqtning o'zida suv va kislota ham uzatiladi. Yuklashdan keyin apparatning yuqorigi qopqog'i yopiladi, va pastki shtutser orqali o'tkir bug' uzatiladi. Xomashyoni isitish hamda taxminan  $140^{\circ}\text{C}$  haroratda qisqa vaqt ushlab turish jarayonida oson gidrolizlanadigan polisaxaridlarning gidrolizi amalga oshadi. Bundan keyin apparatga kislota uzatiladi va bir vaqtning o'zida tarkibida erigan uglevodorodlarni tutgan gidrolizat tanlab olinadi. Jarayon oxiriga kelib harorat  $190^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi. Gidroliz oxiriga etganida kislotaning uzatilishi to'xtatiladi, gidrolizatning qoldig'i suv bilan chiqarib yuboriladi, suyuqlik qoldig'i siqib tashlanadi va apparatdan lignin yuklab olinadi. Yuklab olishda pastki tez ishlaydigan klapan ochiladi va  $0,5\div0,7$  MPa bosim ostida lignin quvur bo'ylab bir necha sekund ichida apparatdan siklonga tushadi.

Ko'rib chiqilgan va shunga o'xshash apparatlarda 30% gacha hajmni futerovka egallab, bu yaqqol kamchilik bo'lib hisoblanadi. Futerovkasiz, titan qotishmalaridan yasalgan apparatlar bu borada mukammalroq hisoblanadi. Davriy ravishda ishlaydigan gidrolizapparatlar quyidagi kamchilikka ega: gidroliz jarayonida xomashyo tez zichlashadi va shu sababli reaksiyon hajmning yarmi ishlatilmay qoladi.

Uzluksiz ishlaydigan gidrolizapparatda sig'im maksimal darajada ishlatiladi. Buning hisobiga, hamda yuklatishga, xomashyoni isitishga va qoldiqni olib tashlashga ketadigan vaqtning tejalishi sababli apparatlarning ishlab chiqarish quvvati deyarli ikki baravar oshadi. Jarayonning uzluksizligi fizik-kimyoviy parametrлarning doimiyligini, bug', xomashyo iste'molining bir me'yorda bo'lishini, yordamchi uskunalarga tushadigan yuklanishning bir tekisda bo'lishni hamda shakarlar chiqimining oshishini ta'minlaydi.

Issiqlik yo'qolishini kamaytirish maqsadida gidrolizapparat yuzasi issiqlik-izolyasiyalovchi material bilan qoplanadi. Apparatning o'rta silindrik qismiga lapalar biriktirilgan bo'lib, ulardan biri datchikka ega og'irlik o'lchagichga, boshqasi og'irlik o'lchagichning barqaror ishlashini ta'minlashdan iborat bo'lgan qurilmalar.

Inversiya jarayonida monosaxaridlarning miqdori 5-10% ga oshadi va achitqilar rivojlanishini ingibirlovchi bir qator komponentlarning konsentratsiyasi kamayadi. Atmosfera bosimida hajmi 500, 750 va 1000 m<sup>3</sup> bo‘lgan invertorlar ishlatiladi. Invertor konussimon tubi va xizmat ko‘rsatish maydoniga ega qopqog‘i bo‘lgan vertikal silindrsimon rezervuardan iborat (2-rasm). Ichidan invertor beton yoki poliizobrutilenga kislotaga chidamli plitkalar yoki g‘isht bilan futerlanadi. Tashqi tomonidan u issiqlik izolyasiya bilan qoplanadi.



**2-rasm. 500 m<sup>3</sup> hajmli invertor**

1 – temirbetonli poddon; 2 – taqsimlagich; 3 – monometrik termometr uchun cho‘ntak; 4 – aralashtirish kondensatori; 5 – xizmat ko‘rsatish maydoni; 6 – futerovka; 7 – korpus; 8 – uzukli kollektor; 9 – silindrsimon ustun.

Gidrolizat apparatning pastki silindrik qismiga uchida tarqatuvchi bo‘lgan gorizontal quvur orqali uzlusiz ravishda kiritiladi. Silindrik qismning yuqorigi sathidan pastroqda joylashgan kollektor orqali gidrolizatning saralab olinishi amalga oshiriladi. Gidrolizat invertorda 6-8 soat davomida turadi. Ko‘rib chiqilgan invertorlarning haddan tashqari kattaligi, inversyaning davomiyligi va konussimon qismda yig‘ilib qoladigan Cho’kmani chiqarib tashlash uchun invertorni davriy ravishda to‘xtatib turish zaruriyati ularning muhim kamchiligi bo‘lib hisoblanadi.

#### **Neytralizatorlar**


Kislotalarni neytrallash, oziqa muhitni komponentlarini eritish va aralashtirish uchun mexanik yoki pnevmatik aralashtiruvchi tuzilmalarga ega vertikal apparatlardan iborat neytralizatorlardan foydalaniladi. Apparatlar komponentlarni yuklash va tayyor muhitni chiqarib olish uchun shtutserlarga, ko‘zdan kechirish, tozalash va remont uchun lyuk-lazlarga, nazorat-o‘lchov asboblariga hamda effektiv va xavfsiz ekspluatatsiya uchun kerakli boshqa tuzilmalarga ega. Texnologiya sharoitlariga qarab apparatlar muhitlarni isitish yoki sovutish uchun mo‘ljallangan idish ichida rubashkalar yoki issiqlikalmashirgichlarga ega bo‘lishi mumkin. Apparatlar oziqa muhitlarining komponentlariga nisbatan korroziyaga chidamli bo‘lishi kerak. Apparatlarning uzoq vaqt xizmat qilishi va ishining ishonchligi ushbu omillarga bog‘liqdir.

**Neytralizator** – ushlab turgichlar, shuningdek, gips kristallarini o‘stirish uchun mo‘ljallangan. Neytrallovchi agent va gidrolizatni uzatish bilan bir vaqtda neytralizatorga azot, fosfor va kaliy manbalarini ularni eritish maqsadida kiritish mumkin.

Mikrobiologik sanoatning achitqi va o‘simlik xomashyosidan etil spirtini ishlab chiqaruvchi barcha zavodlarida uzlusiz ravishda ishlaydigan neytralizatorlar qo‘llaniladi .

Uzluksiz ravishda ishlaydigan neytralizator konussimon tubi hamda kislotaga chidamli po'latdan yasalgan va yog'och to'shagich bilan qoplangan yassi qopqog'i bo'lган po'latli vertikal korpusdan tashkil topgan. Apparat silindrik va konussimon qismlarining ichki yuzasi korroziyadan betonli ostqavat ustidan kislotaga chidamli plitkalar bilan himoyalangan.

Apparatning tashqi qismi issiqlik izolyasiyasi bilan qoplanib, bu ichki yuza qismida mumsimon moddalarining o'tirib qolishiga to'sqinlik qiladi. apparat qopqog'ida gidrolizat bilan ammiakning suvdagi eritmasi yoki kalsiy gidroksid suspenziyasi aralashishi uchun mo'ljallangan kislotaga chidamli po'latdan yasalgan burchakdagi smesitel, oziqa tuzlarini uzatish uchun shtutser hamda apparatdan gazlarni chiqarish uchun shtutser o'rnatiladi. Apparatning pastki konussimon qismida neytralizatorni chiqarish uchun shtutser joylashgan. YOn tomondagi neytralizatorning ketma-ket birikishida neytralizatni kiritish uchun xizmat qiladi. Qopqoq va pastki silindrik qismda remont, apparatni tozalash va ko'rikdan o'tkazish uchun mo'ljallangan lyuk-lazlar bo'ladi. Bu borada «Gazlift» tipdagi aralashtiruvchi tuzilmaga ega neytralizatorlar mukammalroq hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. «Gazlift» tipidagi neytralizator – ushlab turgich

- 1 – ko'pik bilan o'chirishda suvni uzatish uchun shtutser;
- 2 va 3 – lyuklar;
- 4 – apparatlarning ketma-ket birikishda neytralizatning kirish shtutseri;
- 5 – kosinka;
- 6 – diffuzorlar;
- 7 – lyuk-laz;
- 8 – diffuzor mahkamlanishi.

Qurilma ketma-ket ulangan har xil diametrдаги то'ртta diffuzor, hamda siqilgan havoni keltirib beradigan quvurdan iborat. Bunday neytralizatorning ishlash prinsipi quyidagicha: havo quvur orqali pastki diffuzorga kiradi, va neytralizat bilan aralashib, zichligi diffuzorlar devorlaridan tashqaridagi neytralizat zichligidan kichik bo'lган gaz-suyuqlik aralashmasini hosil qiladi. Zichliklar farqi natijasida neytralizatorda suyuqlikning intensiv sirkulyasiyasi kechadi. Aralashtirishga ketadigan havoning sarfi  $1\text{ m}^3$  neytralizatga  $1\text{ m}^3/\text{min}$  ni tashkil qiladi.

Oziqa muhitlari, tuzlar va turli xil qo'shimchalar (ko'pikli o'chiruvchilar, kislotalar) eritmalarini bevosita olish uchun  $100\text{ m}^3$  gacha sig'imga ega apparat-smesitellardan foydalaniladi. Ularning barchasi kislotaga chidamli po'lat yoki korroziyaga bardoshli materiallar bilan futerlangan uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Apparatlar mexanik aralashtiruvchi tuzilmalar, sath o'lchagichlar va ularning effektiv ekspluatatsiyasi uchun kerakli boshqa moslamalar bilan ta'minlangan.


Mikrobiologik sanoatda suspenziyalar hosil bo'lishi bilan kechadigan an jarayonlar tarqalgan. Dag'al suspenziyalar o'zida kattaligi  $100\text{ mkm}$  dan oshadigan, yupqalari  $0,5 \div 100\text{ mkm}$ , loyqalar  $0,1 \div 0,5\text{ mkm}$ , kolloidli eritmalar  $0,1\text{ mkm}$  dan kichik qattiq zarrachalarni tutadi.

Suspenziyalar texnologik jarayonning quyidagi bosqichlarida hosil bo'ladi: oziqa muhitlari va tuzlarni tayyorlashda, o'simlik xomashyosi gidrolizatlarini neytrallashda, mikroorganizmlarni

kultivirlash va mikrobl li sintez mahsulotlarini ajratib olishda, oqava suvlarni hosil qilish va tozalashda. Suspenziyalarni ajratish ***tindirgichlar***, ***gidrotsiklonlar*** va ***filtrlar*** yordamida amalga oshiriladi.

Suspenziyalarning Cho'kmaga tushirish orqali ajralishi qattiq zarrachalar va dispersion muhit zichliklari orasidagi farq tufayli kechadi. Ushbu farqning kattalashuvi bilan ajralish effektivligi ham oshadi. Cho'kmaga tushirishdan farqli ravishda, suspenziyalarning filtrlash orqali ajralishi porali to'siqning ikki tomonidagi bosimlar farqi tufayli sodir bo'ladi. Bunda dispersion muhit to'siqdan o'tadi, qattiq fazada esa uning sirtida ushlanib qoladi.

***Tindirgichlar*** – bu apparatlar suspenziyalarni gravitatsion maydonda tindirish orqali ajratish uchun qo'llaniladi. Tindirgichlar davriy, yarimuzluksiz va uzlusiz ravishda ishlaydigan bo'ladi. Ular oziqa muhitlari, tuzlar eritmalarining rangini ochlashtirish, gidrolizli ishlab chiqarishlarda gipsni neytralizatdan ajratib olish, oqava suvlarni tozalash va boshqalar uchun ishlatiladi.



3-rasm. Mexanik tindirgich

1 - korpus; 2 - oqizma jelob; 3 - chiqarib olish tuzilmasining privodi; 4 – ko'taruvchi mexanizm; 5 – xizmat ko'rsatish uchun maydonlar; 6 – issiqqlik izolyasiya; 7 – tiqin; 8 – shnekli yuk tushirgich; 9 – uzukli tirkach; 10 – chiqarib olish tuzilmasi; 11 – yuklash barabani.


Uzlusiz ishlaydigan mexanik tindirgich (3-rasm) konussimon tubi va yassi qopqog'i bo'lgan vertikal silindrik rezervuardan iborat.

Tindirgich Cho'kmani olib tashlash uchun chiqarib olish mexanizmi bilan ta'minlangan. Chiqarib olish tuzilmasi valining pastki qismida taroqlar bilan lopastlardan tuzilgan skrebkalar mahkamlab qo'yilgan. Skrebkali tuzilma val bilan birga tindirgichning metall fermasida joylashgan privodli mexanizm orqali harakatga keltiriladi. Ko'taruvchi mexanizm yordamida chiqarib olish tuzilmasi tindirgich tubidan 200-300 mm balandlikka ko'tarilishi mumkin. Valning yuqorigi qismida ikkita panjaraga ega ichi bo'sh silindrsimon shaklga ega yuklash barabani biriktirilgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda suspenziya uzatiladi. Katta teshiklari bo'lgan yuqorigi panjara tindirgichga yirik qattiq bo'laklarning tushishini oldini oladi, kichik teshiklari bo'lgan pastki panjara esa suspenziyaning tindirgichga bir tekisda tushishiga yordam beradi. Tindirgichning yuqorigi ichki qismida oqizma jelob joylashgan bo'lib, unga uzlusiz ravishda ochlashtirilgan muhit oqiziladi va patrubok orqali chiqariladi. SHnekli yuk tushirgich shlamni 60-70% namlikkacha siqib olish va uni tindirgichdan uzlusiz tushirish uchun xizmat qiladi. tindirgich lazlar, shtutserlar, xizmat ko'rsatish maydonlari hamda effektiv ekspluatatsiya va xavfsiz ish uchun kerak bo'lgan boshqa tuzilmalar bilan ta'minlangan.

Oziqa tuzlari va muhitlari, neytralizatlarning rangini ochlashtirishda hamda oqava suvlarni mexanik tozalashda yuqorinaporli gidrotsiklonlar ham qo'llaniladi. Gidrotsiklonlarni past konsentratsiyali qattiq fazaga ega suspenziyani ajratuvchi apparatlar bilan birgalikda qo'llash ayniqsa effektiv hisoblanadi. Gidrotsiklonlar sodda tuzilgan, xarakatlanuvchi qismlarga ega emas, kompakt, bir xil ishlab chiqarish quvvatida ancha kichik maydonni egallaydi, tindirgichlar va

filtrlarga nisbatan arzon va xizmat ko'rsatishda qulaydir. Kamchiligi bo'lib apparat devorlarining tez ishdan chiqishi va energiyaning ko'p sarflanishi hisoblanadi. 4-rasmda korpusi konussimon silindrik qismlardan tashkil topgan naporli gidrotsiklon tasirlangan. Suspenziya 0,2 MPa bosim ostida nasos orqali, undan keyin silindrik qismga tangensial ulangan quvur bo'ylab uzatiladi. Suspenziyaning vintsimon tarzda harakatlanishida qattiq zarrachalar markazdan yuguruvchi kuchlar ta'siri ostida gidrotsiklon konussimon qismining devorlariga otiladi, pastga tushadi va priemnika boradi. Ochlashtirilgan suyuq fazaning ichki oqimi siklon o'qi yonida tashqi oqimga qarshi tomonga spiral bo'yicha yo'nalgan bo'ladi va priemnikka chiqariladi. Suspenziyalarning ajralish effektiga pastki otvod patruboki diametrining ochlashtirilgan suyuq fazani chiqaruvchi quvur diametriga bo'lgan nisbati katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nisbat 0,35-0,44 ga teng deb olinadi.

**4-rasm. Naporli gidrotsiklon**



- 5- tashqi oqim;
- 6- Cho'kma;
- 7- ichki oqim;
- 8- hidrotsiklonning konussimon qismi.

Filtrlash usuli bilan bir jinsli bo'lmagan sistemalarni ajratish uchun mo'ljallangan apparatlar filtrlar deb ataladi. Mikrobiologik ishlab chiqarishlar uchun filtr-presslar, barabanli va lentali filtrlar eng perspektiv hisoblanadi.

Filtrni tanlashda suspenziyalarning fizik-kimyoviy xossalari, filtrat va Cho'kmaga bo'lgan talablarni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, filtrlarning ishlab chiqarish quvvatini va boshqalarni inobatga olish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Gaponov K.P. Protsessi i apparati mikrobiologicheskix proizvodstv, M.: Legkaya i pishevaya promishlennost. 1981. -239 s.
2. Sokolov V.N.. Domanskiy I.V. Gazojidkostnie reaktori. L.: Mashino

## **12 – AMALIY MASHG'ULOT ASOSIY VA YORDAMCHI USKUNALARING APPARATURAVIY XISOBI**

**Ishdan maqsad** Biotexnologiya - hozirgi vaqtda insoniyatning eng asosiy dolzarb muammolaridan biri hisoblanmish - oziq-ovqat, energetik resurs, atrof-muxit ifloslanishining oldini olish bilan bog'lik muammolari echimini topishga xizmat kiladi. Mikroorganizmlar, o'simlik va hayvon xujayralari, sun'iy oziqa muhitlarida o'stirilayotgan hujayra, to'qima va organlarni

biosintetik potensialidan amaliy foydalanishda bioreaktor va biotexnologik jarayoi uskunalarining ahamiyati katta. Hozirgi vaktida dunyoning ko‘plab manlakatlarida biotexnologiyaning tarakkiyotiga asosiy e’tibor karatilmokda, chunki boshka texnologiyalarga karaganda, biotexnologik jarayonlari energiya sarfining kamligi, deyarli chiknndisnligi, ekologik sofligi jixatidan bir kator afzallikkarga ega. Bundan tashkari bu texnologiyalar muayyan asbob-uskuna, texnik kurilma va preparatlardan foydalanishni talab kiladi, shuningdek, iqlim sharoitlariga karamasdan kichik xajmni egallaydigan maydonlarda xam tadqiqotlar o‘tkazish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamonda ko‘proq diqqat e’tibor tirik organizlarning hayot-faoliyatiga suyanib olib boriladigan sanoat jarayonlariga qaratilmoqda va ular biotexnologik jarayonlar deb ataladi. Biotexnologiyani gulkirab rivojlanishi oxirgi 40 yillarga to‘g‘ri kelib, biologiya fanining yutuqlari, genetika va hujayra injeneriyasi texnologiyalarining ishlanmalarini yuzaga kelishi hamda tabiiy resurslarni kamayishi (yoki qimmatlashishi), ananaviy texnologiyalarning inqirozga uchrashi bilan bog‘liqidir. Biotexnologiyaning rivojlanishi keljakda iqtisodiy va ekologik manfaatdorlikka olib keladi.

Biotexnologiyaning bugungi kundagi faol rivojlanayotgan ilmiy yunalishi - mikrobiologik biotexnologiyadir yoki uni mikrob biotexnologiyasi deb ham yuritiladi. Mikrob biotexnologiyasi rivojlanishi birinchidan ayrim mahsulotlarga bo‘lgan.

Apparatning texnologik hisobi deganda, uning moddiy va issiqlik balanslari, apparatning asosiy o‘lchamlari , gidravlik hisobi, normativ sarflar aniqlanish hisob kitoblari tushiniladi. Apparatning texnologik hisobi bo‘yicha quyidagilarni aniqlash kerak.

yuqori va quyi mahsulotlarning tarkibi va miqdori;

yuqori va quyi desorb harorati;

isitgichning issiqligi.

*Absorbsiya - bu gazlar aralashmasidan biror moddaning suyuq fazaga selektiv ravishda yutilish jarayonidir.*

*Absorbsiyaga teskari jarayon, ya’ni yutilgan komponentlarni suyuqlikdan ajratib olish desorbsiya deyiladi.*

Texnologik hisoblashning asosiy turlari.

Texnologik jarayonlarning amalga oshirishda qayta ishlash uchun modda va materiallar kerak bo‘ladi. Ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashda apparat va jarayonlarning o‘lchamlari, yoqilg‘i sarfi hisobga olinadi. Texnologik hisoblar material va energetik balanslar asosida amalga oshiriladi. Gidravlik hisoblar bo‘yicha ishchi o‘lchamlar o‘lchanadi, shuningdek, apparatning to‘liq ishlashi uchun bosim va temperaturaning o‘zgarishi o‘rganiladi.

Jarayon uchun material balanslarni komponenet yoki elementlar hisobida hisoblash mumkin. Balanslar tenglik, tajriba, sxema yoki diagramma ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Bioreaktor o‘lchamini tanlash

Bioraktor o‘lchami kubik metrda, xom-ashyo sifati, turi miqdoriga, shuningdek, bijg‘itish davomiyligi va haroratiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Bioreaktor o‘lchami va kunlik yuklanadigan xom-ashyo me’yorining nisbati

Kunlik yuklanadigan xom-ashyoning miqdori bijg‘itish davomiyligi va tanlangan haroratga nisbatan aniqlanadi. Bioreaktorda mezofil rejimda bijg‘itish davomiyligi 10 kundan 20 kungacha davom etadi. Kundalik quyiladigan xom-ashyoning me’yori esa bioreaktordagi umumiy xom-ashyoning 1/20 dan 1/10 gacha nisbatda bo‘ladi.

Aniq miqdordagi xom-ashyoni qayta ishlash uchun bioreaktor o‘lchami. Dastlab hayvonlar soniga bog‘liq holda biogaz uskunasiga tushadigan kundalik go‘ng miqdori (DN) aniqlanadi. So‘ngra xom-ashyo suv yordamida 86-92% namlikkacha suyultiriladi.

Ko‘pchilik qishloq xo‘jalik biogaz uskunalarida go‘ng va suv miqdori 1:3 dan 2:1 nisbatgacha qo‘llaniladi.

SH

Shunday qilib, yuklanadigan xom-ashyo (D) – bu xo‘jalik qoldiqlari summasi (DN) va suv (DV) aralashmasiga teng.

Xom-ashyoni mezofil rejimda qayta ishlash uchun xom-ashyoning kundalik me'yori uskunaga quyiladigan umumiyligi xom-ashyoning (OS) 10% iga teng bo'ladi.

SHunday qilib, bioreaktor o'lchami (OR) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

OS = 2/3 OR

OR = 1,5 OS

Bunda:

$$OS = 10 \times D \quad D = DN + DV$$

Xo'jalikda 10 bosh yirik qoramol, 20 bosh cho'chqa va 35 bosh tovuq boqilganda bioreaktor o'lchami quyidagicha bo'ladi:

1 bosh yirik qoramolning kundalik ekskrementining hajmi 55 kg;

1 bosh cho'chqaniki 4,5 kg, 1 bosh tovuqniki 0,17 kg ga teng bo'ladi.

Demak, xo'jalikning kundalik axlat chiqindisi (DN) quyidagiga teng bo'ladi:  $10 \times 55 + 20 \times 4,5 + 35 \times 0,17 = 550 + 90 + 5,95 = 645,95$  kg yoki taxminan 646 kg ni tashkil etadi.

Ekskrementlarning namligi cho'chqanida va qoramollarda 86%, tovuqlarnikida esa 75% ga teng bo'ladi.

85% li namlikni ta'minlash uchun 3,9 l suv qo'shish zarur (4 kg atrofida).

Demak, kundalik quyiladigan xom-ashyo miqdori 650 kg.

Bioreaktorning to'liq xom-ashyo bilan to'ldirilishi OS =  $10 \times 0,65 = 6,5$  t va bioreaktor hajmi OR =  $1,5 \times 6,5 = 9,75$  yoki taxminan 10m<sup>3</sup> ga teng bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1.A.Yu.vinarov , I.s.gordeev, a.a.kuxarenko, v.i.panfilov . fermentatsionnie apparati dlya protsessov mikrobiologicheskogo sintnza, Moskva DeLi print, 2005

2.Viestur U.E. i dr. Biotexnologiya. Biologicheskie agenti. Texnologiya, apparatura. Riga., zinnate. 2005. S.261.

## 13 – AMALIY MASHG'ULOT USKUNANI STERILLASH REJIMI XISOBI

**Ishdan maqsad:** Mikroorganizmlarni o'stirish va ularni tekshirishda ishlatiladigan turli oziq muhitlarini tayyorlash, sterillash usullarini o'rghanish.

**Kerakli jihozlar:** go'sht, pepton, maxsus tunuka voronka, shisha voronka, filtr qog'oz, qizil lakmus qoroz, kristalik soda, avtoklav, probirka va kolbalar, jelatina va agar-agar, Kox qaynatgichi, tuxum.

**Ishning borishi:** Mikrobiologiya amaliyotida mikroorganizmlarning morfologiyasini va fiziologik jarayonlarini o'rghanish hamda ularni bir-biridan ajratib olish uchun quyidagi oziq muhitlari ishlatiladi:

Sterillash (lotincha-sterilis—nasilsiz) fizik va kimyoviy yordamida mikroorganizmlarni o'ldirishdir. Mikrobiologiya amaliyotida sterillash eng asosiy va zarur usularidan biridir. U faqat sterillanayotgan ob'ektning sirtidagi mikroorganizmlarni o'ldiribgina qolmay, balki ob'ekti ichidagi mikroorganizmlarni ham o'ldiradi. Oziqli muhitlar, idishlar har-xil asbobolar va boshqa narsalar sterillanadi. Sterillanadigan material mikroorganizmlar qayta tushmasligi uchun sterillashdan oldin quyidagicha ma'lum bir usul bilan himoyalanadi. Petri idishlari 2-5 tadan qilib qog'azga o'raladi, probirka va kolbalarni paxta dokali tiqin qog'oz qopqoqchalar bilan yopiladi. Pepitkani uchi paxta tiqini bilan bikitiladi, qog'oz lentalar (kalka va shunga o'xshash) bilan o'raladi, bir nechtasini birlashtirib bitta qog'ozga yoki, maxsus metall pinallarga solib sterillanadi. Probirkalar 10-20 tadan kilib bitta qog'ozga o'rladai. Sterillashda har xil o'lcham va shakildagi(dumalok yokikvadrat) metall qutichalar keng ishlatiladi. Kul'turani ekishda petri idishlariga oziqa muhitini quyganda va boshqa ishlarda kulturalarga mikroorganizmlar tushib qolmasligi uchun xona, kiyim va atrofdagi narsalar toza bo'lishi shart. Mikrobiologik ekishlarini shunday shariotda olib borish zarurki, bunday kul'turalarning tashqi tomonidan zararlanmasligi lozim, ya'ni aseptik sharoit yaratish lozim.

### *Srerillash usullari:*

Sterillashning turli usullari bor: bo‘g‘, havo, kimyoviy, ion nurlanish va boshqa usullar. Qaysi usulni tanlash o‘rganilayotgan ob’ekt, uning qo‘llanilishi va qanday apparatura borligiga bog‘liqdir.

Sterillash usullari asosan 2 guruhga bo‘linadi:

#### **1. Yuqori haroratli sterillash**

#### **2. Mehanik (sovuuq) sterillash**

Yuqori haroratli sterillashga quyidagi usullar kiradi.

a) Filambirlash –yoki olovda qizdirish.

b) Quruq issiqlikda.

v) Qaunatish.



g) O‘tuvchi bug’lash

d) Pasteriasiya

e) Tindalizasiya usuli.

j) Bosim va bug’ yordamida.

**Idishlar.** Mikrobiologik tadqiqotlar uchun har xil shisha idishlar talab etiladi. Petri likobchasi (diametri 10 sm, balandligi 1,5 sm) qattiq oziq muhitda mikroorganizmlarni o‘sirish uchun, tebratgichga o‘rnataladigan kolbalar aerob mikroorganizmlarni o‘sirish uchun, probirkalar va naychali kolbalar bijg‘ish jarayonlarini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Shuningdek, oddiy kimyoviy idishlardan ham keng foydalanoladi. Bular jumlasiga tubi yassi, konussimon, Erlenmeyer kolbasi, tubi dumaloq, o‘lchov kolbalar; darajalangan (1, 2, 5, 10 ml li) pipetkalar, mor pipetkalari (1, 2, 5, 10, 20, 25, 50, 100 ml li), kapillyarli Paster pipetkalari, 18x2,0, 18x1,5, 15x1,5 sm li agronomik probirkalari (rangsiz), byuretkalar, tomizg‘ichlar, voronkalar, menzurka, silindr, byuksva boshqalar kiradi.



#### **Zeyts filtrlari:**

a– shisha tutqichli; b– metall tutqichli


#### **Paxta tiqinlarni tayyorlash:**

a– to‘g‘ri; b– noto‘g‘ri

Oziq muhitlarini tayyorlash va sterillash hamda mikroorganizmlar to‘plamini o‘sirish uchun ishlatiladigan kolba va probirkalar paxtali tiqinlar (6-rasm) bilan berkitiladi. Tiqinlar qo‘lda yoki maxsus mashina yordamida tayyorlanadi. To‘g‘ri tayyorlangan tiqin 3-5 sm uzunlikda, probirkaga zinch kiradigan, mahkam va ko‘p marta ishlatilganda o‘z shaklini o‘zgartirmaydigan bo‘lishi kerak. Agar paxtali tiqimni doka bilan o‘rab, yuqori qismi ip bilan mahkam bog‘lab qo‘yilsa, u yaxshi saqlanadi.

**Jihoz.** Mikrobiologiya amaliyotida ilmoqlar, ninalar, shpatellar (7, 8-rasm), pinset, qaychi, tiqimlar uchun parma, pipetkalar uchun metall silindr probirkalarni sterillash uchun teshikchali sim yoki metall savatchalar, probirkalar uchun plastmassa yoki metall shtativlar va shu kabi boshqa jihoz qo‘llaniladi.

Ilmoq va ninalar uzunligi 8 sm va diametri 0,4-0,5 mm bo‘lgan platina, nikel yoki xromli nikel simlardan tayyorlanadi, hamda shisha yoki metall ushlagichlarga payvandlanadi. Ekish uchun shpatellar 4-5 mm qalinligdagi shisha tayoqchalardan tayyorlanadi.



**14-rasm. Mikroblarni ekishda qo'llanadigan igna (a) va ilmoq:**  
b va c – ilmoq noto'g'ri bajarilgan;  
d – ilmoq to'g'ri bajarilgan.

**15-rasm. Mikroorganizmlarni ekishda qo'llanadigan asboblar:**  
1 – mikrobiologik ilmoq; 2 – mikrobiologik igna; 3 – shpatel.


**14-rasm. Zeys filtri:**  
a – filtrlanuvchi suyuqlikni quyish uchun voronka;  
b – filtr; c – havoni tortib turish uchun Komovskiy nasosi.

**Ishdan maqsad:** Mikroorganizmlarnio'stirish, ko'paytirish uchun zarur idishlarni, jihozlarni va tayyorlangan oziq muhitlarini sterillash usullarini o'rGANISH.

**Kox qaynatgichida sterillash.** Buning uchun qaynatgichga 5 smqalinlikda suv quyiladi. So'ngra sterillanadigan probirka va kolbalar sim savatga yoki tunuka chelakka joylanib, qaynatgich ichidagi tirkak ustiga qo'yiladida, qaynatgichning qopqog'i yopiladi (15-rasm). Ular 3 kun davomida 3 marta sterillanadi.


**Birinchi kuni** qaynatgich ichidagi probirka yoki kolbalar 100°C haroratda 30 minut qizdirilganda, spora hosil qilmaydigan hamda sporalari issiqqa chidamsiz bakteriyalar nobud bo'ladi. Sterillanayotgan idishlar Kox qaynatgichida kelgusi kungacha qoldiriladi. **Ikkinchi kuni** qaynatgich qaytadan 100°C gacha qizdirilganda sporalari issiqqa chidamli bakteriyalar ham nobud bo'ladi. Oziq muhitini butunlay sterillash maqsadida **uchinchikuni** yana 30 minut qizdiriladi. Shunda oziq muhiti mikroorganizmlardan butunlay tozalanadi.

**Avtoklavda sterillash.** Avtoklavga avval 5-10 smqalinlikda suv quyiladi. So'ngra sterillanadigan buyumlar unga joylanib, qopqog'i mahkam bekitiladi. Ichidagi havo chiqib ketguncha uning jumragi ochiq holda qoldiriladi.



**15-rasm. Kox qaynatgichi**

Suv bug'i bir tekis chiqqa boshlagandan keyin jumragi bekitiladi (16-rasm). Avtoklavga o'rnatilgan manometr bir atmosferaga ko'tarilganligi kuzatiladi. Manometr bosim bir atmosfera ko'tarilganini ko'rsatgan vaqtida avtoklavning ichidagi va probirka ichidagi oziq muhitining harorati  $120^{\circ}\text{C}$  ga yetadi. Bunday haroratda oziq muhitidagi mikroorganizmlarning hammasi nobud bo'ladi.



**16-rasm. Avtoklav turlari:** *a – vertikal; b – gorizontal shakldagi avtoklavlar; c – strillash uchun qo'yilgan buyumlarning o'rnatilishi.*

Sterillash 20 minut davom etadi. Shundan so'ng manometr strelkasi nol darajaga kelguncha avtoklav sovitiladi, so'ngra bug' chiqib bo'lguncha jumragi ochiq qoldiriladi. Bug' chiqishi to'xtagandan keyin qopqog'i ochilib, undan sterillangan oziq muhiti olinadi.

Sut va issiqlik ta'sirida buziladigan boshqa suyuqliklar ichidagi sporasiz bakteriyalarni nobud qilish maqsadida pasterlash usuli qo'llaniladi. Bu usulda suyuqliklar  $60-70^{\circ}\text{C}$  issiqda 15-30 minut yoki  $70-80^{\circ}\text{C}$  issiqda 5-10 minut qizdiriladi.

Yuqoridagi usullardan tashqari, **sovuq sterillash usuli** ham qo'llaniladi. Bu holda Paster-Shamberlen ishlab chiqqagan sopol idishlardan foydalaniladi. Buning uchun sterillangan eritma mayda teshikchalari bo'lgan sopol filtrdan o'tkaziladi. Biroq bakteriofaglar va ultramikroblar sopol filtr orqali o'tib keta oladi. Shuning uchun bunday filtratda mikroblar bo'lmaydi deyish noto'g'ri. Keyingi yillarda asbestdan yasalgan Zeysts filtri ham qo'llanilmoqda (17-rasm).

Sterillangan oziq muhitlarini sterillangan idishlarga solish kerak. Shu sababli idishlar ham quruq issiqda barvaqt sterillab qo'yilishi kerak. Buning uchun Paster pechkasi yoki quritgich shkaflar ishlatiladi (18-rasm). Petri va Kox idishlari, probirkalarva ishlatiladigan boshqa buyumlar qog'ozga o'ralib, quritish shkafigajoylanadi va harorat  $150-160^{\circ}\text{C}$ ga etguncha 2 soat davomida

qizdiriladi. Tajribada foydalilaniladigan mikroorganizmlarni parvarish qilish uchun turli sxemada ishlangan termostatlarqo'llaniladi. Termostatda mikroorganizm uchun zarur bo'lgan harorat muayyan nuqtada saqlab turiladi.

## 14 – AMALIY MASHG'ULOT MEXANIK XISOB VA GIDRAVLIK XISOBI

**Ishdan maqsad.** Ishlab chiqarish korxonalarining quvvatini hisoblash.

Ishlab chiqarish sanoatida korxona quvvati deb, bu korxonaning barcha sexlari vaqt birligida ishlab chiqaradigan mahsulot miqdoriga aytildi. Korxona quvvati kalendar yilga hisoblanadi. Ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda alohida tur mahsulotlari uchun liniyalar texnik quvvati hisobga olinadi, (Masalan, aminokislotalar ishlab chiqarish, zamburug'lar va h.)

Liniyalar quvvati alohida jihozlar unumdarligi orqali topiladi, bu bug'latish apparatlari, sentrifuga, separator, bioreaktorlar, fermentyorlar va hokazolar bo'lishi mumkin.

Yillik quvvat liniyalar soni va unumdarligi hamda mavsum davomiyligi bilan hisoblanadi. Odatda mavsum avjida ishlab chiqarish korxonalari 3 smenada ishlashi mumkin. Mavsum davomiyligi har bir mahsulot uchun umumiy smena soni bilan ham belgilanadi.

Yillik quvvatni topish uchun har bir mahsulot bo'yicha smena quvvatini yillik ishchi fondga ko'paytiriladi. Yillik ishchi fond bu yillik smena miqdoridir.

Umumiy holda ishlab chiqarish quvvati ( $M$ ) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$M = \frac{T_c}{t}$$

bunda,

$T_c$  – korxona ish vaqtি fondining samaradorligi

$t$  - bir ish hajmidagi mahsulot birligi

Ishlab chiqarish quvvati vaqt mobaynida o'zgarib turadi.

Ishlab chiqarish quvvatini quyidagi balanslar yordamida aniqlanadi.

Kirish quvvati ( yil boshidagi quvvat)  $M_{y.b.}$ .

CHiqish quvvati (yil oxiridagi quvvat)  $M_{y.o.}$ .

O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati  $M_{o.r.}$ .

CHiqish quvvati quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$M_{y.o.} = M_{y.b.} + M_{kir.} - M_{chiq.}$$

bunda,

$M_{y.o.}$  - chiqish quvvati

$M_{kir.}$  – yil davomida kirayotgan quvvat,

$M_{chiq.}$  – yil davomida chiqayotgan quvvat.

Ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak, mashinalar soni, qurilmalarning unumdarligi, ishlab chiqarish dasturining mutanosibligi.

Ishlab chiqarish korxonasining ish vaqtি fondining samaradorligi  $-t/soat$ ,  
bir ish hajmidagi mahsulot birligi  $- t/soat$ ,  
Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini  $- t/yil$ .

### Masala.

Ishlab chiqarish korxonasining ish vaqtি fondining samaradorligi  $2000 kg/smene$ , bir ish hajmidagi mahsulot birligi  $250 kg/soat$ . Bir yilda ishchi kunlar soni 210 kun, korxona ikki smenadan iborat, bir smenani 4 soat deb qabul qilamiz. Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvatini topilsin.

$$M = \frac{T_c}{t}$$

$250*8=2000 \text{ kg/smenna}$ ,

$210*2000=500000 \text{ kg/smenna}=500 \text{ t/soat} (\text{yillik})$

Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvatini  $500 \text{ t/soat}$ .

### Talaba uchun topshiriq

Ishlab chiqarish korxonasining ish vaqtini fondining samaradorligi  $X \text{ kg/smenna}$ , bir ish hajmidagi mahsulot birligi  $Y \text{ kg/soat}$ . Bir yilda ishchi kunlar soni 245 kun, korxona ikki smenadan iborat, bir smenani 4 soat deb qabul qilamiz. Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati topilsin.

Variant	$T_s$ (kg/soat)
1	2800
2	7200
3	3000
4	4200
5	5000
6	8000
7	2000
8	2500
9	4000
10	3600

### Nazorat uchun savollar

- 1.Ishlab chiqarish korxonalarining quvvatini hisoblashda qanday ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak?
- 2.CHiqish quvvati formulasini yozing va izohlab bering.
- 3.Ishlab chiqarish quvvati qanday kattaliklarga bog'liq?

## 15 – AMALIY MASHG'ULOT

### ASOSIY VA YORDAMCHI BINOLARDAGI USKUNALARINI KOMPONOVKALASH

Biotexnologiya - hozirgi vaqtida insoniyatning eng asosiy dolzarb muammolaridan biri hisoblanmish - oziq-ovqat, energetik resurs, atrof-muxit ifloslanishining oldini olish bilan bog'lik muammolari echimini topishga xizmat kiladi. Mikroorganizmlar, o'simlik va hayvon xujayralari, sun'iy oziqa muhitlarida o'stirilayotgan hujayra, to'qima va organlarni biosintetik potensialidan amaliy foydalanishda bioreaktor va biotexnologik jarayoi uskunalarining ahamiyati katta. Hozirgi vaktida dunyoning ko'plab manlakatlarda biotexnologiyaning tarakkiyotiga asosiy e'tibor karatilmokda, chunki boshka texnologiyalarga karaganda, biotexnologik jarayonlari energiya sarfining kamligi, deyarli chiknndisnligi, ekologik sofligi jixatidan bir kator afzalliklarga ega. Bundan tashkari bu texnologiyalar muayyan asbob-uskuna, texnik kurilma va preparatlardan foydalanishi talab kiladi, shuningdek, iqlim sharoitlariga karamasdan kichik xajmni egallaydigan maydonlarda xam tadqiqotlar o'tkazish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamonda ko'proq diqqat e'tibor tirik organizlarning hayot-faoliyatiga suyanib olib boriladigan sanoat jarayonlariga qaratilmoqda va ular biotexnologik jarayonlar deb ataladi. Biotexnologiyani gulkirab rivojlanishi oxirgi 40 yillarga to'g'ri kelib, biologiya fanining yutuqlari, genetika va hujayra injeneriyasi texnologiyalarining ishlanmalarini yuzaga kelishi hamda tabiiy resurslarni kamayishi (yoki qimmatlashishi), ananaviy texnologiyalarning inqirozga uchrashi bilan bog'liqidir. Biotexnologiyaning rivojlanishi kelajakda iqtisodiy va ekologik manfaatdorlikka olib keladi.

Biotexnologiyaning bugungi kundagi faol rivojlanayotgan ilmiy yunalishi - mikrobiologik biotexnologiyadir yoki uni mikrob biotexnologiyasi deb ham yuritiladi. Mikrob biotexnologiyasi rivojlanishi birinchidan ayrim mahsulotlarga bo‘lgan.

Apparatning texnologik hisobi deganda, uning moddiy va issiqlik balanslari, apparatning asosiy o‘lchamlari , gidravlik hisobi, normativ sarflar aniqlanish hisob kitoblari tushiniladi. Apparatning texnologik hisobi bo‘yicha quyidagilarni aniqlash kerak.

yuqori va quyi mahsulotlarning tarkibi va miqdori;

yuqori va quyi desorb harorati;

isitgichning issiqligi.

*Absorbsiya - bu gazlar aralashmasidan biror moddaning suyuq fazaga selektiv ravishda yutilish jarayonidir.*

*Absorbsiyaga teskari jarayon, ya’ni yutilgan komponentlarni suyuqlikdan ajratib olish desorbsiya deyiladi.*

Texnologik hisoblashning asosiy turlari.

Texnologik jarayonlarning amalga oshirishda qayta ishlash uchun modda va materiallar kerak bo‘ladi. Ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashda apparat va jarayonlarning o‘lchamlari, yoqilg‘i sarfi hisobga olinadi. Texnologik hisoblar material va energetik balanslar asosida amalga oshiriladi. Gidravlik hisoblar bo‘yicha ishchi o‘lchamlar o‘lchanadi, shuningdek, apparatning to‘liq ishlashi uchun bosim va temperaturaning o‘zgarishi o‘rganiladi.

Jarayon uchun material balanslarni komponenet yoki elementlar hisobida hisoblash mumkin. Balanslar tenglik, tajriba, sxema yoki diagramma ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Bioreaktor o‘lchamini tanlash

Bioraktor o‘lchami kubik metrda, xom-ashyo sifati, turi miqdoriga, shuningdek, bijg‘itish davomiyligi va haroratiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Bioreaktor o‘lchami va kunlik yuklanadigan xom-ashyo me’yorining nisbati

Kunlik yuklanadigan xom-ashyoning miqdori bijg‘itish davomiyligi va tanlangan haroratga nisbatan aniqlanadi. Bioreaktorda mezofil rejimda bijg‘itish davomiyligi 10 kundan 20 kungacha davom etadi. Kundalik quyiladigan xom-ashyoning me’yori esa bioreaktordagi umumiy xom-ashyoning 1/20 dan 1/10 gacha nisbatda bo‘ladi.

Aniq miqdordagi xom-ashyoni qayta ishlash uchun bioreaktor o‘lchami. Dastlab hayvonlar soniga bog‘liq holda biogaz uskunasiga tushadigan kundalik go‘ng miqdori (DN) aniqlanadi. So‘ngra xom-ashyo suv yordamida 86-92% namlikkacha suyultiriladi.

Ko‘pchilik qishloq xo‘jalik biogaz uskunalarida go‘ng va suv miqdori 1:3 dan 2:1 nisbatgacha qo‘llaniladi.

SH

Shunday qilib, yuklanadigan xom-ashyo (D) – bu xo‘jalik qoldiqlari summasi (DN) va suv (DV) aralashmasiga teng.

Xom-ashyoni mezofil rejimda qayta ishlash uchun xom-ashyoning kundalik me’yori uskunaga quyiladigan umumiy xom-ashyoning (OS) 10% iga teng bo‘ladi.

SHunday qilib, bioreaktor o‘lchami (OR) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

OS = 2/3 OR

OR = 1,5 OS

Bunda:

$$OS = 10 \times D \quad D = DN + DV$$

Xo‘jalikda 10 bosh yirik qoramol, 20 bosh cho‘chqa va 35 bosh tovuq boqilganda bioreaktor o‘lchami quyidagicha bo‘ladi:

1 bosh yirik qoramolning kundalik ekskrementining hajmi 55 kg;

1 bosh cho‘chqaniki 4,5 kg, 1 bosh tovuqniki 0,17 kg ga teng bo‘ladi.

Demak, xo‘jalikning kundalik axlat chiqindisi (DN) quyidagiga teng bo‘ladi:  $10 \times 55 + 20 \times 4,5 + 35 \times 0,17 = 550 + 90 + 5,95 = 645,95$  kg yoki taxminan 646 kg ni tashkil etadi.

Ekskrementlarning namligi cho‘chqanida va qoramollarda 86%, tovuqlarnikida esa 75% ga teng bo‘ladi.

85% li namlikni ta’minlash uchun 3,9 l suv qo‘shish zarur (4 kg atrofida).

Demak, kundalik quyiladigan xom-ashyo miqdori 650 kg.

Bioreaktorning to‘liq xom-ashyo bilan to‘ldirilishi OS =  $10 \times 0,65 = 6,5$  t va bioreaktor hajmi OR =  $1,5 \times 6,5 = 9,75$  yoki taxminan 10m<sup>3</sup> ga teng bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1.A.Yu.vinarov , I.s.gordeev, a.a.kuxarenko, v.i.panfilov . fermentatsionnie apparati dlya protsessov mikrobiologicheskogo sintnza, Moskva DeLi print, 2005

2.Viestur U.E. i dr. Biotexnologiya. Biologicheskie agenti. Texnologiya, apparatura. Riga., zinnate. 2005. S.261.

**« BIOTEXNOLOGIK JARAYON JIHOZLARI »**  
***FANIDAN***  
***LABORATORIYA MASHG'ULOTLAR***  
***BO'YICHA USLUBIY QO'LLANMA***



## **KIRISH**

Ushbu qo`llanma « Biotexnologik jarayon jihozlari» fani zamona viy biotexnologik usullardan foydalanib oziq-ovqat, energetik resurs, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bilan bog`liq muammolari echimini topish, o`simlik va hayvon xujayralari transgen o`simliklar olish, turli stress omillar, bakteriya, zamburug` va viruslar, gerbitsidlarga chidamli o`simlik shakllarini yaratish, xujayralarning in vitro tizimida yashashi va ko`payish xususiyatlari, regeneratsiyalanishi va ularning totipotentligini o`rganish, o`simliklarni xujayralar kulturasidan foydalanib, dori preparatlar vitaminlar biologik faol moddalar va boshqalarni ishlab chiqarishga asoslangan.

Fanning vazifasi - rekombinant DNK va RNKlar olish, xujayralardan genlarni ajratish, genlar ustida muolajalar o`tkazish, ularni boshqa organizmlarga kiritish orqali yangi irsiy xususiyatga ega bo`lgan genetik strukturalar va organizmlar yaratish, hujayralarni biosintetik potensialidan amaliy foydalanish mumkinligini asoslab berish.

Fanning maqsadi- gen va xujayra muxandisligi usullari yordamida mikroorganizmlar xujayrasiga boshqa organizmlarni genlarini kiritish va shu genlarning maxsulotlarini olish, o`simliklarning atrof muhitning stress omillariga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish imkoniyatlari bilan tanishtirishdir.

**1 - LABORATORIYA ISHI.**  
**BIOTEXNOLOGIK JARAYON JIHOZLARI LABORATORIYANING ASOSIY**  
**HAVFSIZLIK QOIDALARI**

Talabalar labaratoriya ishlarini bajarishga texnika va yong‘inga qarshi xavfsizlik qoidalarini o‘qib o‘zlashtirganlari, xamda maxsus jurnalda ro‘yxatga olinganlaridan so‘ng qo‘yiladilar.

Texnika va yong‘inga qarshi xavfsizlik qoidalari talabalarini bajarishga talabalar shaxsan javobgardirlar. Laboratoriyada ishlaganda ular asosiy etiborni quyidagi talab va tavsiyalarga qaratishlari kerak:

Laboratoriya ishlarini bajarishni faqat uslubiy qo‘llanmalar asosida amalga oshirish kerak. Ishni bajarishda talabalar faqat ximoyalovchi ustki kiyimlari-xalatlari bo‘lsagina qo‘yiladilar. Kimyoviy reaktivlar bilan ishlaganda ularning qo‘lga to‘kilishiga yo‘l qo‘ymaslik, qo‘llarni ko‘zlarga va yuzga tekkizmaslik kerak. Kimyoviy moddalarni ta’mini ko‘rish man etiladi; moddalarni xidini ularning bug‘larini yoki gazlarini qo‘l bilan elpib turib, o‘ziga yo‘naltirib, chuqur nafas olmay xidlash mumkin. Ishdan so‘ng qo‘llarni tozalab yuvish kerak. Laboratoriyada ovqatlanish man etiladi. Laboratoriyada faqat etiketkali kimyoviy idishda turgan, nomi ma’lum reaktivlardan foydalanish kerak. Ishqor va kislotalar, xamda boshqa o‘yuvchi va zaxarli suyuqliklar xajmini faqat o‘lchash silindiri, avtomatik pipetka yoki maxsus rezinali pipetkalarda o‘lchashga ruxsat beriladi. Suyuqlik quyilayotgan, qizdirilayotgan idishga yaqin engashib qarashlik man etiladi, chunki suyuqliknini sachragan tomchilari yuzga yoki ko‘zlarga tegishi mumkin. Suyuqliknini zinch yopilgan idishda qaynatish man qilinadi. Engil uchuvchan moddalarning ajralib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan, kislotali, ammiakli, eritmalarini qaynatish va bug‘latish ishlari, dietil efiri va boshqa erituvchilar bilan ishlash, taxlil qilinayotgan moddalarni yondirish ishlarini faqat yoqilgan aktiv ventilyasiya shkafida (tyaga ostida) bajarishga ruxsat beriladi. Engil yonuvchan moddalari (dietil efir, atseton, spirt va boshqa erituvchilar) bilan ochiq elektr isitish jixozlari yaqinida ishlash man qilinadi. Issiq suyuqlik solingen kolba va stakanni olib yurganda nixoyatda extiyot bo‘lish kerak. Laboratoriyada asosan tik turib ishlash kerak; faqat yong‘in, sachrash va portlash xavfi bo‘lmaganda o‘tirib ishlash mumkin. Laboratoriyada yolg‘iz bir kishi ishlashi man etiladi. Elektr jihozlar bilan ishlaganda, shu jihoz bilan ishlashning barcha qoidalari qat’iy amal qilish kerak. Elektr tarmog‘iga ulangan uskunani qo‘zg‘atish yoki ta’mirlash man etiladi.

Yoqilib, ishlab turgan jixozlarni nazoratsiz qoldirish qat’iyan man qilinadi.

